

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI


BUXORO OZIQ-OVQAT VA YENGIL SANOAT TEXNOLOGIYASI INSTITUTI

"IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI"

fanidan

MA`RUZALAR MATNI

"MARKETING" kafedrasi



BUXORO - 2008

Tuzuvchilar:

Z.X.Karimova

Qilichev S. S.

Taqrizchilar: BuxOO va YESTI dotsenti, i.f.n X.A.Ulashev

BuxDU dotsenti, i.f.n X.R.Hamroyev

Iqtisod yo'nalishida ta'lim olayotgan bakalavrlar uchun mo'ljallangan

Ma'ruzalar matni "Marketing" kafedrasining 200_ yil _____

— majlisida muhokama qilingan va ko'paytirishga tavsiya etilgan.

Mazkur ma'ruzalar matni BuxOOVaYSTI uslubiy kengashining _____ 200_ yildagi __ yig'ilishi bayoni bilan tasdiqlangan.

ANNOTATSIYA

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi kursi bo'yicha ma'ruzalar matni asosan oliygochlarning bakalavr – iqtisodchilari uchun mo'ljallangan. Ushbu ma'ruzalar matnida iqtisodiy bilimlarning vujudga kelishining tarixiy taraqqiyot jarayonlari ularning salbiy va ijobjiy tomonlari ko'rsatilib beriladi. Matnni yozishda yirik iqtisodchi olimlarning, tarixiy manbalarni va asarlarni o'rganilish asosida yozildi.

Ushbu ma'ruzalar matni talabalar uchun oson tushunishlari va o'rganishlari uchun manba bo`lib xizmat qiladi va sodda tilda yozilgan.

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
1-MAVZU: IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI FANINING PREDMETI VA METODI	5
2-MAVZU: QADIMGI SHARQ VA ANTIK DUNYO IQTISODIY G'oyalari.....	11
3-MAVZU: ARAB MAMLAKATLARDAGI IQTISODIY G'oyalar.....	27
4-MAVZU: O'RTA ASRLARDA MARKAZIY OSIYO MUTAFFAK-KIRLARINING IQTISODIY QARASHLARI.....	34
5-MAVZU: MERKANTILIZM VA FIZIOKRATIZMNING UMUMIY TAVSIFI. ASOSIY IQTISODIY G'oyalari.....	45
6-MAVZU: KLASSIK BURJUA IQTISODIY MAKTABI.....	
(U .Petti, A.Smit, D. Rikardo)	54
7-MAVZU: XAYOLIY SOTSIALIZMNING VUJUDGA KELISHI.....	
VA EVOLYUTSIYASI	66
8-MAVZU: MAYDA BURJUACHA IQTISODIY NAZARIYALARING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHI.....	73
9.MAVZU: VULGAR SIYOSIY IQTISODINNING SHAKLLANISHI.....	
J. B. SEY, T. MALTUS NAZARIYALARI	80
10-MAVZU: MARKSIZM-LENINIZM IQTISODIY TA'LIMOTI	86
11-MAVZU: MARJINALIZMNING VUJUDGA KELISHI	
AVSTRIYA MAKTABI	95
12-MAVZU: "KEMBRIDJ MAKTABI. A.MARSHALLNING TA-LAB VA TAKLIF NAZARIYASI. J.B.KLARKNING IQTSODIY QARASHLARI. AMERIKA MAKTABI.....	103
13. MAVZU. LOZANNA MAKTABI VA UNING AHAMIYATI	109
14-MAVZU: NEOKLASSIK MAKTABIING INQIROZI. KEYN-SCHILIKNING YUZAGA KELISHI	112
15-MAVZU: YANGI KLASSIK MAKTAB EVOLYUTSIYASI VA NEOLIBERALIZM. HOZIRGI ZAMON KONSERVATIZMI. INSTITUTSIONALIZM.....	120
16-MAVZU. O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ERKIN BOZOR IQTISODIYOTINI YARATISHNING KONTSEPTSIYALARI VA UNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI.	131
FOYDALANADIGAN ADABIYOTLAR:	140

KIRISH

Iqtisodiy ilmlarni egallash avvalo, iqtisodiyotning kelib chiqish, rivojlanish va o'rin almashinish jarayonlaridagi iqtisodiy manbalarning tarixiy taraqqiyotini o'rganishni taqozo etadi. Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotiga o'tish davri iqtisodchilardan, shu jumladan xo'jalik hayotining boshqa sohalarida mashg'ul bo'lgan mutaxassislardan, siyosatdan mustasno bo'lgan, erkin iqtisodiy fikrlashni, shu asosda amaliy jarayonlarga tegishli tajriba orttirish, samarali tadbirlarni ishlab chiqishni amalga oshirishni talab qiladi. Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureati (1970yil) Amerikalik olim Pol Samuelson o'zining "Ekonomiks" darsligida iqtisodiyot fani tarixi bilan chambarchas ravishda bog'liqdir deb to'g'ri ta'kidlaydi. Haqiqatdan ham iqtisodnyotning nazariy asoslarini shakllantirishni va rivojlanirish bosqichlarini bilmay turib, talablar darajasiga javob bera oladigan ishlab chiqarish munosabatlari sistemasi (iqtisodiy model) haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin emas. Shu sababli iqtisodiyot bo'yicha mutaxassislar tayyorlashda "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" fani alohida o'rin egallaydi va zarur fanlar guruhiga kiradi. G'arb, chet mamlakatlarning universitetlarida ham bu fan alohida fan sifatida o'tiladi. "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" fanining muhimligi, zarurligi ayniqsa, hozirgi kunda ortib bormoqda, bu fan insoniyat jamiyatni paydo bo'lgandan boshlab, yuzaga kelgan ilk iqtisodiy g'oyalardan, fikrlardan to hozirgi zamon iqtisodiy ta'limotlar vujudga kelish jarayoni mazmunini ob'yektiv ravishda bayon qilib beradi. Bu borada u talabalarni sinfiy jamiyatlarda paydo bo'lgan ilk iqtisodiy fikrlar va kapitalizmgacha bo'lgan davr ichida yaratishgan ta'limotlarning ilmiylikdan ancha yiroq bo'lganligi bilan tanishtiradi. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanining bu ma'ruzalar matni kapitalizm davrining hozirgi til bilan aytganda, bozor iqtisodiyoti nazariyotchilari bo'lgan klassik maktab namoyoidalari asarlarini o'rganishga, ularning iqtisodiyot faniga qo'shgan hissalarini, ya'ni ular yaratgan iqtisodiy nazariyalarining tahlili va tasdiq etishga katta e'tibor bermaslik maqsadga muvofiq bo'lmas edi. Shu bilan birga Marks iqtisodiy ta'limoti sovet davri iqtisotchilari tomonidan yoritilgani ham bunda qayt etilgan, Marks, Lenin, Engels g'oyalarining tarixiy sinovdan o'tmaganligi alohida qayt etib o'tilgan, ularga ijodiy yoidashish kerakligi uqtirilgan. Klassik maktabii asosiy merosdan ajratib olgach burjua iqtisotchilarning asosiy oqimlari (Marjinalizm, tarixiy va ijtimoiy maktablar, institutsionalizm, yangi liberalizm va qonunchilik ko'rinishidagi) nazariyalari bayon qilinadi. Bugungi kundagi iqtisodiyot nazariyasi iqtisodiy rivojlanishning nazariy jihatdan davomi hisoblanadi.

1-MAVZU: IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI FANINING PREDMETI VA METODI.

Reja:

- 1. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanining pretmeti va metodologyasi.**
- 2. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanining rivojlanishidagi bosqichlari.**

3. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanining o'qitishdagi yangicha yoidoshuvlar.

4. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi.

1. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanining predmet va metodologiyasi.

Iqtisodiy muammolari o'rganish asosan, iqtisodiyotni mukammallashtirishdagi tarixiy taraqqiyot davomidagi nazariy yo'nalishlari bilishni taqazo qiladi.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi uzoq bir tarixiy davrni o'z ichiga olgan holda kishilik jamiyatning iqtisodiy jarayonlarini bilishni o'rganadi. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi kursi iqtisodiy fanlar tizimida muhim o'rnni egallaydi. Insoniyat o'zinining ko'p ming yillik tarixi davomida iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot yo'llini bosib o'tgan. Har bir davrda u yoki bu mamlakatda ayrim shaxslar (Zolim va hokimlar) tomonidan shunday iqtisodiy ahamiyatga molik fikr, g'oya, nazariya, konsepsiyalari ilgari surilgan va amalga oshirilgan bir holda shular tufayli davlat va xalq ravnaq topgan, ba'zida tushkunlikka uchragan. Ana shu iqtisodiy g'oyalarni har tomonlama chuqur o'rganish, tahlil etish, ular ortidan umumbashariy ahamiyatlilarini ajratib olib, hozirgi davrda xayotga tadbiq etish nihoyatda nazariy va amaliy jihatdan foydalidir. Chunki ularda ko'p tajriba mujassamlangan bo'ladi.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanining pretmeti bo'lмаган davrdagi u yoki bu sinflar, ijtimoiy qatlamlar, insonlar manfaatini ifoda etuvchi iqtisodiy g'oyalar vujudga kelishi, rivojlanishi va almashinuvchi tarixiy jarayoni hisoblanadi. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fani mustaqil fan sifatida eng qadimgi davrdan boshlab to hozirgi zamongacha vujudga kelgan iqtisodiy g'oyalar, asosiy iqtisodiy fikrlar, qarashlar, nazariya va ta'limotlarni o'z ichiga oladi.

Bu fanning o'rganish metodologiyasi asosida tarixiylik, ob'yekтивлик va dialektik usul yotadi.

Tarixiylik asosida o'rganish tarixiy taraqqiyot davrlaridagi iqtisodiy g'oyalar o'rganiladi va tahlil qilinadi. Tarixiy misollar asosida iqtisodiy g'oyalar mukammallashtiriladi.

2. Ob'yekтивлик metodini qo'llashda iqtisodiy ta'limotlar tarixidagi iqtisodiy fikrlar, qarashlar, ta'limotlar yo'nalishlar ochiq oydin o'rganiladi, ushbu nazariyalarning kamchiliklari va muvaffaqiyatlari, to'g'ri tomonlari ochiq - oydin ko'rsatib beriladi.

3. Dialektik usul orqali iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanidagi g'oyalar, nazariyalar, qarama-qarshiliklar asosida rivojlanishi ko'rsatiladi. Bu fanni chuqurroq o'rganish yuqoridagi metodlardan samarali foydalanish imkonini beradi.

2.Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanining rivojlanishidagi bosqichlari va unga yangicha yoidoshuvlar.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixini o'rganishda ma'lum davrlash tizimidan foydalaniladi. Hozirgacha eng maqbul usul ijtimoiy - iqtisodiy formatsiyalarning o'zgarishiga qarab ish yuritishdir. Chunki qaysi formatsiya'ni ustun, ilg'or boshqarishni amalga oshirgan bo'lsa, ular masalan quldorlik yoki kapitalizm, davriga xos jamiyatni sinfiy tuzilish, iqtisodiy manfaatlari va

boshqalar yotadi. Quldorlik va feodalizm davrida g'oyalarning tarqashini (migratsiyasi) juda qiyin bo'lgan, shuning uchun bu davrlardagi iqtisodiy g'oyalarni alohida mamlakatlar miqyosida o'rganish ma'quldir.

Yetakchi g'arb olimlari ham formatsion davrlashni tan olishadi, ammo kapitalistik tuzimning o'tkinchi ekanligini, sotsialistik va kommunistik jamiyat qurilishi mumkinligini inkor etishadi xolos.

Kapitalizm davrida xo'jalik ijtimoiy hayotda baynalminallik kuchayganligi tufayli, iqtisodiy fikrlarning rivojlanishini ham yagona jahon miqyosi jarayoniga aylana boradi, oqibatda klassik iqtisodiy maktab asoschilari A.Smit, D.Rikardonning qarashlari qisqa vaqt ichida butun jahonga ma'lum bo'ldi. Vaholanki undan avvalgi ma'lum ko'pgina nazariyalar ayrim mamlakatlarda ko'pchilikka ma'lum bo'limgan.

Qadimdan to hozirgacha minglab turli-tuman iqtisodiy g'oya, qarash, konsepsiya, nazariya, ta'limotlar vujudga kelganligi aniq. Ularning barchasini to'la, alohida o'rganish maxsus muammo hisoblanadi. Shu maqsadda yangi tadqiqotlar olib borish, tahlil qilish va umumlashtirib e'lon qilish zarur.

Ammo hozirgi davrgacha jamlangan iqtisodiy g'oyalarni sistemaga soliq va shu asosida o'rganish maqbuldir. Ammo o'tgan davr hodisalarni va g'oyalarini hozirgacha moslashtirish mumkin emas. Bu tarixini vulgarashtirish va zamonaviylashtirishga, o'rganilayotgan davrning xususiyatlarini inkor etishga olib keladi. Iqtisodchilarining tadqiqotlaridagi asosiy g'oya jamiyat, insoniyat ayrim shaxslarni boyligining masalasidir. Ilk kapitalistik davrda (XV asr) bo'lgan iqtisodiy g'oyalarning umumiyligi shuki, barcha donishmandlar yozgan asarlarida mehnat va yer boylikni jamlashning turli yo'llar bilan talqin etiladi, Ularning qarashlarida ishlab chiqarish sohasini o'rganish asos qilib olinadi.

XV-XVI asrlarda (qisman XVIII asr boshlarida) yangi iqtisodiy ta'limot vujudga keldi. Uning asosiy g'oyasi mamlakat hayotida iqtisodiy siyosati davlat xazinasida nodir metallarni ko'proq to'plash, ta'limotda esa (savdo) muomala sohasidagi qonuniyatlarni izlashdir. (merkantilizm).

Keyingi muhim o'zgarish klassik iqtisodiy maktabiing yuzaga kelishidir. (XVIII asr). Bu iqtisodiy ta'limotlar ichida fiziokratizm ham vujudga keldiki uning umri uzoq bo'lindi. Klassik maktab g'oyalari hozirgi davrda ham turli shakllarda qayta namoyon bo'lmoqda. (neoklassik, liberal, neoliberal). Marks nomi bilan bog'liq bo'lgan marksizm ta'limoti ham tarixida muhim o'rinnegallaydi. Hozirgi davrda bu ta'limot to'g'risida imkonlari boricha gapirmaslikia, ayniqsa yozmaslikka harakat kuchaymoqda, ko'proq uning salbiy tomonlarini hisobga olish rusum bo'lgan, buning sababi bor albatta. 1917 yili Rossiyaga boshlangan marksizmni hayotga tadbiq qilish jarayoni samarasiz tugadi. Davri tarixi uchun bu saboqni chetlab o'tish mumkin emas. Bu adolatdan emas, XIX asr

o'rtalarida marksizmga muqobil ravishda vujudga kelgan va umumlashtirilgan holda marjinalizm, deb atalgan vujudga keldi. Har qaday ta'limot doimo sof holda amalda qo'llanilavermaydi. Har bir ta'limotning ko'plab turli oqim yo'nalishlari bor. Bu ta'limotlar sof holda uchramaydi. Demak iqtisodiy ta'limotlar tarixi ham doimo harakatda, o'zgarib, rivojlanib turadi. Bir mamlakat doirasida iqtisodiy ta'limot ta'siri ostida iqtisodiy siyosat ham doim rivojlanishda bo'lishi kerak. 90-yillarda sotsialistik iqtisodiyotdan, ya'ni iqtisodiyoti ma'muriy buyrukbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan (rejali), bozor iqtisodiyotiga o'tish davri amalga oshirilmoqda. Bu O'zbekistan misolida bozor munosabatlariga o'tish iqtisodiyoti deb bayon etiladi.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanining boshqa fanlardan farqli xususiyati shuki, Har bir g'oya, ta'limot uni yaratgan bir yoki bir guruh insolari, olimlar, davlat rahbarlarining faoliyati bilan chambarchas bog'liq holda beriladi. Sharq, xususan Markaziy Osiyo donishmanlarining g'oyalariini o'rganish endigina boshlandi.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi, boshqa fanlarga ham xos bo'lgan xususiyat.

3.Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog'liqligi.

Bu fan boshqa iqtisodiy fanlar bilan bevosita bog'liq. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi ancha keng davrni qamrab olgan mustaqil tafsifga ega. Bu fanning o'rganish orqali iqtisodiyotga, xalq xo'jaligi tarixi, iqtisodiy konsepsiyalari, hamda aniq iqtisodiy pretmelarni o'rganishga asoslanadi. U yoki bu iqtisodiy o'zgarishlarning shart - sharoitlari va oqibatlarini tahlil etishga katta ko'mak beradi. «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fani iqtisodiyot fanining metodologiyasi asoslarini ta'minlab uning asosini tashkil etadi. Shu sababli bu fanlar iqtisodiyotning ajralmas qismidir.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fani bir qancha iqtisodiy fanlar bilan bog'liq ravishda o'rganiladi. Iqtisodiy fanlarning iqtisodiy ta'limotlar tarixi fani bilan o'zaro aloqadorligi quyidagilarda ko'rish mumkin:

1. Aniq iqtisodiy fanlar: tarmoq iqtisodiyoti, korxonalar iqtisodiyoti mamlakatlar iqtisodiyoti va boshqalar.
2. Informatsion tahliliy fanlar: iqtisodga matematik metodlar, statistika, xo'jalik faoliyati tahlili.
3. Maxsus iqtisodiy shakl va tashkilotlar iqtisodiyoti: kredit, marketing, moliya va boshqa fanlar.
4. Umumni Iqtisodiy nazariya.
5. Tarixiy iqtisodiy fanlar: iqtisodiy ta'limotlar tarixi, O'zbekiston tarixi va hokazo fanlar bilan bog'liq.

4. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanining o'qitishdagi yangicha yodoshuvlari.

Sovetlar tuzimi davrida ko'pgina fanlar, shu jumladan, iqtisodiyot fani sinfiylik, partiyaviylik mafkurasi asosida o'rganildi, marksizm - leninizm g'oyalari birdan-bir to'g'ri ta'limot deb qabul qilindi va barcha masalalar yechilgan, tarixiga, uzoq o'tmishga hech qanday xojat yo'q,

degan umumiy kayfiyat yuzaga keldi. Sotsialistik va kommunistik jamiyat ko'rishda dasturlamal bo'lган mafkuraga muqobil bo'lган barcha fikrlar tanqidga uchradi; asosiy e'tibor markscha - lenincha iqtisodiy ta'limotni o'rganishga, kapitalizm, bozor munosabatlarining kelajagi yo'qligini zo'rma - zo'raki «isbotlash» ga qaratildi.

Ammo bu pul tarixi sinovidan o'tmadni. Iqtisodiyotda sinfiy, mafkuraviy tamoyiliar ertaklardiagi qum saroylari kabi vayron bo'la boshladni. Tabiatning yomon ob-havosi bo'lganidek , tarixi ham bo'lib o'tgan yaxshi yoki yomon voqealar uchun hech kim oldida tavba - tazarru qilmaydi.

Bizda sunggi paytlargacha markscha-lenincha dunyo qarash birdan-bir qarash deb (dogma qilib olindi) kelindi va dunyodagi barcha ilg'or g'oyalalar inkor qilindi.

Oqibatda g'oyaviy bosiqlik umumbashariy rivojlanishdan ortda qolish ro'y berdi.

Shu sababli hozirgi paytda dunyodagi ilg'or g'oyalarni o'rganish davomida ko'p fikrlilikda o'ren olishi har qanday fikrni atroflicha tahlil etish kerakliligi aniq bo'lib qoldi. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi faqatgina YYevropa olimlarining iqtisodiy fikrlarini, ta'limotlarini o'rganibgina qolmasdan, Sharq xususan Markaziy Osiyo donishmandlarining iqtisodiy g'oyalarni o'rganish va ularni iqtisodiy hayotga tadbiq qilishni o'z vazifasi deb biladi.

Tayanch iboralar :

Iqtisodiy ta'limotlar tarixining pretmeti. Megodologiyasi, iqtisodiy fikr, iqtisodiy g'oya, iqtisodiy konsepsiya. Iqtisodiy ta'limotlar tarixining davrlanishi. Yangicha yoidoshuvlar, iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanining baynalminallashuvilar.

Takrorlash uchun savollar:

1. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fani nimani o'rganadi?
2. Iqtisodiyot nazariyasi fanining o'rganishdagi tarixiylik va ob'yekтивлик metodlarini izohlab bering ?
3. Iqtisodiyot ta'limotlar tarixi qanday iqtisodiy manbalarga asoslanadi?
- 4 .Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fani o'rganishda yangicha yoidoshuvlar nimalardan iborat ?
5. Iqtisodiyot ta'limotlar tarixi fani qanday davrlarni o'z boshidan kechirgan ?
6. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fani qaysi iqtisodiy fanlar bilan bog'liq ?

2-MAVZU: QADIMGI SHARQ VA ANTIK DUNYO IQTISODIY

G'OVALAR.

Reja:

- 1. Qadimgi Sharq quldorligida iqtisodiy fikrlarni vujudga kelishining tarixiy sinfiy va iqtisodiy shart-sharoitlari.**
- 2. Qadimgi Sharq mamlakatlardagi iqtisodiy g'oyalar.**
- 3. Qadimgi Yunoniston iqtisodiy g'oyalarning vujudga kelishi.**
- 4. Antik dunyo Rim quldorligidagi iqtisodiy g'oyalar.**

1. Qadimgi Sharq-quldorligida iqtisodiy fikrlarni vujudga kelishining tarixiy sinfiy va iqtisodiy shart-sharoitlari.

Iqtisodiy fan manbaalari asosan avvalo jahon sivilizatsiyasining boshlig'i Qadimgi Sharq hisoblanadi. Iqtisodiy g'oyalarning shakllanishi insoniyatning paydo bo'lishidan boshlangan. Lekin quldorlik jamiyati paydo bo'lgan davr asos qilib olinadi.

Dastlab quldorlik jamiyati "Sharqda sinfiy ajralish" bo'lgan joylarda Messoptamiya (Tigr va efrat daryolari oralig'ida) va Misrda eramizdan avvalgi IV ming yillikda yuzaga keladi. Bo'nga asosiy sabab shuki, bu yerda texnologik inqiroz ro'y berdi. Metall qurollar ishlatila boshlandi, qishloq xo'jaligida intensiv sug'orma dehqonchilikka o'tildi, shu asosda turg'un qo'shimcha mahsulot olish imkonini berdi. Oqibatda jamiyatda mehnat taqsimotini rivojlaitirishga, ko'pgina hunarmandchilik sohalaridan ajralib chiqishga, sinfiy tabaqalanishga turtki bo'ldi.

Qadimgi Misr eramizdan avvalgi XXII asr noib va aholi o'rtasidagi munosabatlar to'g'risida fikr yuritilardi. Bu davrda sinfiy ajralish to'la shakllanmagan bo'lib, boshqaruv ishlariga ishbilarmonlarni taklif etish (yuqori tabaqali yoki oddiy aholidan bo'lishidan qat'iy nazar) kerak deyilgan.

2. Qadimgi Sharq mamlakatlardagi Iqtisodiy g'oyalar.

Saqlanib qolgan yozma qonunlarda va yodgorliklarda iqtisodiy g'oyalar ham mavjud. Unda mustaqil ishlab chiqaruvchilarning huquqlarini himoya qilish, tartibga solish bo'yicha muhim fikrlar berilgan. Eramizdan avvalgi XVIII asrda Bobil (Vavilon) da (1792-1750) podsholik qilgan Hamurapi (ba"zi manbalarda Hammurani) qonun to'plamlari (jami 282 ta) diqqatga sazovordir. (1760yil) Bu to'plami 1901-1902 yillarda So'za shahri qoldiqlarini arxeologiya qazish paytida topilgan. Bular Fransiya poytaxti Parijdagi mashhur muzey Luvrda saqlanyapdi. Toshga o'yib yozilgan muhim va qadimiy tarixiy hujjatni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mavjud davlat sinfiy va sotsial jihatdan ancha mukammaligi bilan ajralgan.

Qonunda: “kuchlilar zaiflarni cheklamasligi kerak” degan qoida bor. Masa-lan, qarzdorligi uchun podsho jangchilari va boshqa aholining yerlarini sotish yoki tortib olish man etilgan. Sudxo'rlik faoliyati cheklangan, uning miqdori pulda -20, mahsulotda -33 foizdan ortiq bo'lmasligi kerak.

Asosiy maqsad ishlab chiqarishni birinchi navbatda qishloq xo'jaligini rivojlantirishni qo'llab quvvatlash bo'lgan, ya'ni mehnatsiz daromad topishga qarshi kurashilgan. Qarzni qarz hisobiga 3 yildan ortiq ushlab turish mumkin bo'limgan.

Bu qonunda umuman xususiy mulkchilik, shu jumladan yerga ham tan oningen. Birovni mulkiga ko'z olaytirgan, unga zarar yyetkazganlar iqtisodiy jihatdan jazolaganlar. Bu qonunlar to'plami davlatning mamlakatni iqtisodiy boshqarish sohasidagi dastlabki tajribasini ko'rsatadi.

Oqibatda shu davrda mamlakat ham siyosiy jipslashdi, ham iqtisodiy ravnaq topdi.

Qadimgi Hindistoida ham iqtisodiy g'oyalalar shakllangan. "Qadimgi Hindistoning "Manu qonunlari"da (eramizdan avvalgi V-Sh asrlar) ijtimoiy mehnat taqsimotining hukmron va bo'yishin institutlari mayjudligi aytildi.

Hindistoidagi iqtisodiy g'oyalarni aks ettiruvchi qadimgi yodgorlik
Artxashastra (eramizdan avvalgi IV-III asrlar oralig'idadir).

(Tom ma'nosi, ifodasi amaliy hayot to'g'risidagi fan, bu asar eramizdan avvalgi III- II asrlarda to'ldirilgan.

Bu asarda buyumning qiymati muammozi ko'satilgan, "Qiymat miqdori "ish kunlari bilan belgilangan, rag'batlantirish esa mehnat natijalariga mos ravishda belgilanish kerak deyiladi.

Bu asarda davlatni boshqarish bo'yicha takliflar berilgan bo'lib, bir qancha iqtisodiy g'oyalalar ham ilgari surilgan. Masalan, unga mahsulotning biror bahosi bilan uning tabiiy qiymati o'rtasidagi farq aytilgan. Tovarga bo'lgan ehtiyoj ortganda, uning bahosi qiymatdan oshib ketishi mumkin, deyilgan. Savdo bilan shug'ullanuvchilarga alohida urg'u berilgan, foyda masalasi ko'tarilgan, foydaning miqdori tovar bahosiga (boshqa Xarajatlar qatoriga) qo'shib, umumiy mahsulot uchun 5, chetdan kelgan tovarlar uchun 10 foiz (imij o'sha davrda ham afzal) qilib belgilangan.

Davlatning iqtisodiy ishlariga aralashuvi qo'llab quvvatlagan. Qishloq xo'jaligiga alohida e'tibor berilgan, bo'sh yerlar xalqqa, bo'lib berilishi va soliq toplash zarurligi, sug'orish inshootlari, qurilgan e'tibor berish haqida boradi. Umuman, davlat mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirishi kerak degan g'oya markaziy o'rinni egallaydi.

Moliya sohasida daromad solig'iga katta e'tibor berilgan. Davlat bu ishlarni rivojlantirish uchun moddiy va ma'naviy yordam berish kerak deyilgan Mahsulotga baho belgilash davlatning boyishini ta'minlash (foydani oshirib sarf harajatni kamaytirish, hisob-kitobni tartibga solish, har xil o'g'riliklarga qarshi kurashish kerakligi belgilangan) shu tamoyillarni amalga oshirish tufayli

jamiyatdagi norozilik tengsizlik yo'qoladi deyilgan. Qadimgi Hindistoida yaratilgan «Veda»larda ham bir qancha muhim iqtisodiy g'oyalalar keltirilgan.

Respublikamiz olimlarining tadqiqotlariga ko'ra Zardushtlik dinining islomgacha muqaddas kitobi bo'lган «Avesto»da ham muhim iqtisodiy fikrlar berilgan. Bu dinning ta'sir doirasi juda keng bo'lib, hozirgi Eron, Markaziy Osiyo Kavkaz orti yurtlari, ayniqsa Ozarbayjon va boshqa joylarda tarqalgan. E.a 2000 yillik oxiri- 1000 yillik boshida paydo bo'lган.

Zardushtizmning asosiy g'oyasi dualizmga ya'ni bir tomoidan yaxshilik va yorug'lik xudosi Axuramazda, ikkiichi tomoidan yovuzlik va qorong'ulik xudosi Axriman kuchlari o'rtasidagi kurashdir.

Inson xo'jalik faoliyatida tabiiy muhit bilan chambarchas bog'liq deb uqtiriladi, ammo insonga alohida e'tibor beriladi.

Yaxshilik odamning faoliyati, yaxshi g'oya, yaxshi so'z va yaxshi ishlar bilan boglangan bo'lishi kerak. Moddiy boyliklarni ko'paytirish yorug' dunyodagi yaxshi ishlarning asosiysi hisoblanadi.

Ko'chmanchi xalqlarning asosiy boyligi bo'lган mollar sonini saqlash, ularni bekordan bekorga qurbon qilaverish qoralanadi. Bu g'oya ayniqsa ilk zardushtiylikda kuchli bo'lган. Hayvonot dunyosini asrash, uning sonini oshirish, sifatini yaxshilashga alohida urg'u berilgan, buning uchun esa yaxshi yaylov, kerakli qarov, yem xashak bilan ta'minlash eng yaxshi faoliyat deb baholanadi. Yaxshi ishlarni amalga oshirish kuchli hokimiyat bo'lishi bilan qayd etiladi.

Kitobda yozilishicha hayvonlarni o'g'irlash yoki tortib olish, turar joylarni xonavayron qilishdan asrashga intilish yaxshilik g'alabasiga olib keladi. Ana shu qoidalarga amal qilganlarga yaylovlar bo'ylab erkin harakat qilishiga va'da beriladi, chunki tabiiy yaylovlar cheklangan sharoitda bu erkin harakat ta'minoti uchun muhimdir. Aks holda o'zaro to'qnashuvlar va urushlar ro'y beradi.

«Avesto» da yozilishicha ideal hayot tarzi quyidagicha talqin etilib, yerda qanday joyni topish yoki yaratish kerakki, u yerda ko'p ovqat pishirilishi doim katta bo'lak go'sht tegishi, otlar ishqirib turshi, ot arava g'ildiraklari jarangi chiqishi, qamchilar doim ko'larilib, ovozi chiqib turishi, odamlar jag'i tinmaydigan, ziravorlar yetarlicha yashirilib qo'yilgan xushbuy xid arimaydigan yaxshi hayot uchun kerakli barcha narsalarni istakka qarab ko'p miqdorda saqlanadigan omborlar bor joy tushiniladi.

«Avesto» ning 3-bobida «Vendidat» bo'lib, nisbatan keyingi davr voqeala-, rini aks ettiradi. Unda asosan dehqonchilik va dehkon mehnati ulug'lanadi. Endilikda ko'proq ekin ekiladigan don, o't mevali ekinlar o'stiriladigan, suvsiz joylarni sug'oriladigan, suvi ortiqcha yerlarli quritadigan joylar buning uchun ko'proq kichik va katta qoramollar boqish tavsiya etiladi.

Kitobning ushbu bobida dehqochilik va ayniqsa don ekish g'allakorlik ulug'lanadi. Agar odamlar chap va o'ng qo'llari bilan yerga ishlov bersalar unga foyda keltiradilar deyilgan. Bunda yerni tobora madaniylashtirish va undan ko'proq nav olish haqida gap boradi.

Xo'jalikning barcha tarmoqlari orasida g'allakorlik yuksak baho beriladi. Zoroastrizm (Zardushtlik) qashshoqlikni yo'qotish yoki unga yo'liqmaslik uchun ziroatchilikni rivojlantirish, yangi yerlarii ochish bo'yicha faol siyosat olib borish kerakligini uqtiradi. Ammo inson yerni tashlasa, unga qaramay quysa, undan odamlar o'zgalar eshigi oldida turgan doimiy gadoyga aylanadi. Bundan xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, ushbu iqtisodiy g'oyalar bizning bugungi kundagi iqtisodiyotimizda rahna solib turgan salbiy jarayonlarni bartaraf etishda nazariy kurs bo'la oladi.

Qadimgi Xitoydagi iqtisodiy g'oyalar E.A. VI-III asrlarda shakllangan. Bu mamlakatdagi dastlabki quldorlik davlatlari E.A 2000 yillikda paydo bo'lган. Konfutsiylik g'oyasi muhimdir. Uning muallifi Konfutsiy yoki Kun Tszi (E.A 551-478 yil) «Lun yuy» to'plamida (suhbatlar va mulohazalar) o'z g'oyalarini jamlagan olim kelajak rivojini o'tmisdan izlaydi. Shu davrda obro'y pasaygan zo-dagonlarning manfaatini himoya qiladi, Sun Tszi (313-278 i). Va boshqalar to-monidan davom ettirilgan. Yoshlarning qariyalarga hurmati, ularga qarshi chiq-masligi g'oyasi asos qilib olingan. Davlat bu katta oila, podsho esa xalqlar otasidir, boyliklar nisbatan tekis taqsimlanishi kerak, soliqlarni me'yorida saqlash, yerga ishlashini yaxshi bajarish, hammani o'z vazifalarini bajonidil ato etishi zarur deyiladi.

Bu g'oyalar Xitoyda muhim iqtisodiy o'zgarishlar davriga to'g'ri keladi. Temir qurollar tufayli dehqochilik va hunarmandchilik rivoj topdi, tovar-pul munosabatlari o'sdi, savdo sotiq kuchaydi. Sinfiy munosabatlar keskinlashdi. Shu sharoitda Konfutsiylik ijtimoiy-axloq va huquq doirasida tabiiy huquq nazariyasini ilgari suradi. Mamlakatdagi aristokratiya xalq o'rtasida vujudga kelgan quldorlik va xususiy mulk himoya qilinadi. Konfutsiy buyuk jamoa mulki va xususiy egalikni farqlaydi, so'nggisini ko'proq qo'llaydi. Jamiyatning turli qatlamlari xudo tomonidan belgilanganligini ta'kidlaydi va uni tabiiy hol deydi. Boylikning manbai mehnat bo'lib, hokimlar boyligi xalq boyligiga asoslanadi. U xalq hisobiga quldorlar boyligi ortishi tarafdoi edi. Xalqni ko'proq ishlab kamroq iste'mol qilishga chaqiradi.

Syun Tszi davlatning iqtisodiy jihatdan kuchayishi tarofdori edi, odamlarning boylikka intilishini qoralamagan. Ammo inson bir vaqtning o'zida ko'p kasb egasi bo'la olmaydi, degan fikr paydo bo'ldi, ya'ni olim mehnat taqsimoti zarurligi g'oyasini ilgari suradi. Davlatning iqtisodiy siyosati 3 ta tamoyilga asoslanishi kerak:

1. Harajatlarni iqtisod qilish, ya'ni tejab-tergab sarflash;
2. Xalq to'qligini ta'minlash.
3. Ortiqcha mahsulotlarii saqlash zarurligi.

Yetarlicha ta'mniot tamoyili insoning jamiyatdagi o'rniga bog'liq holda belgilangan. Ekspluatatsiya qo'llab quvvatlanadi, jamiyatda hammaning o'z aniq joyi bo'lishi kerak, deyilgan, ya'ni hukmdor, tobe', ota, o'g'il. Boshqarish ma'lum qonun asosida emas, balki oddiy odat bo'yicha bo'lishi, og'ir soliq va majburiyatlar bo'lmasligi ta'kidlanadi.

E.A 6-3 asrlarda Legistlar oqimi paydo bo'ldi, ular boshqarishni aniq qo-nunlar asosida olib borish tarofdori edilar (namoyoidalari Tszi Chap, Li Kuy), markaziy davlat kuchli, mamlakat esa yagona birlashgan bo'lishini qo'llab quvvat lashgan. Legistlar (Shan Yan) ayniqsa qishloq xo'jaligi, dehqochilik, donchilik ni rivojlaitirishga alohida e'tibor berishgan. Don masalasini hal etish bosh masala deb bilingan. Shan Ya'ning fikiricha davlat ravnaqi uchun ikki masalani hal etish zarur don va urush. Dehqonlar ro'yxatini o'tqazish, qonun yo'li bilan yig'ilgan don miqdoriga bog'liq yagona soliq tizimini kiritish taklif etiladi

Qonun yo'li bilan turli «Ishyoqmaslar» ni yerga qaytarish, ya'ni dehqochilik bilan shug'ullanishgan. Ya'ni mehnat qilishga majbur etish siyosatini qo'llash kerak deganlar (Xitoydag'i 1960 yiliar davomida yuz bergen madaniy inqiliob davrida shu siyosat amalga oshirildi). Undan tashqari qishloq xo'jaligi mahsu-lotlari bilan savdo qilishini qat'iy cheklash ham talab qilingan. (Go'yoki savdo-garlar bundan katta foyda olishlari mumkin). Savdogarlar savdoni tashlab, dehqochilikga intilishlari kerak. Erkin sohibkorlar taqiqlangan, umumiylar yer egaligi va javobgarlik joriy etilgan (E.A 351 yil).

«Guan Tszn» (E.A 4 asr) asarida ham xo'jalikni davlat tomonidan tartibga solishing tizimlari ancha mukammal bayon etilgan. Bunda Legnslardan farqli, tovar-pul munosabatlarini cheklashga intilmasdan, bu munosabatlarni o'rganib, undan xo'jalikni barqarorlashtirishda ma'lum mexanizm sifatida foydalanish taklif etiladi. Xalq xo'jaligini barqaror saqlash uchun tovarlar baholarini ushlab turish g'oya ilgari surilgan. Davlat hokimi non, pul, metallni tartibga solib yo'lida qo'lida saqlasa, mamlakat rivoji nisbatan tekis boradi deyilgan. Bu asarda ham agrar soha, ayniqsa donchilikka alohida urg'u berilgan. Agar Legistlar hunarmandchilik, ayniqsa savdoni befoyda soha deb hisoblangan bo'lalar, bu asarda esa o'sha sohalarga ham ijobiy baho berilgan. «yerni boshqarish» uchun davlat yerning tabiiy xususiyatlarini yaxshi bilishi kerak. Yer maydonlari nisbatan tekis taqsimlanishi zarur, dehqonlarni ishga qiziqish davrida boshqa yumushlarga jalb etmaslik, soliq tizimi sharoitiga qarab (yer unumiga bog'liq ravishda) bo'lishi taklif etilgan. Bu yerda gap yer kadastorini tuzish to'g'risida boradi, ya'ni bu ishda hisob-kitob bo'lishi qayd etiladi. Asarda yer va suvlarni davlat ixtiyoriga o'tqazish va ulardan daromad olish yo'lida foydalanish, baholarni tartibga solish yo'li va boshqa ko'pgipa iqtisodiy g'oyalalar ilgari suriladi. Bu g'oyalalar amalda ham qo'llanildi va yaxshi samara berdi.

Qadimiy Xitoy ijtimoiy hayotida Daosizm g'oyalari alohida o'rinni egallaydi, uning asoschisi Lyao-Tszi bo'lib, Konfutsiy davrida yashab, ijod etgan (E.A 4 - 3 asrlar). U taqiqlovchi qonunlariga

amal qilmaslikni taklif etdi, qonunlar ko'pligi tufayli «Xalq kambag'allashmoqda», degap edi u. Daosizm g'oyalari Konfutsiylikka qarama-qarshi bo'lib, insoniyat avvalgi majburiyatlaridan voz kechishi, oddiy tabiiy hayotga qaytishi kerak, degan fikrni ilgari suradi. Bu g'oyaga ko'ra inson iptidoiy davrga qaytishi, yangi mehnat qurollaridan foydalanmasligi kerak. Ko'riniib turibdiki unda reksionerlik elementlari bor. Ammo bu g'oyada xalq ommasining noroziligi ham aks etgan, chunki sivilizatsiya yutuqlari ekspulatatsiya manfaatlarita ham xizmat qilayotgan edi. Bunda kurashdan voz kechish, davlatning xalq hayotiga aralashuvini inkor etish fikrlari ustun kelgan.

3. Qadimgi Yunoniston iqtisodiy g'oyalarning vujudga kelishi.

Antik dunyo mamlakatlarida quldorlik klassik shaklda rivoj topdi. er. av. ming yilliklarida shakllandi. Qadimgi Gretsiya (Yunoniston)da ijtimoiy iqtisodiy hayotning hamma jabhalarida quldorlik bevosita ishlab chiqaruvchi kuchlarni ekspluatatsiya qilishning asosiy shakliga aylangan edi, ishlab chiqarish asosan quldorlik munosabatlari hukmron hisoblangan.

Dastlabki iqtisodiy g'oyalalar Xomerning "Iliada" va "Odessiya" poemalarida aks ettirgan bo'lib, iqtisodiyotning natural xo'jalik qonunlari ilg'ori surilgan.

Yunon shoiri Gesiad (er.av. 8-7 asrlar) ning "Mehnat qonunlari" asarida boylikning kuchi, hokimiyati aks ettirilgan. U dehkonchiliqni ulug'lab, bu sohada qisman qo'l mehnati ham ishlatilgan. U davrda oddiy xalq mehnati juda ham qadrlangan. Qulchilik ofatining bosib kelishidan xavfsirgan shoir go'yoki, ilgari hukm surgan "Oltin" davr ijtimoiy jabr va og'ir jismoniy mehnatga ehtiyoj bo'limgan davr yoritilgan.

Eramizdan avvalgi (VII-VI asrda polis (shahar) siyosati shakllanib bo'lgan, qulchilik ham tus oldi. Urug'chilik xususiy mulkchilik tomonidan siqib chiqariladi savdo, sudxo'rlik tez rivojlandi. Solon (er.av. 540, 635-559) islohotlari pul xo'jaligidan afzalligini ko'rsatib berdi (er.av. 594y)

Islohot tufayli qulni qarzga berish tasdiqlandi. Afinada Perikl (er.av.444/443+429y) tomonidan olib berilgan inslohotlar muhim ahamiyatga ega. Bu davrga kelib, qurilish, hunarmandchilik, savdo o'sdi. Shu davrda fuqaro va fuqaro bo'limgan aholining bir-biriga qarama-qarshi qo'yadigan qonunlar qabul qirindi. Bu ishlar qullarni hunarmandchilik va savdo sohalarida beayov ekspluatatsiya qilish savdo va pul xo'jaligini rivojlantirish hisobiga amalga oshirildi. Qulchilik o'z tabiatiga ko'ra insonga yot, u majburlikni talab etgani oqibatida ma'lum davrdan inqirozga uchray boshlagan. Bu davrda iqtisodiy aristokratiya'ni himoya qilish natural xo'jalikni yoqlash yo'lini tanlaydi, ya'ni siyosiy xarakterga ega bo'la boradi. Bu davrda buyuk allomalar o'z qarashlarida iqtisodiy g'oyalarni ham ilgari surganlar. Ular o'z qarashlarida iqtisodiy xodislarga bir tomonlama yoidashganlar.

Ksenofont (taxminan, er.av. 430-354)

Aflatun (Taxminan, er.av. 427-347)

Aristotel (Arastu er.av. 384-222) kabi olimu fuzalolar paydo bo'ldi.

Ksenofont «Ekonomiya» so'ziga izoh berib uni «Oykonomiya»: «Oykos» - uy, xo'jalik va «nomos» - qonun, qoida, tom ma'noda «ekonomiya» uy xo'jaligi to'g'risidagi fan deb atagan.

Ksenofont quldorlar mafkurasining himoyachisi hisoblanadi, qulchilikni tabiiy ob'yektiv jarayon deb baholaydi. Qo'l mehnatiga asoslangan natural xo'jalikni ulug'laydi. Ayniqsa qishloq xo'jaligi, dehqochilikni faravonlik manbai deb bilgan. Dehqochilik tufayli odamlar o'zlariga hayot uchun kerakli hamma narsani oladilar. Dalada ishslash sog'lik uchun ham foydali (toza havo), ham iqtisodiy naf keltiradi, degan.

U rahbarlar va ijrochilar mehnatini farqlaydi. Uningcha, ijrochilar jismoniy mehnat bilan shug'ullanadilar. Rahbarlar mehnati bilan erkin odamlar, mehnat bilan esa qullar band bo'lishlari kerak. Xo'jalik faoliyati davomida foydali buyumlar ya'ni iste'mol qiymatlari yaratiladi. Qadimgi yunon olimlari ichida birinchi bo'lib, mehnat taqsimotining ahamiyatini tushundi, koproq ortiqcha foyda olish, „xo'jalikni boyitish“ uchun qullar talabini imkonli boricha kamroq qoidirishni tavsiya etgan. Mehnat taqsimoti bilan kattaligi mahsulotning almashuv qiymati orasida uzviy bog'lanish borligiga e'tibor bergen. Pulning muomala vositasidan tashqari kapital sifatida jamg'arma vazifasini ham tan olgan. Pulning boshqa vazifalarini inkor etadi.

Platon (Aflatun) „Davlat“ va „Qonunlar“ asarlarida ideal davlat qanday bo'lishi kerakligini ochib bermoqchi bo'ldi. U aholini uch toifaga ajratadi:

1. Faylasuflar – davlat boshqaruvchilar;
2. Harbiylar – davlat apparatining bir qismi bo'lib, ular biror mulk egasi bo'lishi kerak;
3. Qora toifa-dehqon, hunarmand va savdogarlar bo'lib, ular mulk egasi bo'lishlari kerak.

Bu olimning mehnat taqsimoti, tovar-pul va savdogarlarning ajralib chiqishi o'rtaсидаги aloqalari to'g'risidagi fikri o'sha davr uchun buyuk kashfiyat deb baholash mumkin. Ammo Aflatun ko'pchilikka asoslangan jamiyatni himoya qildi. Pulning funksiyasini muomala darajasi deb bildi. Pulning jamiyatdagи gegemonchilikning bosh sabachisi deb bildi: u sudxo'rlik operatsiyalarini inkor etdi. Baholarni me'yorda saqlash yo'li bilan savdogarlarning foydasini cheklshni talab qildi. Aflatun qullarni fuqarolar deb tan olmadi va ularni biror toifaga kiritmadи (demak ular mulk egasi bo'lishi mumkin emas). Qullar mayda ishlab chiqaruvchilar va mayda savdogarlar bilan birga ikki toifa aholisining cheklanmagan talab ehtiyojlarini to'la-to'kis qoidirishlari kerak, degan edi. Shunday qilib, Aflatun o'zining ideal, ya'ni bekamu-ko'st davlatini barpo etar ekan, qulchilikni abadiy saqlash tarafдори edi.

Aristotel

Gretsiyadagi quldorlikning eng yirik mafkurachisi edi. Uni jahongir Iskandar Zulqarnaynning tarbiyachisi va o'qituvchisi ekanligini alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz. Avval Makedoniyada yashagan olim keyin Afrikaga ko'chib kelgan. Aristotel falsafa va boshqa

sohalardagi g'oyalari bilan iqtisodga oid g'oyalari ham muhim ahamiyatga ega. Uning „Nikomahov axloqi“ va „Siyosat“ kitoblarida iqtisodiy g'oyalalar mavjud. U „Qul tirik quroq, qandaydir tirik mulk“, degan edi. Uning fikricha, jamiyatning quldor va qullarga bo'linishi bu tabiiy va qonuniy ahvol bo'lib, odamlarning tabiatan turli-tumanligidir deb ataydi. U „haqiqiy boylik“ (tabiiy) ni tan olgan uni iste'mol qiymatlarining yig'indisi deb bilgan va bu boylik faoliyatini iqtisodga tegishli soha deb bilgan. Quldarlik xo'jaligini mustahkamlash uchun o'rtacha ta'minlangan quldorlar sinfini yuksaltirish kerak, buning uchun davlat tomonidan odil qalmashinuvini ta'minlash zarur. Olim masalani axloqiy ravishda hal etishga urinsada, necha marta almashuv qiymatini tahlil etib, va qiymatining mehnat naariyasikurtyaklarini yaratdi. Tovarlarning almashuv qiymati tovar bahosining yaratilish shakli ekanligini tushunib yetdi. Marksning formulalarini qo'llaydigan bo'lsak, T-T munosabati, T-P-T ga aylanadi va 5 ta „loja“=1 uyga yoki ma'lum miqdordagi pulga tenglashtirilishi mumkin, Platonga nisbatan Aristotel pulning mohiyatini kengroq anglab yetdi. Ammo u tovar ishlab chiqrishning rivojlanmaganligi va qiymatni to'la tushunmaganligi tufayli tovarlar pul tufayli bir-biri bilan solishtirish mumkn degan xato xulosaga keldi. Natural xo'jalik tarafdoi bo'lган olim muomalaning T-P-T shaklinigina tan olgan. (talabni qoidirishga mo'ljallangan holat), savdo va sudxo'rlik tabiatiga zid bo'lib, bularni pul qilish san'atiga xos narsa deb bilgan.

Aristotel qiymat qonuni muammosini qo'ydi. Lekin u to'la javob topib bera olmadi. U almashuvda tovar qiymatlari tenglashtirishini ko'radi. „Nikomaxov aholisi“ asarida u shunday fikr yuritadi: „jamiyat ikki vrachdan tashkil bo'lmaydi, balki vrach va dehqoidan, umuman bir xil va teng bo'limganlardan tashkil topadi. Ana shunday odamlarni bir-biriga tenglashtirish zarur. Shuning uchun almashuvga uchraydigan barcha narsalarni tenglashtirish, solishtirish zarur. Xullas, hamma narsa biror narsa bilan o'lchanishi kerak. Etikdo'z mahsulotning dehqon mahsulotiga bo'lган to'g'ri munosabati to'g'ri tenglash topish kerak“.

Lekin o'sha narsa nima ekanligi aytilmaydi. Savolga javob izlab, u o'z fikrini shunday davom ettiradi: „Biz nima uchun almashamiz, chunki menga chiqish tovarning, senga esa mening tovarim kerak“, degan oddiy xulosaga keladi. Tovarlarning tengligi pul tufayli amalga oshadi, deydi u. Hamma narsa biror narsa bilan o'lchanishi kerak. Bu avvalo, ehtiyoj u barcha narsani bog'lovchi asos ehtiyojni almashtirish uchun (odamlar kelishuvi bilan) pul – chaqa paydo bo'ldi. Aristotelning bu fikrida hozirgi zamon marjinalizm g'oyalari yotadi, ya'ni tovarlarning foydaliligi asosiy o'ringa chiqadi.

Aristotel iqtisodiyot (ekonomika) deganda hayot uchun zarur bo'lga mahsulotlar (iste'mol qiymatlari)ni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lган tabiiy xo'jalik faoliyatini tushunadi. Bu almashuvni ham o'z ichiga oladi, ammo zaruru talab ehtiyojlarni qoidirish chegarasidan

chioqmasligi kerak. Bu faoliyat chegaralari ham tabiiy bo'lib insonning ongi shaxsiy iste'moli doiasida bo'lishi kerak.

Xrematistika esa (amaliyotda kam qo'llaniladi) „mulk orttirish san'ati“, ya'ni ayniqsa pul shaklida foyda orttirish, boylik toplashga yo'naltirilgan faoliyatdir. Boshqacha aytganda, xrematistika – bu kapital qo'yish va jamg'arish „san'ati“dir.

Antik davrida hali sanoat kapital mavjud emas edi, ammo savdo va sudxo'rlik (pul) kapiltali sezilarli rolni o'ynagan. Shularni hisobga olib, olim savdo bilan bog'liq mol-mulk orttirish san'atida maqsadga erishish borasida hech qachon chegara bo'lmaydi, chunki cheksiz boylik va pulga egalik asosiy maqsaddir, deydi. Pul oboroti bilan shug'ullanuvchilarning hammasi o'z kapitalini cheksiz o'stirishga intiladilar.

Aristotel bularni notabiyy deb hisoblagan, ammo sof „ekonomika“ ham bo'lmasligini yetarli tushungan, ming afsuslar bo'lsinki, ekonomikadan doimo xrematistika o'sib chiqadi va bu astasekin tabiiy holatga aylangan. Aristotelning bu g'oyasi tarix tarix sinovidan o'tmadi. Olimlar qanchalik urinmasinlar (bu harakat o'rta asrda ham bo'lgan), xrematistikani qanchalik notabiyy deb hisoblamasınlar, kapitalizm munosabalari rivoji bilan u „tabiiy huquq“ qa aylana boshlaydi. Hatto XVII- XVIII asrlarda iqtisodiy odam yetishib chiqdi, uning barcha hatti-harakatlari faqat boyish bilan bog'liq edi.

„Ekonomiya“ so'zi dastlab uy xo'jaligini yuritish san'ati sifatida yuzaga kelgan bo'lsa, keyingi davrda u ko'proq va asosan „ekonomika“ ma'nosida qo'llaniladi va odatda xarajatlarni qisqartirish, ma'lum resurslarni sarflashda tejamkorlikni anglatadi.

1. Tuman, hudud, mamlakatlar guruhi yoki jahon xo'jaligi (masalan, jahon iqtisodiyoti, O'zbekiston iqtisodiyoti va boshqalar);
2. Xalq xo'jaligining, to'la ishlab chiqarishning ayrim shart-sharoitlari va elementlari (aholi, mehnat, boshqarish va boshqalar), ayrim tarmoqlar (sanoat, mashinasozlik, qishloq xo'jaligi, chorvachilik, ta'lim va boshqalar)na tadqiq etadigan ilmiy soha;
3. Ma'lum iqtisodiy tizimni tashkil etuvchi ishlab chiqarish, taqsimot, almashuv, iste'mol jarayonidan tashkil topuvchi odamlar o'rtasidagi ma'lum tarixiy – iqtisodiy munosabatlar majmuasi.

Shunday qilib, antik Yunonistoidagi olimu fuzololar iqtisodiy fikrlarida hozirgi zamon iqtisodiy jarayonlarning ba'zi tomonlarini korish mumkin.

4. Antik dunyo Rim quldarligidagi iqtisodiy g'oyalar.

Eramizdan avvalgi III asrda Qadimgi Rim (hozirgi Italiyada)da quldarlik munosabatlari o'zining eng cho'qqisiga ko'tarilgan, shu tufayli yirik ishlar yuzaga keldi, ko'plab qabilalar va

xalqlar qullikka mahkum etilgan, asosan asirlarning ko'plari bo'lgan qullarning ahvoli Gretsiya qullarinikidan og'irroq bo'lgan. Yana hunarmandchilik va savdoda yozilgan bo'lsa, Rimda qullar asosan qishloq xo'jaligida akspluatatsiya qilinardi. Ishlab chiqarish quldorlik usulidagi qarama-qarshiliklari shu yerda eng keskin tus oldi va oxir-oqibatda kalonatning paydo bo'lishiga olib keldi.

Quldorlik yemirilishi davrining vakili Katon Starshiy er.av. 234-149 yil yirik yer egasi bo'lgan „Dehqonchilik“ nomli asarida u qullikka asoslangan natural xo'jalikni himoya qiladi. Katon o'z talablarini o'zi ta'minlovchi yoki asosan iste'mol qiymati ishlab chiqaruvchi xo'jaliklarni tan olar edi. Natural xo'jalikni himoya qilardi. U faqat ortiqcha mahsulotlarni sotish kerak xo'jalikda ishlab chiqarish mumkin bo'limgan narsalarni sotib olish zarur degan g'o ya'ni qo'llaydi. U qul mehnati asosida xo'jalikni yuritishning yangi uslublarini ishlab chiqdi. Uning fikricha qullarni yoshligidan sotib olish kerak, shunda qullarni tarbiyalash, ishga o'rgatish oson bo'ladi, qullar ichida egasiga nisbatan ig'volarni yo'qotadi. Qullar qattiq intizom asosida ishlatalishi, arzimas gunoh uchun jazolanishi, ishga qarab boqilishi va kiyintirilishi ta'kid etiladi. Dehqonchilikda qul mehnati tobora kam samara berayotaganligini ko'rgan Katon yaylov xo'jaligini keyinchalik savdo va sudxo'rlikni qo'llab quvvatlaydi. Qiymatdan ortiq mahsulotni foyda deb bilgan va uni to'la ravishda ishlab chiqarish xarajatlariga qo'shgan, bu bilan xato fikrga yo'l qo'ygan. Yuqori foyda olish uchun yuqori baholar, pulni kelishini bamaylixotir kutish kerak degan edi. Dehqonlar qo'lidagi yerlar tortib olinib, yirik latifundiyalar vujudga kela boshladи, erkin Rim aholisi, dehqonlar va armiya soldatlari yersizlandi. Bu holat yirik yer egalari- patritsiylar va dehqon- plebiylar o'rtasidagi qarama-qarshilikni kuchaytirdi, oxir-oqibatda aka-uka Tibrey va Gay Grakxlarning agrar islohotiga sabab bo'ldi. Ular yersiz yoki kam yerli dehqonlarning yirik yer egalariga qarshi kurashini qo'llab quvvatladilar. Ammo bu ishni quldorlik tizimini saqlagan holda va yirik yer egalarini cheklash yo'li bilan hal etmoqchi bo'ldilar. Yer egalarining qo'lidagi yerning bir qismini kesib va davlat foididagi yerdan foydalanib, kam yerli dehqonlardan ozod dehqonlar tabaqasi barpo ertish kozda tutilgan, eng muhim bu toifa quldorlarining ishonchli tayanchi bo'lishi kerak edi.

Aka-uka Tibrey va Gay Grakxlarning agrar islohoti bo'yicha davlat yeridan foydalanuvchilarning har biri 500 yuger (125chek)- har bir o'g'il uchun 250 yuger, ammo bir yakka kishi uchun 1000 yugerdan ortiqcha yer olish ta'qiqlangan. Undan ortiq yerlar musodara qilingan va 30 yugerdan bo'linib kambag'al fuqarolarga berilgan, lekin bu yerni birovga sotish man qilingan. Bu qonunni amalga oshirishda yirik yer egalari qattiq qarshilik ko'rsatishdi. Tibrey Grakxni er. av. 132 yilda ataylab o'ldirdilar, Gay Grakx esa er.av. 123-122 yilda bu islohotni amalga oshirish uchun ishni davom ettirdi, bir qancha demokratik o'gartirishlarni amalga oshirdi. Rimda arzon non sotish oqibatida 80 ming fuqaro yer uchastkasi oldi. Islohot vaqtincha muvaffaqiyat keltirdi, er.av. 111 yilda davlar yerlarini sotishga yo'l berildi, ular xususiy mulkka aylandi.

Quldorlik tizimi inqirozga uchragan va bu tushkunlikka tushgan davrda Rimlik agronomlar Varron (er.av. 116-27 y) va Lyutsiy Kolumella (1 asr) quldorlik xo'jaligini ratsionallashtirish muammolarini ishlab chiqdilar.

Shu bilan birga olim va agronom Varron „Qishloq xo'jaligi to'g'risida“ degan kitobidan bu sohasining ahamiyatiga katta e'tibor berdi. Qishloqdan shaharga intilganlarni qoralaydi. U dehqonchilik bilan chorvachilik bab-barobar rivojlanishi kerak deydi, Varron chorvadorlar va dehqonlar o'rtasidagi ittifoqni yo'qlaydi. Buning asosiy sababi shuki, Italiyada don nisbatan arzon edi, chorvachilikning foydasi nisbatan yuqori bo'lgan. Shu bilan birga har bir xo'jalik o'zini-o'zi ta'minlashi kerak, u bozor munosabatlari kam e'tibor qilgan, qullar ekspluatatsiyasi tarafdori edi va ularni „gapiruvchi qurollar“ deb atagan. U qullarni siyosiy jihatda xavfli ekanini tushungan va imeneniyelarda bir millatga mansub qullarni uzoq saqlamaslik kerak deb tavsiya etgan, ular birlashib harakat qilishlari oson.

Kolumella o'zining qishloq xo'jaligiga oid yirik asarida qullar mehnati samarasini past ekanligini ta'kidlaydi (chunki birovga ishlaydida). Uning fikricha qullar yerda yaxshi ishlamaydilar, yer yuqori hosil berishi uchun qayg'urmaydilar. Kolumella erkin mayda ishlab chiqaruvchilarning samaradorligi yuqori bo'lishini isbotlab berdi. Yirik quldorlik latifundiyalariga nisbatan mayda dehqonchilikni afzal ko'rdi. Bu davrda yirik quldorlik latifundiyalarining inqirozi aniq bo'lib qolgan, rivojlanish ekstensiv yol bilan bordi. Ya'ni unum dorlik qo'shimcha yer hisobiga oshdi. Qullar imkoniyat borida ishlaslikka urindilar. Kolumella bunday yerlardan erkin kolonlarga bo'lib berish yaxshi samara beradi degan xulosaga keldi. Uningcha mayda ishlab chiqarishga o'tish perspektivliligi ta'kidlanadi.

Sitseron Mark Tulyi (e.a. 106-43Y.) taniqli davlat arbobi va mashhur siyosatchi bo'lган. U yashagan davrda davlat ancha markazlashgan bo'lib, savdo - sotiq ancha o'sdi, sudxo'rlik boyish manbaga aylandi. U qishloq xo'jaligini rivojlantirishni qo'llagan holda (chunki bu soha bozor uchun ham mahsulot yyetkazar edi), yirik savdo va sudxo'rlikni boyish manbai deb hisobladi. Demak, Sitseron boshqalarda farqli ravishda quldorlar bilan birga savdogar va sudxo'rlearning manfaatni ham himoya qildi.

Quldorlik tuzimining ichki qarama-qarishligi tobora o'sd', qullar qo'zg'oloni ro'y berdi. Tarixida Spartak boshchiligidagi (e.a. 73-71 yy) qullar qo'zgoloni katta ahamiyatga ega, u beayov bostirilgan bo'lsa ham, tuzim zaminiga jiddiy zarba bo'ldi.

Lutsiy Sergey Katalina e.a. 63-62 yy. Kambag'al aholi yordamida hokimiyatini egallamoqchi, qulchilikni yo'q qilmoqchi va boyimoqchi bo'ldi, ammo uning harakatlari ham zoyi ketdi.

Yangi eramiziing 1-II asrlarda Rim imperiyasida nisbatan barqarorlik davri bo'ldi, davri quldorlik ekspluatatsiyasining samarasizligi tobora ayon bo'lib qoldi, kolonat o'sdi. Aristotel

g'oyalarida qulchilik tabiiy zarurat deyilgan bo'lsa, endilikda bunga sharoit taqazosi tufayli kelingan, degan fikrlar yuzaga chiqa boshladi.

Lutsiy Anney Seneka (e.a. Z-mln.65 yy.) qulchilikning siyosiy xavfini tushundi va qullar bilan yumshoqroq munosabatda bo'lishni taklif etdi, ular ham tabiatan ozod odam ekanligini tan oldilar.

Shu davrda kolonatga, krepostnoylikka o'tish kuchaydi. Ana shunday bir paytda milodning I asrida (2-yarmida) yangi diniy mafkura - xristianlik vujudga keldi. Uning asosiy aqidalari Injilda keltirilgan. Bu muqaddas kitobda bir qancha iqtisodiy g'oyalar ham berilgan. Oddiy xo'jalik faoliyati (mehnat) zarur va ulug' ish deb qaraladi. Dastlab og'ir qullar haq-huquqini himoya qilgan bu din, bu ahvoldan qutulish yo'li yuqoridan, xudodan deb bilgan. O'sha davrda bu dinning boshqa dinlardan afzalligi shu bo'ldiki, xalqlar o'rtaсидagi etnik va sotsial-tafovutlar inkor etildi, din oldida hamma barobar deb e'lon qilindi. Keyinchalik bu din boshqa toifalar orasida ham tarqaldi. Dastlab xristianlik mulki umumiy bo'lib, ekspluatatsiya inkor etilgan, odatda sadaqa hisobiga kun ko'rilgan. Birinchi xristianlar ta'qib ostiga olingan, ammo 325 yili Nikey Soborida xristianlikka Rim imperiyasning davlat dini maqomi berildi, oqibatda quidorlikva bo'lajak feodal jamiyatining mafkurasiga aylandi.

Tayanch iboralar

Hamurapi qonunlari. Manu qonunlari. «Artxashastra» yodgorligi. Qadimgi Hindistoning «Manu» qonunlari. «Avesto» dagi iqtisodiy g'oyalar Syun Tszi, Daoizm g'oyayaari. Grek polisi iqtisodiy g'oyalari. «Ekanomiya» Platon, Aristotel iqtisodiy g'oyalari. Qadimgi Rimdag'i iqtisodiy konstitutsiyalar. Katton Varron Sitseron, Kolumellaning agronomik qarashlari Aka uka Grakxlarning agrar islohotlari.

Takrorlash uchun savollari:

1. Qadimgi Sharq davlatlari iqtisodiyot taraqqiyotini qanday muammolarini bilasiz?
2. Hamurapi qonunlarida qanday iqtisodiy g'oyalarni ko'rish mumkin ?
3. Hindistoidagi qanday g'oyalarni aytta olasiz?
4. Zardushtizm dinida qanday iqtisodiy masalalar qo'yilgan?
5. Antik Gretsiyadagi iqtisodiy g'oyalarni vujudga kelishining sinfiy, iqtisodiy sharoitlari nimalardan iborat?
6. "Siyosiy iqtisod" so'ziga qaysi olim ta'rif bergan?
7. Aristotelning qanday iqtisodiy qarashlarini bilasiz?
8. Qadimgi Rimdag'i qaysi olimlarshing iqtisodiy g'oyalarni bilasiz?
9. Sitseroning qaysi iqtisodiy qarashlarini aytish mumkin?
- 10 Aka- uka Gay va Tibrey yer islohotlarni bila olasizmi?

3-MAVZU: ARAB MAMLAKATLARDAGI IQTISODIY G'OVALAR.

Reja:

- 1. Arab mamlakatlarida dastlabki iqtisodiy g'oyalarni shakllantirishni sinfiy iqtisodiy shart-sharoitlari. Ibn Xaldunning iqtisodiy qarashlari**
- 2. Islomda va Hadislarda iqtisodiy masalalarining qo'yilishi.**
- 3. Burxoniddin Al-Marginoniying «Hidoya» asarida zakot masalalarining yoritilishi.**

1. Arab mamlakatlarida dastlabki iqtisodiy g'oyalarni shakllanishining sinfiy iqtisodiy shart-sharoitlari. Ibn Xaldunning iqtisodiy qarashlari.

Arab mamlakatlarida feodal munosabatlар III - VIII asrlarda shakllana bordi. Bu yerlarda pul, mehnat munosabatlari biroz yengillashdi. Davlat xususiy egalik va foydalanish uchun yer ajrata boshladi. Xususiy yer egaligining turli shakllari saqlangani holda davlat asosiy va unumdon yer egasi sifatida, zarur paytda xususiy yer egaliklarining yerning egasi sifatida, zarur paytda xususiy xo'jaliklarning barcha ishlariga bemalol aralashish, yer solig'ini yig'ish huquqini yo'qotgan emas. Shu sababli Sharqda davlat feodalizmning turli shakllari saqlandi va iqtisodiy qarashlarda ham o'z aksini topdi. Iqlim va turar joy tufayli, bu yerlarda dehqochilik asosan sun'iy sug'orish asosida olib borilgan. Sug'orish inshootlari qurish, ta'mirlash, jamoa ixtiyorida bo'lgan qishloq jamoasi saqlangan sharqda yerga xususiy mulkchilik bo'lganmi, degan muammo hanuzgacha xat etilmagan. Bizning fikrimizcha ko'proq yerdan foydalanishning huquqi bo'lgan. Bu mintaqada sug'orishsiz ekin ekish bo'lмаган, feodal munosabatlari hukm surgan bir paytda yerdan foydalanishning ijara, xususiy mulk shakllari hukmon bo'lgan.

Sharq iqtisodiy tafakkurining iqtisodiy rivojlanishida Arab mutafakkiri Ibn Xoldun Abdurahmon Abu Zayd (1332 -1405) ning hissasi benihoya katta «kitob - ul -ibar» (ibratli misollar kitobi yoki «Ibratnama») kitoblar topilgan. Xoldun dastlab birgalikda ishlab chiqarish faoliyatiga katta e'tibor jamiyat moddiy ishlab chiqaruvchi jamoasidan iborat deydi.

U odamning boyishida mehnatning o'rnnini ochib berishga harakat qiladi. U hunarmandchilik va fan sa'atni rivojlanishi bevosita mehnat unumdorligining o'sish bilan bog'liq deydi. Oddiy va murakkab mehnatni bir biridan ajratib beradi. Mehnat bo'lmasa, boylik ham bo'lmas edi, degan muhim xulosa chiqaradi. Olim fikrlarida zaruriy va qo'shimcha mehnat tushunchalari farqlanadi. U tovar oldi sotdi bitimi asosida teng ayrboshlash qoidasiga amal qilinishi kerak, bunda mehnatning

teng yarmi ayrboshlanadi, agar bu hunarmandchilik mahsuli bo'lsa unga sarflangan mehnatga teng, daromad qiymati esa sarflangan mehnat ushbu buyumning boshqa buyumlar ichida turgan o'rni va uning odamlarga bo'lgan zarurligi bilan belgilanadi. Bunda tovarlarni tenglashtirish, mehnatli tenglashtirish shaklida yuzaga chiqadi ya'ni mehnatning roli va tovarning foydaliligi ham hisobga olingan. Tovar qiymatiga xom ashyo mehnat vositalari, ishlab chiqaruvchilarining mehnatining qiymati kiradi, deydi. Tovar-pul munosabatlar tashkil etilgan, narx bozorga olib chiqidadigan tovarlar yig'indisiga bo'lishligi, soliq tartibga solish kerakligi aytilgan. Uning fikricha soliqni pasaytirish iqtisodiyotni rivojlantiradi.

Ibn Xoldun o'zining «Ibratnoma» kitobida davlatning rivojlanishi va iqirozga yuz tutish jarayoni bet bosqichdan iboratligini ko'rsatadi. Bu bosqichlar quyidagilardan iborat:

Birinchi bosqich-g'alaba bosqichi bo'lib, bu bosqichda dushmanlar qarshiligi va to'siqlarni yengib o'tib, davlatni o'z qo'llariga oladilar. Mazkur bosqichda hukmdor shon-shuxrat yo'lida soliq yig'ish mamlakatni himoya etish va qo'riqlash, shu mamlakat xalqlari bilan aloqalarni mustahkamlab, oldingi hukmdor qarindosh Urug'larini yo'qotishiga harakat qiladi va bu bilan shu mamlakatdagi o'ziga, yaqin odamlar bilan aloqani mustahkamlaydi.

Ikkinichi bosqich bu bosqichda hukmdor o'z odamlari ustida oliy hukmron-lik qilib ularsiz bir o'zi hokimyatini yo'lida tutib turadi. O'z odamlarini hukmdor bilan baham ko'rish va birgalikda foydalanish yo'lidiagi intilishlarini o'sib yo'qqa chiqaradi. Mana shu bosqichda hukmdor qo'shin egallahsga, o'ziga qarashi kishilar va larafdar kishilar sonini ko'paytirishga intiladi. U o'z kabiladoshlarining barcha davolarshi puchga chiqarish uchun shunday qiliadi. Chunki ular naslnasab jihatidan podshohdan farq qilmay hokimiyat ishlarida teng ishtirok etishga harakat qiladilar. Hukmdor esa, hokimiyat manbalaridan narida tutadi, hokimlik yo'lini tutib qo'yadi va ular hokimiyatga erisha olmaydi, natijada shu tariqa podshoh o'z odamlarini hokimiyatga o'rnashtirib shu qabila odamlarini hokimiyatga erishish imkoniyatlaridan mahrum qiladi.

Uchinchi bosqich – orom va tinchlik bosqichidir. Unda kishilar podshohlikdan baxramand bo'ladirarki, mol-mulk orttirish shuhrat qozonishlarga intiladilar. Sulola esa, soliq yig'ish, daromad va xarajatlarni tartibga solish, o'z mablag'larini ishni ko'znni bilib me'yorida inshootlar, shaharlar, osmono'par exromlar, o'zga mamlakat elchilarini qabul qilish, o'z fuqarolariga homiylik qilish uchun harakat qiladi. Shu bilan birga u o'z tarafdoqlarini va ayonlarini mukofotlab izzat-ikrom ko'rsatadi. O'z qo'shinlari talabini qoidiradi va hokazo.

To'rtinchi bosqich – hukmdorning farovonlik, osoyishtalik va o'tmishdoshlari erishgan narsalar bilan do'st va dushman hukmdorlar bilan tinch totuv yashaydi.

Beshinchi bosqich – davlat mulkni o'z manfaatlari yo'lida sarflash va isrof etish bosqichidir. Va shunday davr kelganda rohat va lazzatlarga yaqinlariga saxovat ko'rsatish va ziyofatlar tantanalarga ko'p mablag' xarj tufayli o'z ajdodlari yiqqan, to'plagan jami ne'matlardan mahrum

bo'ladi Hukmdor past tabaqalaridan yomon do'stlar orttirib oladi, boylikni talon-taroj qilganligi tufayli sipohni ta'minlash uchun xazina xarajatlari kamayib ketadi va qo'shin tarqaladi. O'z mamlakati ichidan norozilar xoinlar paydo bo'la boshlaydi va boshqa hukmdorning bu mamlakatni bosib olishiga sharoit hozirlanadi

2. Islomda va Hadislarda iqtisodiy masalalarining qo'yilishi.

Arabistoida vujudga kelgan va o'zbek xalqining faxrlansa arzigudek juda qadimiy ma'naviy va iqtisodiy merosga aylayagan Qur'oni Karimda (arabcha qiroat, ya'ni o'qish) iqtisodiy g'oyalar aks etgan. (VII - VIII asrlar) asrning oxiri VII asr boshlarida Arabistoida feudal munosabatlarining shakllanish tufayli yagona davlat barpo etishga da'vat kuchaydi. Bu harakat so'nggi din Islomda o'z aksini topdi. Islom ta'limoti payg'ambarimiz Muhammad Alayhissalomga Ollox tomonidan hozir qilingan Qur'oni Karimda mujassamlashgan. Yagona to'g'ri yo'l bo'lgan Islomdag'i yo'l-yo'riqlar hayotning barcha sohalarini qamrab olgan bo'lib, shu jumladan iqtisodiyotga oid masalalarga ham keng o'rinn berilgan. Qur'oni Karimning Bakara, Naxl, Qasos, Ankabut, Sajda, Yosin, Saffot, Sod va hokazo sur-ralardagi qator oyatlarda iqtisodiyotga oid g'oyalar o'z aksini topgan. U yerda iqtisodiy adolat, omonatga xiyonatt qilmaslik, xaloyiq bilan ochko'zlik, haromxo'rlik, adolatsizlikka nafsga ruju qo'yishdek illatlardan muhofaza etadi. Iymonli odam dangasalik, xushyoqmaslik, boqimondalik qilmasdan g'ayrat bilan kasb, ilm egallab tinimsiz mehnat bilan mashg'ul bo'lmog'i darkorligi ta'kidlanadi. «Niso» surasining 32 - oyatida «Ollo biron ne'mat bilan biringizni biringizdan ortiq qilib qo'ygan bo'lsa, sizlar uni (hasad va adovat bilan) orzu qilmang. Albatta Ollo hamma narsani bilguvchi zotdir, deyiladi. Bu oyatu - karimadan kelib chiqadigan ma'no shuki, har kim o'z holatiga o'z imkoniyatiga yarasha kasb bilan shug'ullanadi va har kim o'z kasbiga yarasha rizq topadi. Qur'oni Karimda halol mehnat, dehqon hunarmandlar mehnati ulug'lanadi, barcha boylik mehnat asosida yaratilishi uqtiriladi.

XV- asrda yashab ijod etgan mashhur arab olimn Jaloliddin Suyutiyning "Joli'u-sag'ir» Hadislar to'plamida Muhammad Alayhissalomning dehqonchilik bilan shug'ullanish to'g'risidagi shunday hikmatli so'zlari keltiriladi; "Ekin ekingiz, chunki ekin ekmoq barakali kasbdir. Ekinlaringizni barakasini saqlamoq uchun qo'riqchilar qo'yingiz» deyiladi. Turli kasblar ichida eng xayrlisi ko'pchilik bo'lib, u butun jonzodni boqadi, to'ydiradi, ekin qishloq turmushida o'zining ta'sirini yuritgani kabi shahar turmushiga odamlar hayoti rivojiga ta'sir qiladi.

Shu bilan birga ushbu Hadisda: «yenglar, ichinglar, isrof qilmanglar», deyiladi. Bu bilan iqtisodiyotdagi tejamkorlik islamda mulk va mulkiy munosa-batlarga katta ahamiyat beriladi. Mulkka egalik qilish ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish jamiyat muammolarini hal etishning muhim omili hisoblanadi.

Qur'oni Karimning bir qancha suralarida birovlarning mulkiga xiyonat qilish qoralanadi. Ayniqsa, bolalar va zaif nochor odamlar, yyetim -yesirlar mulkiga rizqiga xuruj qilish katta gunoh

hisoblanadi. «Men sizga ikki zaifning haqini harom qilaman, ular yetim bilan xotinlardir» Hadisi sharif. Qur'on va Hadis tijorat masalalarida ko'proq o'rinni beriladi. Payg'ambarimiz Alayhissalom daromadning o'ndan to'qqizini tijoratdandir deydi. Yana u halol savdoni targ'ib qiladi. Sudxo'plik qoralanadi. Islomda ijtimoiy himoya asosiy o'rinda turadi Shulardan muslimonchilikning besh farzlaridan biri fiti ro'za berish ta'kidlanadi. Bu bilan aholining kam ta'mnilangan qatlamini himoyalash ma'lum miqdorda ta'minlashi ko'zda tutiladi.

Musulmon huquqshunosligida tovarning iste'mol qiymati tan olingan, tovarning qiymati bilan so'raladigan baho (bozor narxi) farqlangan. Yirik din peshvosi Bahouddin Naqshbandning "Dil ba yoru, dastba kor", ya'ni " dil (Allah) bilan, qo'l ish bilan.(band bolsin) degan tezis o'sha davr uchun muhim edi. Chunki ilgari xudo ga faqat e'tiqod qilishning o'zi kifoya deb bilishgan.

3. Burxoniddin Al-Marginoniyninig «Xidoya» asarida zakot masalalarining yoritilishi.

Burxoniddin al-Marginoniyning «Hidoya» asari musulmon qonunchiligi-ning barcha qirralarini o'z ichiga oladi va nihoyatda keng tadqiqot manbai bo'lib hisoblanadi. Asarda, ayniqsa, zakot masalasiga katta e'tibor berilgan, unga maxsus bir bob ajratilagan. Chorva mollari, shaxsiy mulk, kon, yer va boshqa mulk shakllaridan olinadigan to'lovlar yuzasidan aytilgan fikrlar bag'oyat muhimdir.

Asarning yozilish uslubi shundayki, unda hammaga yaxshi ma'lum masalalar bilan birga, u yoki bu masalaning nozik tomonlari ikir-chikirigacha izohlab beriladi. Kimlar va qancha zakot to'lashi kerakligi haqida qiziq ma'lumotlar keltiriladi. Odadta daromadning qirqdan bir xossasi (2,5 foizi) hisobidan zakot olinishi kerak. Chorvachilikka 40 echkidan bittasi zakot hisobida beriladi, mol soni kam bo'lsa, olinmaydi. Zakot to'lashda bir yoshdab kichik qo'zilar hisobga kiritilmaydi.

Otlarda esa boshqacha hisob - kitob qilinadi, ya'ni har otdan bir dinor yoki ot bahosining 9 foizi miqdori zakot to'lanishi kerak. Ammo eshak, xachir va boshka hayvonlar (ho'kiz, tuya) dan to'lov olinmaydi. Agar ular oldi-sotdi muomalasida bo'lsa, ahvol o'zg'aradi va zakot beriladi. Bir yoshga to'limgan echki, buzoq taloqlar ham umumiyligida hisobga kiritilmaydi, ammo 25 ta tuyadan bittasi, 66 tadan boshlab ikkita, 145 tadan ortig'idan uchta tuya zakot hisobiga berilishi .

Shu yerda muhim bir fikr borki. agar mol egasi shu molning (natura) o'rniga uning bahosiga teng zakotni pul shaklida to'lashi ham mumkin, deyiladi .

Yana muhim bir ko'rsatma diqqatga sazovorki, zakot yig'uvchi eng yaxshi (sara) molni emas, o'rtacha bahodagi molni olishi talab etiladi. Undan tashqari, zakotni to'lash mumkinligi ko'rsatiladi.

Oldindan olinadigan zakot miqdori o'ziga xosdir. 20 misqolgacha zakot olinmaydi, 20 misqoldan yarim misqol (2,5 fot) zakot to'lanadi. 20 misqoldan ortiq har 4 misqoldan 2 qarash, (ya'ni 1,12 untsiya) zakot berish kerak.

Shaxsiy, xususiy mulk hisob-kitobi kumush yoki ekvivalentiga qarab belgilanadi. Hatto kumush va oltin ham umumiyl baho asosida yagona qiymatga keltirilishi kerak.

Topilgan kon xazina, uchun beshdan bir (20 foiz) zakot olinishi lozim. Ma-salan, biror yerdan yoki ekin ekilayotgan joydan xazina topilsa, shu usuldan foy-dalaniladi. Qimmatbaho toshlardan zakot to'lanmaydi, chunki toshlar zakotdan mustasnodir.

Burxoniddin al-Marginoniy o'z asarida zakotini taqsimlash qonun-qoidalarini ham bayon etadi. Aholining ayrim toifa vakillari: faqir, miskin, zakot yig'uvchilar, qarzdorlar yig'ilgan zakotdan foydalanish imkoniyatlari haqida ham qimmatli fikrlar bildirgan.

Uylaymizki, bobokalonimizning bu asari nihoyatda boy va qimmatli manba sifatida oliv o'quv yurtlarida o'qitiladi. Chunki u yoshlarimiz qalbida insof va diyonat, adolat va haqiqat tuyg'ularini uygotishda beباو xazina bo'lib xizmat qi-lishi shubhasizdir.

Tayanch iboralar :

Arab mamlakatlardagi iqtisodiy g'oyalarni sinfiy iqtisodiy shart-sharoitlari. Ibn Xalduninig iqtisodiy qarashlari «Ibratnama» asari. Taqsimot, hunarmandchilik Qur'oni Karim: Mulk ijtimoiy himoya tejamkorlik savdo, sudxo'rlik, hunarmandchilik, Hadislari «Dilba yoru - dastba kor» iborasi. Zakot. Fit ro'za

Takrorlash uchun savollar.

1. O'rta asr Arab mamlakatlarda iqtisodiy g'oyalar shakllanishlarining shart-sharoitlari nimalardan iborat ?
2. Ibn Xaldunining "Ibratnama" asarida qanday iqtisodiy g'oyalar mavjud qanday izohlanadi?
3. Ibn Xalduning davlatni boshqarishini 5 bosqichini aytib bering?
4. Ibn Xalduning ijtimoiy kuch to'g'risidagi qarashlarni qanday izohlaysiz?
5. Islomda qanday iqtisodiy g'oyalar yoritiladi?
6. Qur'oni Karimning qaysi surasida mulkchilik masalariga bag'ishlangan?
7. «Bakara» surasida qanday iqtisodiy kategoriylar talqin qilinadi?
8. Qur'on va Hadislarda hunarmandchilik mehnat masalalariga munosobati
9. Bahovuddin Naqshbandning «Dilba yoru -dastba kor» maqomini qanday sharqlab bera olasiz?

4-MAVZU: O'RTA ASRLARDA MARKAZIY OSIYO MUTAFFAK-KIRLARINING IQTISODIY QARASHLARI.

Reja:

- 1. Sharq xususan O'rta Osiyo rezonansi davridagi iqtisodiy g'oyalar. Ibn Sino. Abu Rayxon Beruniy, Yusuf Xos Xojib asaslarida iqtisodiy masalariga yondashuv.**
- 2. XIV-XV asrlardagi donishmandlarning iqtisodiy qarashlari. Amir Temorning iqtisodiy siyosati.**
- 3. Ulug'bek, Boburning iqtisodiy siyosati**
- 4. Navoiy asarlarida iqtisodiy masalalarining qo'yilishi va hayotga oid ko'rsat-malari .**

1. Sharq xususan O'rta Osiyo rezonans davridagi iqtisodiy g'oyalar. Ibn Sino. Abu Rayxon Beruniy, Yusuf Xos Xojib asaslarida iqtisodiy masalalariga yondashuv .

X-XI-asrlarda O'rta Osiyo ilg'or ijtimoiy tafakkurning sharqdagi yirik markazlardan biriga aylandi. Bu davrda feodal davlat markazlashgan va eng ri-vojlangan pallaga kirdi. II asr da vujudga kelgan “buyuk ipak yo'li” Tinch okean atrofidagi mamlakatlarni Vizantiya va g'arbiy YYevropa bilan chambarchas bog'lar edi. O'rta Osiyo YYevropani Osiyo bilan bog'lovchi yirik moddiy, madaniy va savdo markaziga aylandi. Bu jarayonlar bir-biridan minglab chaqirim uzoqliqdagi davlatlar, xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni shakllantirdi. YYevropada qancha va qaysi tovarlarni olib borish, u yerdan nima olib qaytish, karvon yo'lidagi davlatlar, xalqlar talab ehtiyojini yaxshi bilish talab etiltan. Oqibatda turli bilim sohalari, matematika (al-jabr) geometriya (xandas), astronomiya (falakiyot) va boshqa fanlar rivojlandi. Bu davrda butun dunyoga tanilgan Al-Farg'oyaiy, Al-Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn-Sino, Yusuf Xos Xojib va boshqa ko'plab mutaffakirlar yashab, ijod qilishdi. Shulardan,

Markaziy Osiyo qomusiy olimi mutaffakiri Abu Ali Ibn Sino (980-1037) ning tibbiyat soxasida buyuk olim sifatida butun dunyoga tanildi.

Ammo uni boy ilmiy merosi ilm - fanning deyarli hamma sohalarini qamrab oladi. Uning 280 asarida 186 tasi falsafa, mantiq, ruhshunoslik, odob va ijtimoiy – siyosiy fanlariga bag`ishlangan. Ammo ibn Sino iqtisodiy masalalariga ham qiziqqan va uning ba`zi asarlarida iqtisodiy sohaga ham o'rinn berilgan. Uning iqtisodiy qarashlari “ Uy xo'jaligi ”, “Ruhshunoslik” asarlar bilan bir qatorda falsafiy asarlarida aks etirilgan.

Ibn Sinoning odamning ehtiyojlari mehnatning ahamiyati va uning moddiy ishlab chiqarishda hal qiluvchi roli haqidagi fanlari iqtisodchilariga katta qiziqish uyg`otdi.

Ibn Sino fikricha hayvon tabiat ne`matlariga qanoat qiladi, u ovqat, kiyim – kechak va uy joyga ehtiyoj sezadi.

Hayvon tabiat ne`matlarini o`zlashtirib oladi, odam esa o`z mehnati bilan o`ziga ovqat, kiyim – kechak, uy joy yaratadi.

SHu maqsadda u dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug`ullanishi kerak. Hayvonlar garchi poda bo`lib yashasalar ham yolg`iz yashay oladilar, odamlar esa yolg`izlikda yashash vositalarini topa olmaydilar; SHuning uchun muloqot va o`zaro yordamchi muhtoj bo`ladilar.

Bu bilan Ibn Sino ijtimoiy ishlab chiqarish tushunchasini tushuntirib bermoqchi bo`ladi. Buni yana bir karra ta`minlab u o`zining “ishorat va tabihot” asarida shunday ta`kidlaydi: “Inson o`z shaxsiy talablari jihatidan boshqalardan ajralgan holda yashay olmaydilar, chunki u insoniyatning boshqa vakillari bilan munosabbatda bo`libgina o`larni kondira olishi mumkin”.

Buning uchun barcha jamoa a`zolarni birlashtirib turuvchi huquqiy qonunlar zarur bo`ladi. Jamoaning barcha a`zolari foydali mehnat bilan shug`ullanmoqlari zarur. U inson jamiyatda tutgan o`rniga va bajariladigan vazifalariga qarab ham ahamiyat berib ularni uchta guruhga ajratadi.

A) davlat idoralarida xizmat qiluvchi va jamiyatni boshqarish ishlari bilan shug`ulanuvchilar;

B) bevosita xom-ashyo, zarur mahsulot ishlab chiqarish bilan mashg`ul bo`lganlar ;

V) davlat quriqlash uni turli tashqi hujumlaridan saqlashni ta`minlovchi xarajatlar.

Jamiyatning bu guruhlari o`zaro bir-birlarisiz yashay olmaydilar, va o`zaro muloqotda bo`ladir, bir-birlarisiz yashay olmaydilar.

Ibn Sino o`zining “risolatu tadbiri manzil” asarida shunday yozadi:

“Demak, odamlarning mulkiy tengsizligi, vazifasining bir xil emasligi, uzro farklari, inson ijtimoiy faoliyatining asosiy sababidir.”

Ushbu fikri o`rta asr feodal tuzilishini xususiyati, shu bilan barcha ijtimoiy rivojlanishining muhim tomonini o`zida ifodalaydi.

Ibn Sino feodal jamiyatning asosiy muamolarini tadqiq qilib jamiyatning amal qilishning asosi hunarmandchilik deb hisobladi. “Odamning o`z quvvatini saqlashga va oziq – ovqatga bo`lgan ehtiyoji” deb yozadi Ibn Sino hammani hunar o`rganishga undaydi. Ibn Sinoning yuqoridagi fikrlari hozirgi davr bozor munosabatlariga o`tish davridagi iqtisodiy- ijtimoiy muammolarini hal qilishga juda ham qo`l keladi. Bu muammolarni hal qilishning bundan bir yo`li bu hunar o`rganishdan boshlashdir. Ibn Sino oila, shahar hatto davlat miqyosidagi daromadlar va xarajatlar muttanosibligi haqida fikr yuritadi. Uning fikricha davlat tabiiy ofat va urush bo`lish ehtimolini hisobga olib, unga mablag` ajratgan holda daromadlar va xarajatlar balansiga erishish zarurdir. Ibn Sino ideal davlat to`g`risida fikr yuritib uni quyidagicha ta`riflab beradi.

1) Hamma o`z foydasini ko`zlab mehnat qilishi kerak;

2) Bu davlatda barcha moddiy boyliklar shunday barobar taqsimlansinki unda juda katta boylar va modiy kambag`allar bo`lmashin;

3) Barcha kishilar halol mehnat bilan shug`ullanish va halol savdo qilish sababli urushadigan odamlar bulmaydi va urushlar tugatiladi, davlatlar o`rtasida siyosiy bahslar tinch yo`l bilan echiladi;

4) Idial davlatda odamlarda hamma narsa muhayyo bo`ladi va shuning uchun ular bir-birlariga qarama-qarshi bo`lmaydilar, quvnoq ashula va musiqani yaxshi ko`radilar, uzoq vaqt qaramaydilar.

Bunday “idial jamiyatni” Platon, Aristotel va Farobi asarlarida ham uchratish mumkin.

Yusuf Xos Xojib Bolasug`uniy iqtisodiy qarashlarini «Qutadg`u bilig» (Saodat keltiruvchi bilim) asarida bayon qilgan. Bu asar 1069-1170 yillarda yozilgan. Yusuf Xos Xojib o'z asarini uyg`ur xonlaridan Bug'ra Qoraxonga bag`ishlagan. Bug'ra Qoraxon Qashqar xoni O'sha davrdagi uyg`ur ma'muriyat markazlaridan Qashqar xoni edi. Qashqar Sharq bilan G'arb orasidagi savdo yo'li ustida bo'lganidan bu hududda savdo tijorat ishlari rivojlandi. Savdogarlar o'zlarini o'nglab, feodal oqimlari ham o'z taxtlarini ancha mustahkamlab oldilar. Mamlakatda savdo ishlari yurishganligi tufayli, qo'l hunari taraqqiy etdi, hunarmaldchilik rivojlandi.

Olimlar, shoirlar, hunarmandlar, dehqonlar, yirik yer egalari; katta qo'shin, harbiy boshliqlar elchilar kabi turli ijtimoiy guruhlar vujudga keldi.

Jamiyatining ijtimoiy tarkibi murakkablashgan sharoitda mamlakatning shohidan xalqqa, xalqining esa shohga bo'lgan talabi o'zgardi. Yusuf Xos Xojibning "Qutadg`u-bilig" asari ana shu murakkab vaziyatda xalqning fuqarolik burchini, shohning tadbir va siyosatini boshlab berishga bag`ishlangan uning fikricha, xalqning shohdan dan 3 ta talabi bor:

El uchun ishonchli, mustahkam va to'g'ri qonunlar chiqar, xalqqa xususiy mulk huquqini ta'min qilarlik qonunlar bor. Buning uchun pulning kumushini yaxshi kil, pulda oltin va kumushning sofligini oshir va buni kuzatib tur.

Yusuf Xos Xojibning tarificha; savdogarlikning ahamiyati va vazifalari quyidagilardan iborat.

1 .Savdogarlarning qilmishlari olib berish mamlakatda oldi sotdi, ya'ni Kun chiqardan kun botarga borib, sen uchun nima lozim bo'lsa, shuni olib keladi deb savdogarlarni ulug'laydi. M.Yusuf Xos Xojib dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar, savdogarlar mehnatini ulug'laydi. Yusuf Xos Xojib ezgulik jamiyatni bo'lishini orzu qiladi va undagi azolarni 15 tabaqaga bo'ladi:

1. shox va uning yordamchilari
2. Devon xodimlari
3. Raiyat (fuqaro)
- 4.Din peshvolari

5. Ziyolilar
6. Tabiblar
- 7.Duogo'lar (yaxshi niyatlilar)
8. Tush tabirchilar (xavfsizlik masalasi bilan shug'ullanuvchi)
9. Yo'lduzchilar (olam axborotini berib turuvchilar)
- 10 .Ijodkorlar (shoirlar)
- 11.Dehqonlar
- 12.Savdogarlar
- 13.Chorvadorlar
- 14.Hunarmandlar
- 15 .Kambag'allar

Albatta, bunday tabaqalanish Yusuf Xos Xojib zamoniga xos. Lekin undagi zamiatning barcha bo'g'inlarini qamrab olishlik tamoyili diqqatga sazovordir. Bu o'sha davr uchun tabiiy holdir. Bu g'oya taqdim qilinayotganida dunyoning ko'p xalqlari hali uxbab yotardi.

Bugina emas, Yusuf Xos Xojib jamiyatda faoliyat ko'rsatish tabiy holdir. Beruniy ishlab-chiqarishda har-xil mehnat turlarining rolini tadqiq etgan.Oltin va kumushning umumiyligini ekvivalent sifatida shakllarini, qonuniyatlarini ilmiy asoslagan. Beruniy mehnat taqsimotiga, ayniqsa e'tibor berib, u dehqochilik, chorvachilik va hunarmandchilikning rivojlaitirish, iqtisodiy rivojlantirish yuk-saltirishga turtki bo'lishni uqtirib o'tadi.

Nizomulmulk (1018-1092) "Siyosatnama" asarida hukmdorlar, amirlar, amaldorlar va qozilarinig mansabini iste'mol qilishlari, soliqlaring og'irligi, davlat mablag'larini saqlash va sarflashda hisob-kitob zarurligini qayd etgan. Saljuqiylar davlat arbobi sifatida iqto'ni tanqid qilingan.

Iqto'-o'rta asrlarda O'rta Sharq, shu jumladan ayrim shaxslarga katta xiz-matlari evaziga in'om qilingan yer

2. XVI-XVII asrlardagi donishimandlarning iqtisodiy qarashlari. Amir Temurning iqtisodiy siyosati

Amir Temur (1336-1405) davlat va iqtisodiyotning boshqarishda o'ziga xos maktab yaratadi. Sohibqiron davrida devoni buzrug (bosh vazir) dan tashqari har bir viloyatda "devon" deyiluvchi boshqarma bo'limgan. Davlatning butkul ishlari-ni yig'ish, tartib saqlashni, ijtimoiy binolar, bozorlar, yo'llar, suv inshootlari tarmoqlarini nazorat qilardi. Xalqning xulq-atvori kuzatib turilardi, uning xodimlari vaqtin bilan so'roq, tekshirish, taftish va tergov ishlarini olib borishardi. Ayniqsa tosh-tarozi to'g'riliqi, odil baho tekshirilgan. Qallob tovlamachilar jazolanganlar. Agar

g'oyib bo'lganlar va vafot etganlarning molk mulklari bo'lsa, o'z merosxo'rlariga topshirgan. To'rtinchi vazir sultanat ishlarini yurituvchi bo'lib, sultanatdagi jamiki kirim chiqimlarni nazorat qilgan harajat, hatto otxona va saroydagi boshqa jonzodlarga qilingan xarajatlardan bo'lib bergan. Vazirlar Devonbegiga buysungan.

Sohibqiron davrida yerga, egalikning 5 ta asosiy ko'rinishi bor edi:

- 1.Suyurg'ol yerlar. Katta hajmdagi bu yerlar davlat tomonidan ajratib berilib, bir avloddan ikkinichisiga o'tgan. Bu yer egasi soliqdan ozod etilgan, dehqonlarni ishlatib, yer solig'i xiroj olgan.
- 2.Tarxon yerlar. Bu yerlar xususiy mulk bo'lib, ular odamdarga biron bir xizmati uchun berilgan.
- 3.Ushr erlar. Sayid va xo'jalarga mansub yerlardir. Bundan olingan hosilning o'ndan biri davlatga berilgan.
- 4.Vaqf yerlar masjid, madrasa, xonaqoh, qabriston va shu singari joylarga doir yerlardir. Vaqfda yer, suv, bozor, qo'l, pullar va boshqalar molmulki bilan inom etilardi. Masalan: Amir Temurning Axmad Yassaviy uchun qurdirgan vaqfnomasi katta ziyolilar, din peshvolarining qabrlari, maqbaralari uchun vaqfdan mablag' ajratilgan.
- 5.Askarlarga, askarlarning rahbariga beriladigap yerlar.

A.Temurning davlat va iqtisodiyoti sohasidagi asosiy fikrlari "Temur tuzuk- lari"da bayon etilgan. Tuzuklar Amir Temurning 1342-1405 yillar oralig'idagi faoliyatini aks ettiradi va 2 qismdan iborat. Birinchi qism asosan yagona davlat barpo etish, uni mustahkamlash, kishi yurt va mamlakatlarni zabt etish masalalari bayon etilgan bo'lsa, - ikkiichi qismda sohibqiron nomidan aytilgan o'ziga xos vaziyat, pand nasihat, turli sohalardagi, shu jumladan ijtimoiy iqtisodiyotga oid fikr mulohazalar keltirilgan. Asarda o'sha davrdagi davlatning 12 ijtimoiy toifadan iborat bo'lganligi qayd etilgan:

- 1.Saidlar, ulamo, matoyix, fozil kishilar (din ahllari)
- 2.Ishbilarmon donishmand odamlar
- 3.Xudojo'y, tarkidunyo qilgan kishilar
- 4.Nuyonlar, mingboshilar
5. Sipoh va raiyat
6. Vazirlar, sarkotiblar
7. hokimlar, tabiblar, munajjimlar muhandislar (injenerlar)
8. Tafsif va Hadis olimlari.
9. Ahli hunar va san'atchilar
10. Maxsus ishonchli kishilar
11. Savdogar va shayxlar

A. Temur soliq solish, uning miqdori va undirish ishini tartibga soldi, soliq va o'lpon yig'uvchilarning faoliyati ustidan nazorat o'rnatldi. U o'zining mashhur «Temur tuzuklarida» bu borada quyidagilarni keltirgan: «Amr qildimki, raiyatdan xiroj yig'ishda saqlanmoq zarur. Chunki raiyatni xonavayron qilish xazinaning tariblashuviga olib keladi. Xazinaning tartiblashib qolishi esa, tarqalib ketishiga olib keladi. (A Temur. Temur tuzuklari).

A. Temur zarur paytlarda muqobil pul islohotlarni ham amalga oshirib turgan pul islohotlaqri muomalada bo'lib, turgan bir paytda suyak pullar ham joriy etilgan va o'z davrida bu suyak pullarni muomalaga kiritish o'zini oqlagan va uni tarixiy zarurat tufayli amalga oshirilgan pul islohoti deyish mumkin. Masalan, Amur Temur Eronga yurish boshlagan kezlarida Isfaxon qamali ko'pga cho'zilib ketib, qo'shini ozuqa bilan ta'milashga mablag'i yetmay qoladi. Nihoyat Amur Temur Samarqandga chopar yuborib, Saroy Mulkxonimga maktub jo'natadi. Maktub qisqa bo'lib «Qo'shinni zaxirasi tugadi, xazinadan zar yuboring deyilgan edi. Saroy Mulkxonim ko'p o'ylamay, mazkur xatning orqa tomoniga Ulug' Amir, zaringiz tugagan bo'lsa , siyosatingiz ham tugadimi?» deb yozadi va choparga tez qaytib borishni buyuradi. Amur Temur xatni olgach, Saroy Mulkxonimning kinoyali xatini o'qiydi-yu gapga tushunib yetib, shu zahotiyoy amri farmon beradi: «Lashkargohda so'nib yrtilgan qo'y, qora mol, ot va tuyu suyaklari borki, jamisi yig'dirilib, turli hajmlarda qirqilsin, katta hajmdagi katta qiymat, kichigini kichik qiymat belgilab, qizdirilgan po'lat muhr urib, tamg'a bosilsin va muvaqiat pul o'rnida muomalaga kiritilsin». Qo'shni shahar va qishloqlarda ushbu suyak pullarga qo'shin uchun oziq-ovqat sotib olinsin.

Shunday qilib, suyak pullarga qo'shin uchun zarur bo'lgan qurol-yaroq, oziq-ovqat va boshqa zarur narsalar sotib olindi. Natijada bu jangda Amur Temur buyuk tarixiy g'alabaga erishdi. U adolatli shox ekanligini isbotlab suyak pullarga urushdan keyin yana qiymat belgilab zar bilan almashtiradi. Demak, Amur Temur juda qisqa va noqulay sharoitda kichikkna, muqobil pul islohoti o'tkazish bilan katta davlat siyosati darajasidagi iqtisodiy va siyosiy muammoni juda mohirlilik bilan ulkan arbob sifatida diplomatik yo'l bilan hal etadi. Xuddi ana shundan pul islohotlaridagi cheklash va muqobil pul islohoti olib borish O'zbekistonda kupon pullar muomalasiga kiritilgan chog'da ro'y beradi.

3.Ulug'bek, Boburning iqtisodiy siyosati

A.Temur vafotidan keyin Ulug'bek va Shoxrux (1394-1449) podsholigi davrida iqtisodiyot rivojlandi. Ayniqsa qo'shni mamlakatlar bilan savdo sotiq rivojlandi. 1428 yilda Ulug'bek tomonidan iqtisodiy islohot o'tkazildi. Jamiyatda pulning ahamiyatini yaxshi tushingan holda uning qadr-qiyomatini oshirish uchun harakat qilgan. O'sha davrda muomaladagi chaqa pullar yengil vaznda bo'lib, savdo rivojiga to'siqlik qilgan.

Tanga chaqalarni yangisiga almashtirib ichki savdoning mayda chaqa pullarga bo'lgan talabini qondirish uchun u bir vaqtning o'zida Buxoro, Samarqand, Qarshi, Termiz, Toshkent,

Shoxruxiya, Andijan shaharlarida zarbxonalar tashkil ettirib, muomalaga kiritdi. Boshqa zarbxonalarni yo'qotib faqat Buxoroda zarbxonasi saqlanib qoldi. Xalq orasida "Fulusi - ya'ni adolat chaqa nomi bilan shuhrat qozondi. Bu yangi mis fuluslar mamlakatni barcha shahar va qishloqlarida keng kirib ketgan, davlat ichki savdosi bilan ta'minlay boshladи.

Shu bilan birga Ulug'bek hunarmandchilikka keng yo'l ochib berdi. Tashqi savdodan keladigan daromadni oshirish maqsadida «tamg'a» solish bir muncha oshirildi.

Bobur hayoti davomida siyosiy iqtisodiy va madaniy-marifiy sohalardagi ko'pgina muammolarga yechim topishga harakat qildi. Uning ilmiy dunyoqarashi mashhur «Boburnoma» asarida bayon etilgan. Bu asar o'zining har jihatdan mukammalligi, turli sohalarga oid tadqiqotlarining mahsuli ekanligi iqtisodiy qarashlari bilan tahsinga sazovor bo'ldi. Bobur ishlab chiqqan soliq siyosati uzoq yiliar davomida musulmon mamlakatlarida qo'llanib kelindi. Bu esa Boburning iq-tisodiy dunyoqaraishning chuqur ilmiy asosga qurilganligini, uzoqni ko'zlash salohiyatiga ega ekanidan dalolat beradi. Bobur savdo-sotiqning o'rtasidagi juda chuqur tushingan edi. Shuning uchun ham u savdo karvonlarini yo'llarda talash, bosqinchilik qilish, mol-mulkka zyon yetqazish kabi salbiy illatlarga shaxsan o'zi ham qattiq qarshi chiqadi.

4. Navoiy asarlarida iqtisodiy masalalarning qo'yilishi va hayotga oid ko'rsatmalari .

Navoiyning iqtisodiy qarashlari. Mo'g'ul istilosidan keyin O'rta Osiyoda ilm-fan XV-XVI asrda ravnaq topdi. XV asrning ikkiichi yarmida yashab ijod qilgan buyuk o'zbek shoiri, mutafakkiri, qomusiy olim va davlat arbobi Alisher Navoiy o'zining 22 asarida iqtisodiy qarashlarini aks ettirgan. Ulardan ayniqsa «Munshaot» (mamlakatni idora qilish haqida taxt vorisiga nasihat) ahamiyatlidir. Bu Navoiyni davlat islohoti haqida Husayn Boyqaroga yozgan mashhur xatidir.

Navoiyning fikricha, davlatning manbai soliqlar bo'lib, ular xalqni xonavayron qiladi. U adolatli soliq tartibi joriy qilishni talab qiladi.

"Farxod va Shirin", "Mahbubul-qulub" dostonlarida Navoiy mamlakatni obod qilish g'oyalarini ilgari suradi. Farxodning mashaqqatli mehnatini tariflab, Navoiy kelajakda mehnat qurollarini takomillashtirish, qurilmalar ixtiro qilish hisobiga mehnat unumdorligihlig juda katta o'sishni orzu kiladi. Mashhur Venger sharqshunosi Xerman Vamberi "Buxoro yoxud Mavoroxunnaxr tarixi" nomli asarida "Tarixichi Samad Mirzoning" bayoniga ko'ra Mir Alisher madrasa, karvonsaroy, ko'prik, masjid, kasalxonan, qiroatxona kabi 370 imorat bino qilishga amr etgan.

A.Navoiy boylik ikki yo'l bilan topiladi deydi: birinchi yo'l, odamlar o'z mehnati bilan tejamkorlik asosida orttirilgan boylik. Bunda odamlar to'q, farovon yashaydi. Bundan yo'l bilan boylik topishni qo'llab quvvatlaydi. U to'plangan boylikni 3 qismga bo'ladi. 1-qism: ketgan

harajatlar; 2-qism: o'zining va oilasining ehtiyojlarini qondirishga; 3-qism esa, aholining ijtimoiy manfaatlari uchun sarflashga chaqiradi.

Boylit topishning ikkinchi yo'li esa, o'g'rilik tamagirlik, zo'rlik hisobiga topilgan boylik qat'yan qoralanadi. Bu yo'l bilan orttirilgan boylik jamiyatining tekinxo'rlar qatlamiga mansubligini takidlaydi. A.Navoyning 1500 yilda yozilgan «Mahbub-ul-qulub» asarida iqtisodiy fikrlar asosan yetakchi rol o'ynaydi. Bu asarda uning fikricha, hunarmandlar va xorijda savdo qiladigan savdogarlar jamiyatda moddiy ne'mat yetishtirishda qatnashadilar va mamlakat rivojida muhim o'rinn tutadilar. Bu bilan Navoiy moddiy ishlab chiqarish sohasiga tarif bergan bo'ladi. U dehqonning ishlab chiqarishdagi rolini quyidagicha baholaydi: «Don sochuvchi dehqon yerni yorish bilan rizq yo'lini ochuvchidir.» deydi. Navoiy ishlab chiqarish vositalarining moddiy ne'mat yaratishdagi qatnashuvini quyidagicha baholaydi: «Qushchi ham ikki to'rt polis bo'lib, yukiga buysunib oldida yuradi, ishlashda hamdam va hamqadam, dehqon ularni surishda xuddi odam. Dunyo obodi xuddi ulardan. Har ne qilsalar harakat, xalqqa ham ular ovqat ham barakat!». Bu bilan A.Navoiy ishlab chiqaruvchi kuchlar birligini-dehqon, qo'sh xo'kiz-ishlab chiqarish vosintalari, yer esa mehnat predmetni tashkil qilishni ko'rsatadi. Bu yerda u xat qiluvchi omil dehqon mehnati ekanligini takidlaydi.

Navoiyning fikricha yakka kishi hech narsa ishlab chiqara olmaydi. Bu bilan u ijtimoiy ishlab chiqarishni targ'ib qiladi.

A.Navoiy jamiyatda muhim rol o'ynaydigan tabaqa savdogarlarga baho be-rib, u savdogarlik-bu san'atdir, deydi va savdogarlarni ikki guruhga bo'ladi: 1-guruh: xorij bilan savdo aloqalarini olib boradigan guruh; 2-guruh: mamlakat ichidagi olib solar chayqovchilar guruhi. Xorijda savdo-sotiq qiluvchi savdogarlar mehnatini ijobiy baholaydi va ular mehnati mashaqqatli, halol mehnat ekanligini takidlaydi. Ikkinci guruhdagi bozorlardagi olib sotarlarga tanqidiy ko'z bilan qaraydi va ularii o'z manfaatlari uchun ishlagan tekinxo'rlar guruhiga kiritadi. Shuning uchun ularning ishlarining turgan bitgani qalloblik va jamiyat uchun zarardir, ular qimmatchilik muhitini yaratadilar deydi. Savdogarning asosiy maqsadi foyda olishdir, birni yuz bo'lishdan, boshida savdo to'la bo'zni shoyi deyishidan o'ngida istak ko'p deydi. Navoiy bu bilan savdogarning maqsadi sotib olishdan qimmatroq sotishdir degan xulosaga keladi.

Bulardan ko'rinish turibdiki, bizning mutafakkir xasos shoirimiz bizga boy iqtisodiy merosni ham qoldirganlar.

Tayanch iboralar :

Uyg'onish davri mutafakkiri Ibn Sino iqtisodiy qarashlari . Farobi, Beru-niy, Yusuf Xos Xojib iqtisodiy qarashlari. Fozil odamlar shahri « «Qutadg'u bilig, «Temur tuzuklari» Amir Temur aqidalari. Alisher Navoiy moliya masalalari. Boburning pul siyosati, Ulugbekning iqtisodiy siyosati.

Takrorlash uchun savollar :

- 1 .Orta Osiyo uyg'onish davrining qaysi mutafakkirlarini bilasiz ?
- 2.Abu Nasr Farobiyning qaysi asarida iqtisodiy g'oyalar keltirilgan. qaysi iqtisodiy qarashlarni bilasiz ?
- 3.Yusuf Xos Xojibning dehqonchilik hunarmandchilik, chorvachilik faoliyati turlari qanday ommalashangan?
- .4. A. Temurning davlatni boshqaruv tizimini aytib berning
- 5.Amir Temurning muqobil pul siyosati haqida nima deya olsiz?
- 6.A Navoiy asarlarida qanday iqtisodiy fikrlarni ko'rish mumkin?
7. Ulug'bekning pul siyosatini qaysi ishlarda ko'rish mumkin?

5-MAVZU: MERKANTILIZM VA FIZIOKRATIZMNING UMUMIY TAVSIFI. ASOSIY IQTISODIY G'OYALARI.

Reja:

- 1. Merkantilizm g'oyalarning vujudga kelishi Iqtisodiy va siyosiy shart -sharoitlari.**
- 2. Merkantilizmning mohiyati. Ilk va rivojlangan merkantilizm**
- 3. Fiziokratizmning umumiyligi tavsifi fiziokratizmning iqtisodiy dasturi .**
- 4. Fransua Kenening iqtisodiy ta'limoti .**
- 5. A.Tyurgoning iqtisodiy g'oyalari .**

1. Merkantilizm g'oyalarning vujudga kelishi Iqtisodiy va siyosiy shart -sharoitlari.

Merkantilizm iborasi birinchi bo'lib Adam Smit asarlarida o'z ifodasini topadi. Uning lug'aviy ma'nosiga ko'ra italyancha bo'lib, "savdogar" mazmuniga ega. Uzoq yiliar davomida boylikning, xalq faravonligining asosi mehnat, yer, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik deb kelinar edi. Davri XV asrga kelib davr, ahvol o'zg'ardi. Bu ta'limotining paydo bo'lishiga bir qancha sotsial iqtisodiy sabablar bo'ldi. Avvalo feodal tuzimining yemirilishi. Tovar-pul munosabatlarining o'sishi va madaniyatining rivojlanishi yangi yerlarning ochilishi •(X.Kolumb Amernkani) buyuk geografik kashfiyotlar, mustamlakachilik tizimining paydo bo'lishi, ayniqsa savdo-sotiqning rivojiga turtki bo'ldi. Noekvivalent savdo tufayli metrapoliya koloniylar hisobiga beqiyoq boyidi. Ana shu o'zgarishlarni asoslab beruvchi ta'limot merkantelizm yuzaga keldi va muomala sohasini o'rganish bilan shug'ullandi. Merkantilizm sinfiy jihatdan savdo kapitalini himoya qiladi. Shu davrda YYevropada qahatchilik boshlandi. Hindistonda nodir metallar ko'p emish, degan mish-mishlar tarqaldi va u odamlar ularni topib, yangi yerlar ochishga intiladi.

Pul vazifasini bajargan nodir metallar, ularning ohangrabo kuch quvvati hammani oyoqqa turgazdi. Oqibatda, suvda kemalar xavfli yo'llarga otlanish ta-raddudi boshlandi. Xaritalar tuzildi, Kompas kashf qilindi, Amerika, Hindiston, yangi yer. Olovli yerlar ochildi. Uning vazifasi davlatga ko'proq oltin keltirishga aylandi. Bu davrda pul sifatida oltin, kumush ko'paytirish borasida ma'lum iqtisodiy siyosatlar ishlab chiqildi. Shunday qilib, boylikning manbai muomala sohasida yaratiladi, degan ta'limot yuzaga keldi.

2. Merkantilizmning mohiyati. Ilk va rivojlangan merkantilizm

Merkantilizm rivojida ikki davrni ajratish mumkin:

1-Ilk merkantilizm yoki monetarizm (XV-XVI)

2-Rivojlangan merkantilizm davri, oltin kumush to'plash, boshqacha qilib aytganda monetar siyosat bilan bog'liq edi. Chetdan imkonli boricha kam tayyor tovar sotib olishga uringan.

Qimmataho metalni tashqariga, chetga olib ketish taqilangan. Savdogarlarning olib chiqilgan mahsulotining bir qismiga pul olib kelish buyurilgan. Chet ellik savdogarlarga molni sotgandan keyin pulning hammasiga tovar sotib olib ketish yuklangan.

Merkantilizmni qisqacha qilib, quyidagicha tariflash mumkin. Iqtisodiy siyosat, mamlakatda va davlat xazinasiga ko'proq imkonli boricha nodir metallarni to'plash: nazariya va ta'limotda: savdo, pul oboroti muomola sohasida iqtisodiy qonuniyatlarni izlab topishdan iboratdir.

«Insonlar metall uchun qurban bo'lmoqda», ya'ni oltin fitishizmi bugun kapitalistik jamiyat rivojiga hamohang bo'lgan yangi hayot tarzi va fikrlashning tarkibiy qismidir.

Ilk iqtisodiy merkantilizm siyosatining asoschilari Angliyada Stafford, Italiyada G. Skaruff va boshqalar. Bular pulni iqtisodiyot tomiridagi koni deydilar. Bu siyosat o'zini oqlamadi.

XVII asrdan boshlab XVIII asrgacha pul balansi siyosati o'rniغا savdo balansi siyosati egalladi. Endi pul o'rniغا tovarlar olib kelish siyosati yurgizildi rivojgangan merkantelizm XVI asrning II yarmida paydo bo'di. Asosan Angliyada avj oldi. Uning asosiy mafkurachisi Tomas Mann (1571-1541) edi. Uning fikricha, pul tashqi savdo oborotida boshlang'ich punktni tashkil qiladi, ya'ni P-T-P-T. Manning fikricha shu bir savdo kapitalisti o'z pulini mal'um foyda olish uchun oborotga qo'yadi. Shu yo'l bilan ya'ni savdo puli boyish kerak: Ishlab chiqarishni rivojlantirish savdo vositasi bilan amalga oshirish kerak deb qaraldi. Bu nazariya o'z davri uchun ahamiyatga ega edi. Savdo balansini oshirish uchun ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga e'tibor berildi, bunda birinchi navbatda yollanma ishchilarning ish haqini cheklash va umuman, xalqning turmush darajasi-ni pasaytirish kerak, deb topildi. Tomas Manning yozishicha. «mul-mulchilik va kuch xalqni qanchalik buzsa, ehtiyojsiz qilib qo'ysa, qashshoqlik va muxtojlik uni shunchalik aktiv va mehnatsevar qiladi» emish. Bu albatta savdo kapitali xodim-larining har qanday yo'l bilan imkonli boricha ko'proq boypsi uchun yo'l ochib berishi demakdir. XV-XVIII asrlarda merkantilizm g'oyalari (pul to'plash siyosati, proteksionizm, xo'jalik faoliyatini davlat tomonidan

tartibga solish va boshqalar). YYevropaning deyarli barcha mamlakatlarida, Portugaliyadan to Moskvagacha yoyildi.

Merkantilizm ta'limot sifatida ham, iqtisodiy siyosatdagi yo'naliш sifatida ham turlicha edi: eskirayotgan feodal munosabatlariغا qarama-qarshi va yangi burjuaziyani qo'llash orqali o'z davri uchun progressiv bo'lган ilk kapitalizmning shakllanishiga yaxshi imkoniyat yaratdi. Ammo Fransiyada Lyudovik va Kolber tomonidan manifikaturalarni ko'paytirish usuli, milliy sanoatni rivojlantirish uchun emas, absolyutizmni mustahkamlash qiroл xonadonining sarf xarajatlarini qoplashga qaratildi. Germaniyadagi kameralistlar hamda mavjud hokumiyatni qo'llash, aholini esa ularga so'zsiz buysundirshiga harakat qildilar.

Merkantilizm bilan birga «Siyosiy iqtisod» tushunchasi ham kirib keldi. Bu tushuncha Fransiyalik Antuan Monkreten Serde Vatgevil tomonidan kiritildi. (1565-1621). U 1615 yilda «Siyosiy iqtisod traktati» kitobini yozdi. Bundagi asosiy g'oya «Ko'p sotu, kam sotib olish» olim o'z g'oyalari bo'yicha markantilizm edi.

Angilyada qishloq xo'jaligi va sanoatda kapitalistik o'zgarishlar erta amalga oshgan va bo'lsa merkantilizm ham yordam bergan bo'lsa, Fransiyada yangi merkantilizm siyosati Lyudovik XIV hukumati asosi (moliya ministri) Jan Batis Kolber (1619-1683) tomonidan keng olib borildi. (Bu siyosat kolbertizm deb ataladi). Bu davlatda feodal munosabatlar (ayniqsa, mayda dehqonchilik) keng tarqalgani uchun Kolber asosiy e'tiborni sanoatga qaratdi va agrar sohani deyarli e'tiborga olmadi. Masalan, chetdan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini keltirishni qo'llab quvvatlagan, ishalb chiqarishni esa cheklagan.

Merkantilizm kapitalistik ishalb chiqarishning birdan bir ta'limoti edi. Bu ta'limot barcha mamlakatlarda tarixan progressiv harakterga ega. «Merkantilistlar I marta boylik sifatida iste'mol qiymatni emas, balki almashuv qiymatni qabul qildilar, demak boylikni pul bilan tenglashtirib, oddiy til bilan aytganda qo'pol, sodda shaklida burjua ishlab chiqarishning siri, uning almashuv qiymatiga to'la tobe ekanligini ochib qo'ydilar».

3. Fiziokratizmning umumiy tavsifi fiziokratizminig iqtisodiy dasturi

Merkantilizm ta'limoti, ya'ni muomala sohasini tadqiqoti o'rniga fiziokratizm ta'limoti vujudga keldi. Uning mazmuni mamlakat boyligining manbai qishloq xo'jaligida yaratilgan mehnat mahsulotidan iboratdir.

Fiziokratlar (lotincha tabiat, kuch va hokimiyat) XVIII asrda Fransiyada ijod etgan klassik iqtisodiy namoyondalaridir. Fiziokratlar maktabi feodalizmdan kapital tizimga o'tish davrida rivojlandi, bu iqtisodiy yo'naliш Fransiyada sanoat mafkurasi rinojlana boshladi, ammo mamlakat agrar holatda edi. Aholining asosiy qismi qishloqlarda yashar, milliy boylikning 2,3 qismi shu sohada yuzaga keltirilar edi. Bu davrda dehqonlarning ahvoli yomonlashdi. Fransiyada fermerlar

paydo bo'lib, tobora rivojlandi. Feodalizmga qarshi kurash g'oyasi fiziokratlar va ularinig asoschisi Fransua Kene iqtisodiy ta'limotida asosiy o'rnnini egalladi.

Bu ta'limot fermerlar sinfini himoya qiladi, ishlab chiqarishni asosan, qishloq xo'jaligini mamlakatni og'ir ahvoldan chiqarishning bosh yo'li deb bel-giladi. Tabiiy qonun qoidalariga amal qilish kerakligini ko'rsatib berildi.

Agrar masalani hal etish fiziokratlarning vazifasi bo'lib qoldi. Ular qishloq xo'jaligini boylikning asosi deb tushundilar.

Fiziokratlarning muhim tomoni shuki merkantilistlardan farq qilib, o'z tadqiqotlarni muomala sohasidan ishlab chiqarish sohasiga qaratdilar. Olimlar iborasi bilan aytganda «zamonaviy siyosiy iqtisodning haqiqiy otalari» edilar. Ularning xizmatlari shundaki, o'sha davr dunyoqarashi doirasida kapitalning dastlabki tahlilini berishdir. Bu ularni boshqadardan ajratib turadi va asosiy masala edi. Ammo fiziokratlar ishlab chiqarish sohasini qishloq xo'jalik sohasi bilan cheklab qo'ygan edilar. Ular sanoatni samarasiz soha deb bilganlar, chunki u davrda sanoat rivojlanmagan, hunarmandchilik doirasida edi.

4. Fransua Kenening iqtisodiy ta'limoti

Fiziokratizm namoyondalarining rahbari Fransua Kene edi. Kenening "Fermerlar", "Don", "Aholi", "Soliqlar" asari paydo bo'ldi. 1775 yili uning muhim asari "Iqtisodiy jadval" asari dunyoga keldi. Bu asarda u fiziokratizim maktabini yaratdi.

Kene «Tabiy tartib» konseptsiyasini ilgari surdi. Bu asarda u iqtisodiy rivojlanish odamlarning xohish irodasiga bog'liq bo'limgan tabiiy jarayon bo'lib, uning ma'lum qonuniyatlariga bo'ysunishini tan olish fiziokratizmning yutug'i edi.

F. Kene «Tabiy tartib» konseptsiyasida u paydo bo'layotgan va tobora mustahkamlanayotgan kapitalizm tizimini tushundi, iqtisodiyot erkin raqobat asosida rivojlanishini, bozor bahosini stixiyari o'zgarishi, ya'ni davlatning aralashuvini inkor etadigan jarayonni qo'llab-quvvatladi. Iqtisodiy rivojlanish odamlarni istak xohishiga bog'liq bo'limgan tabiiy jarayon bo'lib, uning ma'lum qonuniyatlarga bo'ysinoshini tan olish fiziokratlrning so'zsiz yutug'i edi. Bu qonunlar ularning fikricha tarixiy bo'lmay, abadiy qonunlar deb qaralgan edi. Shu sababli ishlab chiqarishning kapitalistik shakli tabiiy va adabiy ishlab chiqarish shakli deb hisoblangan. F. Kene almashuvning ekvivalentligi ta'limotini ilgari surdi. U almashuv yoki savdo boylik yaratmaydi demak, almashuv jarayoni hech narsa ishlab chiqarmaydi, deb hisoblangan. Erkin raqobat sharoitida almashuv ro'y beradi. Bu qiymat tovarlarda ular bozorlarga kirmasdan oldin ham mavjud bo'ladi. V. Petining tovar qiymati faqat almashuv paytida paydo bo'ladi degan fikri noto'g'ridir. Bundan kelib chiqadiki, almashuv jarayonida boylik yaratilmaydi va foyda paydo bo'lmaydi. Almashuvning ekvivalengligi to'g'risidagi ta'limot merkantilistlarning qarashlarini inkor etish uchuy nazariy asos

bo'ladi. Bu ta'limot shu bilan birga fiziokratlardan boylik manbaini muomala sohasidan tashqarida izlashni taqazo etdi. Ammo F. Kene miqdorli qiymatlarning almashuvi sababini to'g'ri tushuntirib bera olmadi, chunki qiymat nazariyasi ham to'la ishlab chiqilmagan edi va u qiymatni ishlab chiqarish xarajatlari birdan aynan bir deb hisobladi. Fiziokratlarning iqtisodiy tizimida «sof mahsulot», to'g'risidagi ta'limot markaziy o'rnnini egalaydi F. Kene yalpi ijtimoiy maxsulot va ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi farqni sof mahsulot deb bilgan.

Boshqacha qilib aytganda ishlab chiqarish chiqimlaridan oshiqcha mahsulotlotdir. F. Kene «sof mahsulot» faqat qishloq xo'jaligida, dehqonchilikda yaratiladi, bu sohada tabiat kuchlari ta'sirida iste'mol qiymatlari miqdori deb takidlagan edi. Sanoatda esa iste'mol qiymatlari faqat turli kombinatsiyalarda uchraydi, mehnat jarayonida dehqonchilikda yaratilgan mahsulotining shakli o'zgaradi, davri uning miqdori ko'paymaydi, shuning uchun sof mahsulot paydo bo'l-maydi va boylik yaratilmaydi, deydi. A.Smitining fikricha shu asosda hunarmand-lar unumsiz foyda bermaydigan sinf deb, qaralgan. Aslida esa fiziokratlar bu borligini tan oldilar, uni unumsiz emas balki foydaga, sof qo'shimcha daromad keltirmaydigan deb qaraganlar.

F. Kene iqtisodiyot tarixida takror ishlab chiqarish jarayonini va yalpi ij-timoiy mahsulot muomalasini butunicha ko'satish uchun birinchilardan bo'lib urinib ko'rdi. U o'sha davr jamiyati fuqarolarini uch sinfga bo'ladi: birinchisi -unumli sinf fermerlar); ikkinchisi-mulkdorlar sinfi (pomeshchik, cherkov) va uchinchisi - unumsiz sinf (hunarmand, ishchi va savdo xodimlari). Bu jarayon sxematik ravishda «Iqtisodiy jadval» da tasvirlangan. Unda mamlakatda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotining aylanishi orqali qanday taqsimlanishi ko'rsatilgan, buning oqibatida ishlab chiqarishning avvalgi hajmida qayta boshlash uchun shart - sharoitlar yaratiladi.

Bu qonunlar ularning fikricha tarixiy bo'lmay, abadiy qonunlar deb qaral-gan edi. Shu sababli ishlab chiqarshining kapitalistik shakli tabiiy va abadiy shakli deb hisoblangan.

5. A.Tyurgoning iqtisodiy g'oyalari .

S.F.Kenening g'oyalari Jak Tyurgo (1727-1781 yil) tomonidan da-vom ettirildi va chuqurlashtirildi. U iqtisodiyot davlat aralashuviziz rivojlanishi kerak 'deydi. Tyurgo «Boylikni paydo bo'lishi va taqsimlanishi to'g'risida mulohazalar" asarida muhim o'rinn tutadi. U Kene fikrini faqat targ'ibot qilish bilan cheklanmadni, uni rivojlantirdi. U kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarini ancha chuqur tushundi, feodalizmni islohot o'tkazish yo'li bilan yaxshilash mumkin degan fikrga ishonmadi, kapitalizm (feodalizm qobig'ida vujudga keladi va g'alaba qiladi degan g'oyani ilgari suradi. Bu kitob aslida Parijga o'qishga kelgan ikki Xitoylik uchun darslik sifatida yolgan va 100 ta aniq tezisdan iborat. Ammo ba'zi qoida aksiomadan iborat. Bu iqtisodiy teoremlar aniq uch qismga bo'linadi. 31 ta tezis fiznokratik g'oyalari majmuidan iborat. Ammo sof mahsulot nazariyasi F.Kenedan boshqacharoq talqin etiladi, aslini olganda bu yerda qo'shimcha qiymat haqida gap boradi va bu mahsulot tabiatining sof in'omdan dehqon mehnat bilan yuzaga

keladigan ortiqcha mahsulot sifatida qaraladi hamda asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yer egasi tomonidan o'zlashtiriladi. Keynigi 17 ta asari teorema qiymat, baho va pulga bag'ishlangan. A.Tyurgoning bu sohadagi fikrlari o'ziga xos xarakterga ega qiymatining mehnat nazariyasidan ancha yiroq. Uningcha almashuv qiymati va tovarlar bahosi, tovarlar nisbati, atmashuvda ishtirot etgan shaxslar sotuvchi va oluvchi istagining intensivligi bilan aniqlanadi. Ammo A.Tyurgonning bu g'oyasi uning ta'limotiga hech ham mos kelmas edi.

Oxirgi 52 ta teoremada A.Tyurgoning tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan asosiy iqtisodiy g'oyasi keltiradi. Yuqorida aytilganidek, fiziokratlar jamiyatni 3 sinfga bo'ladilar. A.Tyurgo esa jamiyatni sinflarga boshqacharoq ajratadi «Unumsiz» sanoatchilar sinfini u 2 qismga bo'ladi.

1.Tadbirkor manufakturistlar, fabrika egalari kiradi, ular katta kapital egalari sifatida namoyon bo'lib, o'z avans, ya'ni bo'laklari yordamida ish joyi yaratadilar va uni foyda olish uchun sarflaydilar.

2.U oddiy hunarmandlar bo'lib, ular qo'l kuchlari hisobiga ish haqi oladi. A.Tyurgo ish haqini Uilyam. Petti va F.Kene tirikchilik uchun zarur minimum mablag'lar asosida hal etadi, ammo Kenedan farqli ravishda, nega shunday bo'lishi kerakligi mexanizmini tushuntirib bermoqchi bo'ladi. Uning asosiy dalili shuki, mehnatga talab taklifga nisbatan kamayib boradi, ishchilar o'rtaida raqobat boradi.

Demak, A. Gyurgoning fikri bo'yicha jamiyatla 5 sinf mavjud. Bu haqiqatga yaqindir. U yollanma ishchida qo'l kuchidan boshqa ishlab chiqarish vositasi yo'qligini ochib beradi, kun kechirish uchun u o'z mehnatini sotishi zarurligini ko'rsatadi. A.Tyurgoning bunday fikriga kelishiga vaqtining ham ta'siri bor, chunki u Kenedan keyniroq yashadi.

A.Tyurgo boshqalar kabi erkin sohibkorlar mehnatini qo'llab-quvvatladi, dehqochilik, qo'shimcha, ya'ni sof mahsulot manbai ekanligini tan olgan holda sanoat va savdoga ham ko'p e'tibor qiladi.

U kapital deganda asosan natural shaklni tushungan, shu sababli uning tizimida kapital jamiyatga sinflar o'rtaсидаги mahsulotlar taqsimoti muammosi bilan o'nga mustahkam bog'lanmagan. Kene tizimida foydaning o'rni yo'q; kapitalist faqat "ish haqi olgan", bu ish haqlari qanday vujudga kelishish ham tahlil etilmagan. Foydalarning 3 - qismi rentadir. Boshida foydani foizdan chiqaradi, bu minimum bo'lib, unga har bir kapitalist egalik qilish huquqiga ega.

Fiziokratizmning ahamiyati va uning tarixiy taqdiri.

A.Smit o'z vaqtida "fiziokratizm tizimi qanchalik nomukammal bo'lmasin, shu davrgacha chop etilgan iqtisodiy g'oyalar ichida haqiqatga eng yaqini edi", - deb aytgan edi. Bu ta'limotlarning merkantilizmning inkor qilnishi, va mehnat bilan yer boyliklarning asosi ekanligini tan olishi, savdo-sotiqqa bojxona cheklashlarini olib tashlashni taklif etishi nihoniyatda muhimdir. Fiziokratlar boylik tezisi to'g'risida fikr yuritib, boylik bu jamiyat mehnati bilan har yili yaratiladigan iste'mol

qiymatlardir, deydilar. Bu tezis ham A. Smit tomonidan qabul qilingan. Ishlab chiqarish va ta'limot jarayoniga xos umumiy mehnat doktorinasi, ishlab chiqarishlarning takroriyligiga alohida urg'u berilishi katta yutuq hisoblanadi.

Tayanch iboralar :

Merkantilizm. Ilk merkantilizm. Rivojlangan merkantilizm. Italiya merkanti-lizmi. Fransiya merkantilizmi. Kolbertizm «Tabiiy tartib» kontsepsiysi. «Sof mahsulot nazariyasi». Unumdon mehnat. A. Tyurgoning iqtisodiy nazariyasi .

Takrorlash uchun savollar:

- 1 .Merkantilizm qanday sinfiy sharoitda vujudga keldi ?
2. Merkantilizmning tarifini aytib berning ?
- 3 .Pul balansi siyosatini izohlab berning ?
- 4.Savdo balansi siyosati nima ?
- 5.Ilk merkantilizm nima?
- 6.Rivojlangan merkantilizm asoschilaridan kimlarni bilasiz?
- 7.Fiziokratizm g'oyalarning mohiyati nimada ?
- 8.Merkantilizm ta'limoti fiziokratizm ta'limotidan nima bilan farq qiladi?
- 9.Fiziokratizm asoschilardan kimlarni bilasiz ?
- 10 .Fransua Kene qaysi ta'limot vakili hisoblanadi?
- 11 .A Tyurgoning qanday iqtisodiy g'oyalarni bilasiz?

6-MAVZU: KLASSIK BURJUA IQTISODIY MAKTABI

(U .Petti, A.Smit, D. Rikardo).

Reja:

- 1. Klassik burjua iqtisodiy maktabining vujudga kelishishng tarixiy-sinfiy iqtisodiy shart - sharoitlari va umumiy tavsifi.**
- 2. Uilyam Petti - klassik burjua iqtisodiy maktabining asoschisi. Uning iqtisodiy ta'limoti.**
- 3. Adam Smit iqtisodiy ta'limoti. Manufaktura davrining burjua iqtisodchisi sifatida.**
- 4. David Rikardo sanoat to'ntarilishi davrining iqtisodchisi va uning asosiy iqtisodiy ta'limoti.**

1. Klassik burjua iqtisodiy maktabining vujudga kelishining tarixiy-sinfiy iqtisodiy shart-sharoitlari va umumiy tavsifi.

Merkantilizm o'rniga klassik iqtisodiy mакtab vujudga keldi. Chunki bu ta'limot sanoatlashayotgan davr talabiga javob bermay qo'ydi. Paydo bo'layotgan muammolarni hal etish yangi yo'nalish tarafdorlari zimmasiga to'g'ri keldi. Klassik mакtab shilab chiqarishning kapitalistik usuli shakl topayotgan davrga to'g'ri keldi. Kapitalizm ayrim mamlakatlarda tarixiy sharoitlariga mos ravishda feodal munosabatlarning saqlanish darajasiga qarab, turlicha rivojlandi. Bu jarayonlar dastlab Angliyada yuz berdi. Feodalizm yemirilib, uning zaminida kapitalizm munosabatlari shakllana bordi. Un xo'jaligi o'rniga manufakturaning kirib kelishi ijobji -voqea bo'ldi. XVI asrdan boshlab dehqonlarning yerdan mahrum qilinishiga yuz berdi. Yomenlar-dehqonlar sinfi tugatildi, oqibatda kapitalistik fermerchilik yuzaga keldi. Ular yollanma mexnatdan foydalana boshladilar, keyinchalik texnikani, ilmiy texnika yangiliklarini keng qo'llay boshladilar. Agrar inqilob, islohot nomini olgan bu o'zgarish manufaktura sanoatining rivoji bilan bog'liq. Dastlabki paytlarla bu sohada mato to'qish asosiy edi. U nihoyatda foyda keltiruvchi sohaga aylandi. Matoga talab oshdi, uni qondirish uchun, sanoat uchun kerakli xom ashyo bazasini yaratish talab qilindi. Xom ashyo esa jun bo'lib, qo'ylardan olinardi. Manufaktura rivojiga jun kerak, buning uchun qo'ylar sonini oshirish talab etildi, ko'p qo'y boqish uchun esa yangi keng yaylovlar zarur, oqibatda chakalakzor, botqoq, bo'z yerlar chegaralanib («yerlarni chegaralash» degan ibora shundan kelib chiqqan) yaylovga aylantirildi. Dehqon (yomen) lar o'z yerlaridan haydar chiqarildilar, yerlari esa tortib olinib, yaylov larga aylantirildi. Bu jarayonning muhim ahamiyati bor:

1. Manufaktura (sanoat) uchun xom ashyo ko'paydi;
2. Sanoatga ko'p va arzon ishchi kuchi yyetkazib berildi (yerlaridan haydalgan dehqonlar ish qidirib shaharlarga borganlar). Oqibatda sanoat tez o'sa boshladi, yangi sinflar paydo bo'ldi. Demak, sanoatdagina emas (manufaktura), qishloq xo'jaligida ham kapitalistik munosabatlar g'alaba qozondi. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga yo'l ochib berildi. Lekin ko'plab dehqonlarning ekspropriatsiya qilinishi (yersizlantirilishi), ularni zo'rlik yo'li bilan yollanma mehnatga jalb etilishi

(chunki boshqa iloj yo'q) qarama - qarshilikni kuchaytirdi, oqibatda 1641-1660 boshlarda Angliyada inqilob bo'lib o'tdi. XVII asrda Gollandiyadan keyingi ikkinchi bu inqilob burju inqilobi bo'lib, u Angliyadagi feodal jamiyatga chek qo'ydi. Angliya respublika deb e'lon qilindi, parlament vujudga keldi, demokratik jarayon kuchaydi. Asosan yengil sanoat rivojlanib ko'p foyda keltira boshladi. Bu davrga kelib, merkantilistlardan farqli ravishda klassik maktab namoyondalari feodalizm o'rniga nisbatan progressiv kapitalistik munosabatlarining ichki iqtisodiy aloqalarini o'rgandilar. Ular o'z tadqiqlarini ishlab chiqarish sohasiga ko'chirdilar.

Klassik siyosiyning namoyondalari U. Petti, A. Smit va D. Rikardolardir. Klassik iqtisodiy maktab deganda, U. Pettidan boshlanadigan iqtisodiy tadqiqotlar tan olinadi, bu ta'limot ishlab chiqarishdagi burjua munosabatlarini ichki aloqadorligini o'rganadi va tahlil etadi.

2. Uilyam Petti - klassik burjua iqtisodiy maktabining asoschisi. Uning iqtisodiy ta'limoti.

Burjua klassik maktabining shakllanishi asosan XV asrdan boshlanadi. Bu iqtisodiy maktabinig namoyondalaridan biri Uilyam Pettidir. Uilyam Petti iqtisodiyotining qonun va kategoriyalarining yaratilishi va rivojlanishining boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi.

Petti Uilyam 1623 yil 26 mayda London shahrida tug'ilgan. Ingliz ekonomisti, burjua siyosiy iqtisodining asoschilaridan biri. Pettining ilmiy qiziqishlari ko'p qirrali:

1647 yili nusxa ko'chnruvchi mashina ixtiro qildi, 1649 yilda fizika doktori darajasini, 1651 yilda anotomiya va muzika professori unvonini oldi. XVI - asrdan Angliya burjua revolyutsiyasidan keyin kuchaygan ingliz burjuaziyasining ideologi sifatida tanildi. Muhim iqtisodiy asarlari "Soliqlar va yig'imlar haqida traktat" (1662 yil), "So'z donishmandlarga" (1855 yil), "Irlandiyaning siyosiy anatomiyasi" (1672 yil), "Siyosiy arifmetika" (1533 yil) va boshqalar. Uilyam Petti asarlarida burjua ishlab chiqarish munosabatlarining ichki qonuniyatlarini tekshirdi, mehnat qiymati nazariyasiga asos soldi, ish haqi, foyda, yer rentasi muammolarini tadqiq etdi. Petti merkantelistlardan farq qilib, boylikning manbai muomala sohasida emas, balki ishlab - chiqarish sohasidir deb hisoblangan.

Petti jamiyatining iqtisodiy rivojlanishning ob'yektiv qonuniyatlariga bog'liq deb ko'rsatadi. Kapitalistik jamiyatni abadiy va tabiiy deb hisobladi. Uilyam Petti kapitalistik jamiyatining ekspluatatsiyaga asoslangan ekanligini, ishchilar sinfi kapitalistlar tomonidan ekspluatatsiya - ularning haqi to'lanmagan mehnatni tekinga o'zlashtirilishini deb bildi va u bundan chiqib ketish yo'llarini ko'rsatib bera olmadi. Chunki uning ish haqi, foyda, yer rentasi muammolarini tadqiqotlari buni tasdiqlaydi. Ishchi mehnati evaziga ish haqi oladi. Tadbirkor-kapitalist sarmoya solganligi va ishlab chiqarishni tashkil qilganligi uchun mukofot tarzida foydani oladi. Yer egasi esa, daromad sifatida rentani o'zlashtiradi. Bu yerda hech qanaqa kapitalistlar bilan ishchilar sinfi o'rtasida ziddiyat bo'lishi mumkin emas deb hisobladi. Shuning uchun kapitalistik jamiyatda ekspluatatsiya muammolarini yo'q deb takidlaydi.

1682 yilda yozilgan "Pul to'g'risida bir necha og'iz so'z" kitobi 32 ta savol va javob tariqasida Angliyada pul chaqasini qaytadan zerb etish masalasiga bag'ish-lanadi. Unda Petti merkantilizmdan butunlay voz kechadi va pulni umumiy ekvivalent vazifasini bajaruvchi maxsus tovar deb hisoblaydi. Pulning qiymati ham boshqa tovarlar kabi sarflangan mehnat miqdori bilan belgilanadi. Almashuv qiymati esa qimmatbaho metalini qazib olishga ketgan mehnat sarfi bilan bel-gilanadi. Eng muhim masala bu mamlakatdagi pulning miqdori, ya'ni oborotdagi pul masalasi edi. Muomaladagi pulning miqdori tovar-to'lov oborotlari tufaylik oxir oqibatda realizatsiya qilinayotgan tovarlar, ularning bahosi va pulning muomala chastotasi bilan aniqlanadi. Uning fikricha pul inson organizmidagi yodga o'xshaydi. Chunki yodning ortigi ham, kami ham ziyondir, meyorda bo'lgani yaxshi.

U davlatining iqtisodiyotga aralashuviga ham e'tibor beradi. Bu aralashuv iqtisodiyotga yordam berishi kerak, lekin boshqa paytda davlat iqtisodiyotdan uzoq bo'lishi kerak.

Petti o'zining tabiiy baho to'g'risidagi ta'limotida qiymatining mehnat nazariyasiga asos soldi. "Baho mehnatining miqdori bilan o'lchanadi" deydi. U iq-tisodiyot tarixida mehnatning qiymat nazariyasiga asos soldi. "Mehnat boyliginig otasi va nihoyatda faol prinsipdir, yer esa uning onasidir" degan xulosaga keladi. Bu g'oya'ning shunisi to'g'riki, mehnat boylikning yakkayu yagona manbai emas balki tabiat ham ishtirok etadi. Shunday qilib, Petti o'zining qiymatining mehnat nazariyasiga qarama-qarshi o'laroq, qiymat manbai sifatida mehnat bilan birgalikda, tabiatni ham qabul qilishni talab qiladi. Qiymat nazariyasi bilan ish haqi va renta to'g'risidagi nazariyalar bevosita bir-biriga bog'liq. Petti boshqa klassik maktab vakillari singari ish kuchini emas, balki mehnatni tovar deb hisoblaydi. Aslida ish kuchi ham tovardir. Petti tovar iste'mol qiymatga ega ekanligini ko'rsatadi. U mehnatining tabiiy bahosi ish haqi deb biladi va uning miqdorini aniqlashni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. O'sha davrda Angliyada ish haqi qonun bilan tartibga solingan, uning eng yuqori pog'onasi ishchilarning xayoti uchun zarur bo'lgan jismoniy minimum mablag'lardan iborat edi, sog'lom odamning kundalik ovqati). Har bir ishchi "yashashi, mehnat qilish va boyishi uchun kerakli narsani olsa bas" degan xulosaga keldi, bu holatni Petti nazariy jihatdan isbotlamoqchi bo'ldi. Uning fikricha, agar ishchilarga ko'rsatilgan minimumdan masalan, ikki hissa ko'p haq to'lansa, ular ikki marta kam ishlaydilar. "Tirikchilik uchun mablag'lar" nazariyasi xato bo'lib, avval ishchi kuchi qiymatiga kiruvchi tarixiy va ilohiy elementlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga buning ijobjiy tomoni ham mavjud bo'lib ishchilar o'zlarini yaratgan qiymatining faqat bir qismini olayapti deb tushintiradi. Lekin bu hol jamiyatda tadbirkorlar mavjud ekan, bu tabiiy holdir. Mehnat tufayli yuzaga kelgan qiymatining boshqa qismi esa qo'shimcha mehnat natijasi bo'lgan qo'shimcha qiymatni renta deb ataydi. Petti rentani absolyut va differentsial rentaga bo'ladi. Differential rentaning kelib chiqishini u yer uchastkalarining turlicha

joylashganligi bilan tushuntiradi (bozorga yaqin-uzoqligi, masofa, transport sarflari U rentaning ikkiichi sababini ham aniqlab, yerning tabiiy unumdonligi turlicha ekanligini ko'rsatadi.

Absolyut renta xususiy mulkchilik sharoitida namoyon bo'ladi. Petti yerning bahosini yillik rentani ma'lum bir songa ko'paytirish orqali aniqlaydi.

Shundan qilib, Uilyam Petti iqtisodiyot nazariyasining qonun va katego-riyalarining yaratilishiga uch xossasini qo'shdi va bu ta'limot o'z davri uchun o'ziga xosdir va u o'ziga xos iqtisodiy maktab yaratdi.

3.Adam Smit iqtisodiy ta'limoti. Manufaktura davrining burjua iqtisodchisi sifatida.

Burjua klassik matabining rivojiga Adam Smitining ham salmoqli hissasi bor. U manufaktura davri iqtisodiy matabining asoschisi va rivojlantiruvchisidir. Adam Smit 1723 yil 5 iyunda Shotlandianing Kerkoldi shahrida tug'ilgan. 1790 yoshha Edenburg shahrida vafot qildi.

Ingliz iqtisodchisi, olim burjua klassik siyosiy iqtisodining namoyonda-laridan biri uning "Xalqlar boyligining xususiyatlari va sabablari to'g'risida tadqiqot" nomli asosiy asari 1776 yilda nashr etilgan. Bu kitob Adam Smitga iqtisodiyotining otasi degan titulni berdi. Asar besh kitobdan iborat:

1 qismda - qiymat va daromad masalalarini tekshiradi;

2 qismda - qiymatining tabiatini va uni jamg'arish masalalariga bag'ishlanadi;

3,4,5 - qismlarida YYevropada feodalizm davrida va kapitalizmning tuzilishi iqtisod taraqqiyoti, iqtisodiy fikrlar tarixi va davlat moliyasi masalalarini ko'rib chiqadi.

Adam Smit bu asarda millat boyligi ishlab chiqarish jarayonida yaratiladi, nafaqat qishloq xo'jaligida balki ishlab chiqarishning barcha sohalarida ham yaratiladi. Ishlab chiqargan boyliqlar miqdori ishlab chiqarish omillari bilan o'lchanadi deydi. Adam Smit ta'limotining markaziy g'oyasi shundaki, iqtisodiyotining yaxshi faoliyat ko'rsatishi davlat iqtisodiyotga aralashuvini cheklasagina amalga oshiriladi. Shu paytda iqtisodiy egoizm ishlab chiqaruvchilar xaridorlarga kerakli tovarlarni ishlab chiqirishga va maksimum past baholarda sotishga majbur qiladi. Ishlab chiqaruvchilar jamiyatining manfaati uchun emas, balki raqobatdoshlarini yengib chiqib, yuqori foyda olish uchun ishlab chiqaradilar. Lekin bu egoizm jamiyatga arzon sifatli tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlash uchun (Foyda keltiradilar. Agar iqtisodiyot davlat boshqaruvidan erkin bo'lsa, iqtisodiyot rivojlanadi va jamiyat yutib chiqadi, buning uchun Adam Smit "Ko'rinas qo'l" iborasini qo'llaydi: Har qaysi odam eng yuqori qiymaga ega bo'lgan mahsulot yetishtirish uchun o'z sarmoyasini ishlatadi. U bu kishi jamiyatga foyda keltirish uchun qilmaydi banki, u o'zining manfaatlarini ko'zlab qiladi. Ammo har qanday holatlardagidek "Ko'rinas qo'l" bu maqsadini amalga oshiradi. U buni o'zi istagan bo'lsa ham. U o'zining xususiy manfaatlarini ko'zlagan holda harakat qilib, eng

yaxshi tarzda jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi. Adam Smit "Ko'rinmas qo'l" deb biz hozirda talab va taklif deb atayotgan iqtisodiy kuchlarni aytadi. U merkantelistlarning maqbul savdo balansiga erishish maqsadida davlat boshqaruviga chaqiruvi bilan umuman kelisha olmadi, noto'g'ri deb tushindi.

Adam Smit kapitalizmning manufaktura davrida yashagan, uning xizmati shundaki, tarixida birnichi bo'lib kapitalistik jamiyatining sinfiy tuzilishni, ya'ni bu jamiyat 3 sinfdan: ishchilar, kapitalistlar va yer egalaridan iborat ekanligini isbotlab berdi. A.Smit bu sinflar o'rtasidagi ziddiyatni ko'rolmadi.U har bir sinf o'z manfaatlari uchun kurashadi. Buning oqibatida esa jamiyat uchun foydalidir deydi. A.Smit siyosiy iqtisod fani taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shdi. U mehnat qiymati nazariyasini yaratdi va tovar ekanligi isbotladi.

A.Smit kapitalistik jamiyatining sinfiy strukturasini baholashda fiziokratlarga nisbatan ancha ilgarilab ketdi. U ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan munosabatiga ko'ra uch sinfni ajratib berdi: ishchilar, kapitalistlar va yer egalari. Har bir sinf o'zining asosiy daromadini: ishchilar ish haqi, kapitalistlar foyda, yer egalari esa renta oladilar. Smit turli qatlam va oraliq guruuhlar mavjudligini ham aniqladi va asosiy sinflar deb atalmish daromadni oladilar, barcha boshqa guruhlarning daromadi esa qayta taqsimlangan yoki ikkilamchidir.

Ish haqi, ya'ni ishchining daromadi Smitining fikri bo'yicha mehnat mahsuloti bo'lib, mehnat uchun to'lanadigan tabiiy mukofotdir, oddiy takror ishlab chiqarishda ham mehnat haqi mavjuddir. U oddiy ishlab chiqaruvchi bilan yollanma ishchining daromadlarini bir deb bildi. Oddiy takror ishlab chiqarishda «ish haqi ishchining» butun mehnat mahsulotiga teng.

Smit ta'limotida ishchi kuchi degan kategoriya yo'q, u kapitalist va ishchi o'rtasidagi munosabatda ishchi kuchi sotilish jarayonini tushinmagan. Ammo ish haqining normal darajasini aniqlashda u amalda ishchi kuchining qiymatidan foydalangan, ish haqining miqdori to'g'risida gap borganda esa tirikchilik xarajatlari qiymati hisobga olinishi kerak, deydi . U shuningdek, ish haqi miqdori o'zgarishning mexanizmning o'rganib, uning quyi cheg'arasi jismoniy tirikchilik minimumn bo'lish kerak degan xulosa chiqaradi. Agar ish haqi undan past bo'lsa, ishchilarning ommaviy qirg'ini ro'y beradi, Hindiston va Xitoydagi ishchilarning ish haqlari iqtisodiyotining tushkunlik yoki turg'unlik holatida jismoniy minimumga yaqinlashadi.

Angliya va Shimoliy Amerikada, ya'ni rivojlanish me'yorida yoki tez suratlari bilan borgan davlatlarga ish haqi minimumdan yuqori bo'ldi, undan tashqari ish haqi an'ana, madaniy saviya, tarkib topgan iste'mol meyoriga ham bog'liq. Ish haqi miqdorining o'zgarishi bozor mexanizmnning harakati asosida shakllanadi, uning o'zgarishining bevosita sababi mehnat bozoridagi talab va taklifning tebranib turishi hisoblanadi.

A. Smit burjuaziyaga ishchilar sinfning qashshoqligi uning manfaatlariga qarama-qarshi deb tushinadi va hatto foya kamaygan holda ham ish haqi o'sishi mumkinligini ko'rsatib berdi.

Qiymatining mehnat nazariyasidan kelib chiqib, foyda yollanma ishchilar mehnatiga to'lanmagan mahsulotdir, degan xulosaga keldi. Adam Smit qo'shimcha qiymat yangi paydo bo'lgan qiymat bilan ish haqining farqi ayirmasidir; ishchiga u hosil qilgan tovarning bir qismi tegadi xolos. Qolgan qismini kapitalist foyda sifatida o'zlashtiradi. Smit qo'shimcha qiymatga ilmiy izoh bera olmadi va uning paydo bo'lish mexanizmini tushunmadi. U foyda barcha avislangan kapital tufayli tug'iladi deb o'yADI. Agar qo'shimcha qiymat to'lanmagan mehnat mahsuli bo'lsa, u kapitalga proporsional bo'la olmaydi. Smit burjuaziyani progressiv ilg'or sinf deb hisoblaydi. Chunki u kapital jamg'armasiga ishlab chiqarishni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. U, yirik yer egaligini qo'llab-quvvatlamagan, yer egasi-yer egasining daromadini foyda kabi ishchining mehnat mahsulotidan chegirilgan qismi deb tushiniladi. Smit rentani ijara haqidan ajratgan va rentaning yerni yaxshilash uchun sarflangan kapitalga aloqasi yo'q deydi, chupki bu yaxshilashni ko'pincha ijarachi qoplaydi. Ammo ijara shartnomasi yangilanganda yer egasi rentani oshiradi. Yerni yaxshilash go'yoki uning hisobiga amalga oshirilgan bo'ladi.

Iqtisodiy voqelikni o'rganish masalasiga ikkilanib yondoshganligi tufayli A.Smit yaratgan nazariyalari ikki tomonlama mazmunga ega:

A.Smit birinchidan, iqtisodiy voqelikning ichki bog'lanish jarayonlarini ilmiy asosda sinchiklab o'rganishga intilsa, ikkinchidan iqtisodiy voqelikning kapitalistik jamiyatdagi tashqi ko'rinishlarini bayon qilgan xolos. L.Smit ka-pitalistik jamiyatda har qanday tovarning qiymati ish haqi, foyda va rentadan tarkib topadi, deb tovar ishlab chiqarish uchun sarf qilingan ishlab chiqarish vo-sitalarining qiymatini hisobga olmagan.

4. David Rikardo sanoat to'ntarilishi davrining iqtisodchisi va uning asosiy iqtisodiy ta'limoti

David Rikardo sanoat to'ntarilish davrining klassik iqtisodiy maktabining asoschilaridan biridir.

David Rikardo 1772 yil aprelda London shahrida tug'ildi. Ingliz siyosiy iqtisodchisi, sanoat burjuaziyasi ideologи. Boy burjua oilasidan chiqqan. Dastlab (1793-1812 yilda) kommersiya ishlari bilan keyichalak esa ilmiy ishlar b alan shuguliangan. Rikar-doaning ilmiy ishlari ingliz klassik satufaylisiy iqtisodpning yuqori chukiysi hisoblanadi. Asosiy asari "Siesiy iktasod va soliq solishning boshlanishi" dir.

U A.Smitining mehnat qiymati nazariyasshi rad etda va tovar qiymatini yagona manban ishchining mehnati bo'lib, burjua jamiyata turli sinflarning da-romadlari ish haqi, foyda, foiz, rentalar shu tovar qiymatiga asoslanadi deb isbot qildi. Garchi Rikardo foydaning vujudga kelishini qiymat qonuni nuqtai nazaridan tushuntirib bera olmagan bo'lsada, kapitalistining foydasi ishchi mehnatining haq to'lanmagan qismi ekanligi deb bildi. Ishchnning ish haqi bilan kapitalist foydasi

o'rtasidagi teskari proporsional bog'liqlikni ko'rsatib, haqiqatda proletariat bilan burjuaziyaning iqtisodiy manfaatlari bir-biriga zid dedi. Biroq, Rikardo kapitalizmni yagona va tabiiy tuzim deb unga iqtisodiy qonunlarni umumiy va abadiy deb hisobladi.

K. Marks Rikardo nazariyasining ijobiy tomonlariga yuqori baho berdi va o'z iqtisodiy ta'lomitini yaratishda undan manbaa sifatida foydalandi.

D. Rikardo siyosiy iqtisod predmetini moddiy ne'matlarning taqsimot sohasini o'rganishdir, deydi. Rikardo yer rentasini tahlil qilishda muhim yutuqlarga erishdi. U renta nazariyasini qiymatining mehnat nazariyasiga asoslanib tekshirdi. Rentaning manbai yerning qandaydir saxiyligi emas, balki ma'lum mulkiy munosabatlar sharoitida yerga qilinadigan mehnatdir, deb hisobladi. Yer resurslari cheklangan bo'lib, unumdorligi va joylashuvi turlicha bo'lgan yerlar ishlashi tufayli qishloq xo'jaligi mahsulotlarining qiymati yomon uchastkalardagi mehnat sarflari bilan aniqlanadi. Bunday yerlar sohibkorga o'rtacha foyda beradi va renta bermaydi. Nisbatan yaxshi yerlarda foyda o'rtacha normadan yuqori bo'ladi, ana shu ortiqcha foyda renta sifatida yer egasi tomonidan olanadi. Yomonroq yerlar xo'jalik faoliyatiga jalb etilishi orqali yer egalarining oladigan rentasi o'z-o'zidan ortadi, vaholanki ular biror ish qilmaydi, sarf-xarajat ham qilmaydi.

Rikardo bu yerda differentsiyal renta hosil bo'lishini ko'rsatib berdi. U xususiy mulkchilik sharoitida yomon yerlar ham ma'lum renta keltirilishi mumkinligini inkor etdi. Lekin shunday renta bor, u absalyut renta bo'lib, uni Marks va boshqa olimlar atroflicha o'rganganlar.

Rikardo pul va pul muomalasi masalalariga katta e'tibor qildi. U dastlabki asarlarida pulni ichki qiymatga ega bo'lgan tovar deb qaragan. Pul qiymati unga sarf qilingan mehnat bilan boshqa tovarlarning qiymat o'lchovi va muomala vositasi sifatida harakat qiladi, deydi. U qog'oz pullarning miqdorini muomalada bo'lgan tovar massasi qiymatiga mos bo'lishi kerak, ortiqchasi bank tomonidan iste'moldan chiqarilishi zarur deydi.

Ammo u o'zining boshqa asarida bu konsepsiyadan cheklanadi, avval pullarning ichki qiymati bor deb gapirgan bo'lsa, keyniroq u pulni texnik vosita deb izohladi va pulning miqdoriy nazariyasini ishlab chiqqa boshladи. Uning fikricha, muomaladagi pulning miqdori turlicha va erkin bo'lishi mumkin, pulning qiymati esa muomala sohasida belgilanadi va uning miqdoriga bog'liq bo'ladi. Rikardo erkin savdo tarafdoi bo'lgan, u merkantilistlardan farqli ravishda tovar ishlab chiqarish, tovar mamlakatga kiritishdan ortiq, ya'ni eksport kam va import ko'p bo'lishidan, mamlakatdan oltin chiqib ketishidan xavfsirashga xojat yo'q deydi, chunki erkin import avtomatik ravishda oltin muomalasi va baho o'zgarishini tartibga soladi, shuning uchun iqtisodiy tanglik ta'minlanishiga yordam berishiga Rikardoning ishonchi komil edi.

D.Rikardo tashqi iqtisodiy aloqalari iqtisodiyotda katta rol o'ynashini alohida o'rgandi. U birinchilardan bo'lib ayrim tovarlarni ishlab chiqarishdangina emas, balki mamlakatlar o'rtasida ham xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvining foydaliliginini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Bunda

nisbiy ustun-lik prinsipi mavjudligini ishlab chiqdi. Bu prinsipga ko'ra, ayrim mamlakatlar ma'lum tovarlarni ishlab chiqarishda ayrim qulayliklarga ega bo'ladi va kam xarajat sarf bo'ladi. Ma'lum tovarlarni ishlab chiqarish bu mamlakat uchun boshqa mamlakatdagilarga nisbatan qulayroq bo'lishi mumkin. Ixtisoslashuv hatto qoloq davlat uchun ham qulayroq bo'ladi, masalan , O'zbekiston uchun paxta, Braziliya uchun kofe kabi.

Erkin savdo ingliz burjuaziyasi manfaatlariiga mos bo'lsa ham, u paytda bu g'oya prinsipial jihatdan ham progressiv edi.

A.Smit va D.Rikardo Angliya klassik iqtisodiyotining eng buyuk va eng so'nggi namoyondalari edilar, ularning g'oyalari Sey, Sismondi va qisman Maltus tomonidan davom ettirildi, ammo bu g'oyalarga katta biror yangilik kiritilmadi.

Agar klassik maktab g'oyalari Angliya va Fransiyada qo'llab-quvattlanib progressiv rol o'yagan bo'lsa, feodal munosabatlari hali ustun, kapitalistik rivoj-lanish endigina rivojlanayotgan davlatlarda bu g'oya ta'siri tobora ortib bordi (Germaniya, Avstriya, Italiya va Rossiya).

Ma'lumotlarga ko'ra, Ispaniyada Smitning kitobi dastlab inkvizitsiya tomonidan taqiqlangan. Germaniyada esa reaksiyon professorlar uni tan olishni istashmagan. Shunga qaramasdan, ularning asarlarida klassik maktab eng yuqori cho'qqiga ko'larildi va jahon iqtisodiy tafakkuriga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi. Undan keynigi iqtisotchilar ilmiy bo'limgan apologetik maqsadlarni qo'ydilar.

Klassik iqtisodiyotning poydevori qiymatining mehnat nazariyasini asosida qurilgan. Bu ta'limot daromadlarni taqsimlash nazariyasiga ham asos deb qaral-gan. Bu maktab birnichi marta, o'sha davrdagi ilg'or burjua jamiyatining sinfiy tuzilishini to'g'ri yoritib berdi. Kapitalistlar va yer egalari daromadlari manbalari yollanma ishchilarning ekspluatatsiya qilish ekan deb, tushindilar A.Smit bozor iqtisodiyotini amal qilish tamoyillarini quyidagilardan iborat edi;

1. Tanlov va tadbirkorlik erkinligi;
2. Baholarning erkinligi ;
3. Erkin raqobat
4. Mulk shakllarining turli tumanligi
5. Davlatining imkonlari boricha iqtisodiyot masalalariga kam aralashuvi.

Bu tamoyillar nazariy jihatdan buyuk kashfiyot edi va muhimi yangi jami-yatining iqtisodiy siyosatida keng qo'llanilib samarali natijalar berdi. Klassik maktab vakillari erkin bozor munosabatlariga ijobjiy munosabatda bo'ldilar.

Yangi jamiyatining progressiv tomonlari bilan birga bozor iqtisodiyotining bekamu – ko'st emasligi, uning bir qancha jiddiy kamchiliklari borligi qayd etilgan. Bir so'z bilan aytganda, klassik iqtisodiy ta'limot hozirgi zamon iqtiso-diyotining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tayanch iboralar.

Klassik iqtisodiy maktab. Mehnatining qiymat nazariyasi. Xalqlar boyligi Smitcha qiymat nazariyasi. Renta nazariyasi. Daromadlar taqsimoti. Ko'zga ko'rin-mas qo'l iborasi.

Takrorlash uchun savollar

1. U.Pettini nima uchun dastlabki iqtisodiy maktabiing asoschilaridan biri deymiz?
2. U.Pettining qaysi asarlarida iqtisodiy g'oyalarini ko'ramiz?
3. U.Pettining mehnatining qiymat nazariyasi to'g'risida nima deya olasiz?
4. A. Smit «Xalqlar boyligi» asarida qanday iqtisodiy g'oyalar keltirilgan?
5. A. Smitining ko'zga ko'rнимас qo'l, iqtisodiy odam iboralarini izohlab bering.
6. D.Rikardoning mehnatining qiymat nazariyasi U.Petti, A.Smit nazariyalaridan farqini ko'rsatnig.
7. D. Rikardoning tashqi iqtisodly aloqalarga munosabatini aytib bernig.

7-MAVZU: XAYOLIY SOTSIALIZMNING VUJUDGA KELISHI VA EVOLYUTSIYASI.

Reja:

- 1. O'rta arslarda G'arbiy Yevropada sotsial utopistlar T Mor, T Kompanallaning sotsial utopiyalari .**
- 2. XIX asrning boshlarida xayoliy sotsializmning vujudga kelishining tarixiy shart - sharoitlari va uning xususiyatlari. Sey. Simonning tarixiy konsepsiysi.**
- 3. Sharl Furenning utopik sotsializm. Fure kapitalizm tanqidchisi sifatida.**
- 4. Angliya xayoliy sotsializmning xususiyatlari. R . Ouen va uning amaliy faoliyati**

1. O'rta arslarda G'arbiy Yevropada sotsial utopistlar T Mor, T Kompanallaning sotsial utopiyalari .

Kapitalizm taraqqiyoti dehqonlarning ommaviy ravishda xonavayron bo'lislari jarayonida o'tdi, ekspluatasiyani kuchaytirdi, xalq ommasi dehqonlar, hunarmandlarning ekspluatatorlar zulmiga qarshi bir necha bor quroliy chiqish-larga sabab bo'ldi. Hal etilmagan sinfning bu revolyutsion quroliy ko'zg'alonlari bilan birgalikda ularga muvofiq va munosib nazariyalar ham vujudga keldi. XVI va XVII asrlarda utopik tasavvurlar ana shunday nazariyalardir, degan edi Engels. Kapitalizm endi paydo bo'layotgan davrda ilg'or mutafakkirlar dunyoga keldilarki, ular o'z asarlarida quyi tabaqaga mansub xalq ommasining kayfiyatini va orzu umidlarini aks ettirib, g'ira-shira bo'lsa ham uzoq keljakni oldindan ko'ra oldilar.

Utopik sotsializmning ilk namoyondalaridan biri ingliz T.Mor va Italiyalik Tommazo Kompanella edi.

Tomas Mor ko'zga ko'ringan ingliz davlat arbobi va o'sha davrdagi eng o'qimishli kishilardan biri edi. U ingliz qirollarining zulmiga qarshi chiqqan, cherkov siyosati ustida qirol bilan kelisha olmagani uchun istefo berishga majbur bo'ldi, qamoqka tashlanib qatl etildi. 1516 yilda Tomas Mor "Eng yaxshi davlat tizimi va yangi utopiya oroli to'g'risida qay darajada foydali bo'lsa, shu darajada qiziqarli "Oltin kitob " nomli asarini nashr ettirdi. Utopiya grekcha so'z bo'lib, "Yo'q joy " degan ma'noni bildiradi.

Utopik sotsializm ham ana shu so'zdan kelib chiqqan bo'lib, u sotsial teng-likka erishilgan hamda boy va kambag'allar bo'lmaydigan ijtimoiy tuzim haqidagi orzu xayollarni ifodalovchi so'z ma'nosida eshitiladi.

Tomas Morning ushbu kitobi ikki qismidan iborat bo'lib, birinchi qismida mayda ishlab chiqaruvchilarni ommaviy ravishda xonavayron qilgan o'sha davrdagi ingliz tartibotlari tanqid qilinadi. U o'g'rilik gadoylik qilgani uchun qattiq jazo berilishini qoralaydi va bunday jinoyatlar yashash vositalaridan mahrum etilgan kishilar tushib qolgan daxshatli sharoit natijasidir deb takidladi. Davlat deydi Tomas Mor boylarning oddiy xalqni ezish uchun til biriktirishidir.

O'sha davrda Angliyada jun gazlamalar ishlab chiqarilishi rivojlanishi bilan ijarchilar yerdan haydalib, haydaladigan yerlarii qo'y boqish uchun yaylov larga aylantirish jarayonini tasvirlab, Tomas Mor "Qo'ylar odamlarni yedi" degan hikmatli so'zlarni aytgan edi.

Binobarin, T. Mor jamiyat quyi tabaqalari aholini tasvirlash ularga xayri-xohlik bildirish, ekspluatatorlarni qoralash bilangina cheklanmay sotsial ofatlarning sababi to'g'risidagi masalani ham qo'yadi. Mor buning sababi xususiy mulkchilik ekan degan xulosaga keladi. U qayerda xususiy mulkchilik mavjud ekan, davlat ishlarining biron paytda to'g'ri va muvofaqqiyatli bo'lishi amrima-hol, "Xususiy" mulkchilikning butunlay yo'q qilganligi bilangina kishilar faoliyatida baxt saodatga erishishi mumkin" degan edi.

T Mor o'z kitobining ikkinchi qismida go'yo "Utopiya" orolida amalga oshirilayotgan ideal ijtimoiy tuzumni tasvirlaydi. Bu jamiyatda ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilik yo'q. Hamma fuqarolar majburiy tartibda ijtimoiy foydali mehnat qiladilar. Har bir oila ayrim bir hunar bilan shug'ullanadi. 40 yoshgacha bo'lgan hamma fuqarolar mehnat majburiyatini o'tish yo'lida har biri 40 kishidan iborat bo'lgan artellarga birlashib, dehqochilik bilan shug'ullanadilar. Har bir fuqaro qishloqda ikki yil ishlab berishga majbur. Uning shug'ullanadigan mehnati ayrim bir hunar bo'lib, unga barcha erkak va xotin-qizlar o'rnatiladi. Ish ko'pi faqat 6 soat davom etadi. Shunga qaramay jamiyat a'zolaridan hammasi farovon turmush kechiradi. T.Morning fikricha bunday farovonlikka jamiyatdagi mehnatga yaroqli barcha kishilarni mehnatga jalg qilish hamda ehtiyojni qisqartirish hisobiga erishiladi. Utopiya orolida hech qanday ortiqcha narsalarga va ayrim ziynatlarga yo'l qo'yilmaydi, hamma bir xil bo'zdan tikilgan oddiy kiyim kiyadi.

Jamiyat shunday tashkil qilninganligi uchun "Utopiya" orolida pul na oltin kumushlarga ehtiyoj yo'q.

TOMMAZA KAMPANELLA : Italiyalik monax T. Kampanella ham utopik sotsializmning dastlabki targ'ibotchilardan biri edi. U o'zninig erkin fikrlari uchun bir necha marta cherkov sudida sud qilindi. Kampanella otashin vatanparvar bo'lib, 1599 yilda Ispanlar hukmronligiga qarshi qo'zgolonga boshchilik qildi.

- Buning uchun Kampanella qamaldi va 27 yil qamoqda yotdi. Ammo qiyashlar, qamoq mutafakkirning, irodasini buka olmadi. Kompanella qamoqda 1602 yilda o'zining "Quyosh shahri" utopiyasini yozdi. Kampanella o'z davridagi jamiyatni tanqid qilishga T.Morga qaraganda kamroq e'tibor beradi. Bunday tanqid kitobdag'i ideal jamiyat tasviriga singib ketgan, lekin Kampanella ham bunday ideal ja-miyatga erishish yo'llarini bilmaydi.

Kompanella tasvirlagan ideal jamiyat "Quyosh shahri" da xususiy mulkchilik va shaxsiy degan narsa bekor qilingan.

"Quyosh shahri "asari "Utopiya oroli»dan 100 yil keyin yozgan bo'lib, bu davr mobaynida texnika bir muncha taraqqiy etgan. Shuning uchun Kampanella mehnatni yengillashtirilishi va mehnat unumdorligini oshirish uchun-texnika sohasidagi yutuqlar ahamiyatli bo'lishiga e'tibor berdi.

Masalan «Quyosh shahri»da dala ishlarini yengillashtirish uchuy yelkanli o'rnatilgan va shamol bilan harakat qila oladigan maxsus pluglar ishlatiladi, Kampanella texnika yutuqlarini joriy qilish hisobida ish kunini 4 soatga yyetkazish mumkin deb o'laydi. Tomas Morning utopiyasi Kampanellaning utopiyasidan farqi shuki, Kampanellaning utopiyasida fan-texnika taraqqiyoti ilgari suriladi.

2. XIX asrning boshlarida xayoliy sotsializmning vujudga kelishining tarixiy shart sharoitlari va uning xususiyatlari. Sen. Simonning tarixiy konsepsiysi.

XVIII- asrda utopik sotsializm yanada rivojlandi va yangi iqtisodiy utopia ilgari surildi. Bu davrning uyupik sotsializmining vakillari: Sen Simon, Sharl Fure, R.Ouenlardir.

Sen Simon Klad Anri. Fransuz mutafakkiri, sotsiolog, sotsiologist -utopist. D.Alamber rahbarligida bilim olgan Shimoliy Amerika xalqlarining ozodlik kurashida ko'ngilli bo'lib qatnashgan. Fransuz burjua revolyutsiyasi davrida yakobinchilarga yaqin bo'lgan, keyinchalik ulardan uzoqlashgan.

Sen.Simon fikricha, tarixiy yaraqqiyot quyi ijtimoiy formasiyadan yuqori ijtimoiy formatsiyaning fazasini texnologik davr deydi. (Dinning hukmronlik davri bu davr quidorlik va feodal jamiyatlarini o'z ichiga oladi). Mutafakkirlar feudal va diniy sistemalarining yemirilishi davri va pozitiv fazani kelajakdagi ijtimoiy tuzim bosib o'tadi. Fransuz burjua revolyutsiyasi 111 fazaga o'tishdagi qonuniy urinishdir. Sen-Simon burjua revolyutsiyasi mag'lubiyatini o'zining "ilmiy" sotsiologik sistemasi yordami bilan "Kuzatishini o'yladi. Sen-Simon tasavvur qilgan yangi jamiyat oqilona tuzilgan bo'lib, "Sanoat sistemasi"ga, ya'ni ilmiy va rejali tashkil etilgan yirik sanoatga asoslanadi. Unda hamma bir-biriga teng bo'lishi, hammaning mehnat qilish huquqi ta'minlanmog'i kerak; har-bir kishi qobiliyatiga yarasha ishlaydi, moddiy boylik mehnatga qarab taqsimlanadi, ishlab chiqarish bilan fanning birligi ta'minlanadi. Biroq, bu jamiyatda xususiy mulk va sinflar saqlanib qolib yirik sanoatchilar va olimlar hukmronlik qiladi.

Sen-Simon boshqa Utopik sotsialistlardan farqli ravishda yangi jamiyat tuzilganini tarixiy jarayon bilan bog'lashga harakat qilgan. Davri boshqa Utopistlar singari tarixiy yo'naltiruvchi kuchning mohiyatini yangi jamiyatni yaratuvchi proletariatining va eski jamiyatni qayta qurish vositasi bo'lgan revolyutsiyaning tarixiy rolini tushunmagan. U o'zining pozitiv filosofiyasini

targ'ib qilish bilangina kishilarni hayotini oqilona tashkil etishga bog'lardi. Sen-Simon Fransiya, Germaniya, Italiya, Rossiya mamlakatlarida ilg'or ijtimoiy tafakkur va sotsiolistik g'oyalarning rivojlanishida katta ta'sir ko'rsatadi.

3. Sharl Furening utopik sotsializm. Fure kapitalizm tanqidchisi sifatida.

Fure Fransua Mari Sharl Fransuz mutafakkiri Utopik sotsializm vakili. Dunyoqarashi 1789-94 yilgi revolyutsiya hamda Fransuz materialistlarining ta'sirida shakllandı. Fure ekspluatatsiyaga asoslangan kapitalistik sivilizatsiyani qattiq qoralab o'zining xayoliy ijtimoiy tuzimini ilgari surdi. Uning tasvirlashicha inson o'zi yashayotgan jamiyatining barcha yaramas illatlaridan tozalanilishi lozim, shunday ijtimoiy tuzim yaratish kerakki, bu tuzim insonning kamol topishga, ehtiyojlarini qondirishga imkoniyat berish. Kelajak jamiyatining asosiy yachevkasi bir necha ishlab chiqarish jamoalaridan iboratdir. Jamoaning har bir azosi mehnat qilish huquqiga ega bo'lib, mehnat zavq bag'ishlashi kishilarning ehtiyojlariga aylanishi kerak. Shunday jamiyatdagina yuqori ishlab chiqarishi darajasiga erishiladi, moddiy farovonlik ta'minlanadi. Fure sotsialistik g'oyalarni keng targ'ib qilish ma'rifatparvarlik yo'li bilan o'z maqsadiga erishmoqchi bo'ldi, boshqa utopik sotsialistlarga ta'sir ko'rsatgan. Asosiy asarlari "To'g'ri harakat va mushtarak taqdirlar nazariyasi", "Umumiy birlik nazariyasi", "Yangi sanoat dunyosi va ijtemoiy dunyo".

4. Angliya xayoliy sotsializmning xususiyatlari. P. Ouen va uning amaliy faoliyati.

XVIII –asr utopik sotsializm namoyondalaridan biri Robert Ouen edi. Angliya sanoat to'ntarishi amalga oshirgan birinchi mamlakat bo'lib, kapitalizm u yerda tez va dadillik bilan rivojlandi. Angliya xayoliy sotsializmning o'ziga xos xususiyatlarini belgilab berdi. U xususiy mulkchilikning barcha ko'rinishlarini inkor etib, siyosiy iqtisodni ploretariat manfaatlariga xizmat qildirishga harakat qildi, kommunistik jamoalar tashkil etish tajribalarini qo'llash va nihoyat tinch yo'l bilan yangi "odil jamiyat" ni qurish immkoniyatlarini isbotlashga urinish bu maktabga xosdir. Angliya xayoliy sotsializmni vujudga kelishi va rivojlanishi Robert Ouenning (1771- 1858 y.) hayoti va ijodiy faoliyati bilan bog'liqdir. Ouen 1800 yildan boshlab Nyu-Lepark (shotlandiya)dagи yigiruv korxonasidaboshqaruvchi bo'lган, o'sha yillarda unda insonni qutqarishni maqsad qilgan islohotchilik g'oyalari shakllandı. R.Ouenning "Jamiyatga yangicha qarash yoki xarakterni shkllantirish haqida tajribalar", "Yangi axloqiy dunyo kitobi", "Adolatli almashuv bozori", "Ulug' milliy hunar ittifoqi" kabi asarlarida uning sotsialistik loyihalari bayon etilgandir. U kapitalistik jamiyatni tanqid qilib, barcha mulkni umumxalq mulkiga aylantiradigan, qashshoqlik yo'qoladigan, mehnat jafo-zulmdan baxt-saodatga aylantiradigan kommunistik jamoalar tuzimifikriga keldi. Shu maqsadda xalaqit beradigan uchta to'siq bor deydi u. Bu uchta illat xususiy mulk, din va burjuacha nikohdir. Biroq olim kapitalistik taraqqiyotni ob'yektiv qonunlarini tushunmadı, sinflar kurashini inkor etdi. Yangi tuzum tinch yo'l bilan quriladi va unga tinch yo'l bilan o'tiladi deb ishondi. R. Ouening loyiha va ijtimoiy dasturlari fransuz xayoliy

sotsialistlarinikidan farq qilib ancha aniq va amaliyligi bilan ajralib turadi. U ishchilar mehnatini yengillashtiradigan, yoshlar va qariyalar mehnatidan tungi ish vaqtida foydalanishni man etgan, rag'batlantirishni tashkil etgan. R. Ouening iqtisodiy qarashlarining xarakterli xususiyati shundan iboratki, u burjua siyosiy iqtisodiyoti inkor etgan fransuz xayoliy sotsialistlaridan farq qilib, o'quv nazariyalarini yaratishda Rikardodan keyin qiymatning asosiy manbai deb mehnatni hisobladi. Xususiy mulk bilan bir qatorda mehnat bilan kapital o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning sababchisi pul deb hisobladi. R. Ouen qiymatning sun'iy o'lchovi bo'lmish puldan voz kechib mehnat xarajatlarining ekvivalenti sifatida "ishchi pullar" ni joriy etishni taklif etadi. U kapitalistik ishlab chiqarishni qaytadan tuzib "ishlab chiqarish uyushmalarini" tashkil etishga harakat qildi. Lekin bu urinishlar behuda bo'lib chiqdi. Chunki kapitalistlar o'z korxonalarini ixtiyoriy sotish haqida o'ylamagan bo'lsalar, kasaba uyushmalari sotib olish uchun imkoniyatlari yo'q edi. R. Ouen birinchilardan bo'lib T.Maltusning "aholi nufus" qonuniga qarshi chiqdi. U mehnatkashlarning og'ir ahvoliga tushib qolishiga aholi soni ortib borishi emas, balki mavud mahsulotlarningadolatsiz taqsimlanishi sabab bo'lmoqdadeb ko'rsatdi.

Xayoliy sotsialistlar kapitalistik tuzumni keskin tanqid qilganliklari ularning nihoyat g'oyaviy rivojidagi muhim, katta xizmatlaridir.

Tayanch iboralar.

Tomas Mor konsepsiyalari: qo'ylar odamlarni yedi iborasi. Utopiya oroli. T. Komanellaning "Quyosh shahri" asari. Sotsial Utopiyasi. Texnika taraqqiyotiga bog'liqligi. Sotsial tenglashtirish. Sen Simonning utopik sotsial mehnat koloniyalari kapitalizm yangi indo'strial tizim loyihasi Sharl Furye "Utopiya" asari: Bo'lajak utopiya haqidagi ta'limot. R. Ouenning jamiyatni o'zgartirish rejasি amaliy faoliyati. Mehnat pullari va adolatni ayirboshlash loyihasi.

Takrorlash uchun savollar

1. Dastlabki xayoliy sotsializm shakllanishining va vujudga kelishining sabablari nimada?
2. Tomas Mor nima uchun "qo'ylar odamlarni yedi" iborasini ishlardi?
3. T.Morning "Utopiya oroli" asari qachon qanday sharoitda yozilgan?
4. "Utopiya oroli" kitobi necha qismidan iborat va ularda nimalar tasvirlanadi?
5. Tommaza Komanella kim?
6. Tommaza Komanellaning ideal adolatli davlatni tasvirlovchi qanday asarni bilasiz?
7. T. Komanellaning "Quyosh shahri" asarida adolatli jamiyat qanday tarzda qo'pol ravishda sotsial tenglik tsvirlangan?
8. XIX – asr Utopik sotsializmning vakillaridan kimlarni ayta olasiz?

9. Sen Simon Utopiyasining asosiy g'oyalari qanday tasvirlanadi?
10. Sharl Furyeni nima uchun kapitalizmning tanqidchisi deymiz?
11. R. Ouen jamoyati o'zgarish rejasini amaliyotda qanday qo'lladi?

8-MAVZU: MAYDA BURJUACHA IQTISODIY NAZARIYALARING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHI.

Reja:

- 1. Sismondi mayda burjua tanqidchisi va klassik siyosiy iqtisod namoyondasi sifatida.**
- 2. P.J. Prudon tomonisdan kapitalistik munosabatklarni tanqid qilinishining mayday burjuacha xarakteri**
- 3. K. Robertning iqtisodiy konsepsiyalari.**

1. Sismondi mayda burjua tanqidchisi va klassik siyosiy iqtisod namoyondasi sifatida.

Jak Sharl Leonard de Sismondi (1773-1842) Shveysariyada tug'ilgan, klassik siyosiy iqtisodni nihoyasiga yetkazuvchi ayni vaqtda mayda siyosiy iqtisod asoschisi. U protestant oilasida tug'ilgan. Jeneva Universitetida o'qidi. Sismandi siyosiy iqtisod va tarixi bilan shug'ullandi va katta ishlar qildi va ilmiy meros qoldirdi uning asosiy iqtisodga oid asarlari:

«Toskana qishloq xo'jaligining ko'rinishi» (1801 yil), "Savdo boyligini siyosiy iqtisod prinsiplari va uni savdo qonunchiligidagi qo'llashi to'g'risida» (1 803yil), "Siyosiy iqtisod" maqolasini yozdi.

"Siyosiy iqtisodning yangi ibtidolari yoki boylikdan nufuziga munosabati to'g'risida" (1819 yil). Kitoblariinig nashr qilinish uning shuhratini yanada oshirdi. Keyningi yillarda "Siyosiy iqtisoddan ibtidolar" va xo'jalik asarini (1837 yil) yozdi. Sismandi g'oyalari sanoat to'ntarish ishlari bilan shuningdek, mayda ishlab chiqaruvchilar bilan bog'liq bo'lib, Sismandi mayda ishlab chiqaruvchilar pozitsiyalarida turib, kapitalizmni tanqid qilib, mayda tovar ishlab chiqarishga qaytishni orzu qildi.

Uning qarashlari rivojida ikki bosqich ko'zga tashlanadi. Avval boshida S. Sismandi A. Smit ta'limotining klassik sinfning tarofdori bo'lib chiqdi. U o'zining dastlabki asarlaridan biri "Savdo boyligi to'g'risidagi" kitobida (1803yil) sanoat to'ntarishini ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va imkoniyatlarini yuksak baholadi.

Sismondi Angliyada ikkinchi marta kelgandan keyin kapitalizmning klassik maktabii qattiq tanqid qildi. "Siyosiy iqtisoddan yangi ibtidolari yoki boylikning aholi nufuziga munosabatlari" (1819yil) kitobi uning shuhratini oshirdi.

Bunda odamlar baxt va tenglikni ta'minlash uchun birlashadilar, degan fikrga asoslangan. U mayda ishlab chiqaruvchilarni ko'kka ko'tarib maqtadi, mehnatkashlarning manfaatlarini himoya qilishga intildi. Odamlarga hamdardlik bildirdi, fabrikaga oid qonunlarni, tabriklaydi bolalar mehnati eksiduatatsiyasini qoralaydi. Kapitalizmni ijtimoiy adolatdan mahrum jamiyat deb qoralaydi. Sismondi iqtisodiy ta'limotida daromadlar nazariyasi alohida o'rinn tutdi.

Taqsimot, kapital, krizislar mahsulotlarni realizatsiya masalalarini tadqiq etadi.

Adam Smit ta'limotidagi mehnat qiymati va boylikning birdan-bir manbai tahlil qilingan edi. U zarur ish vaqt tushunchasini birinchi bo'lib tadqiq qildi. Sismondi pul ichki qiymatga ega bo'lgan mehnat mahsulotidir va u shu sababli qiymatining umumiyo mezoni sifatida namoyon bo'ladi degan xulosaga keladi.

Pulning qadrsizlanishini puldan haddan tashqari ortiqcha ishlatishning natijasi deb talqin qiladi. Ammo u pulning vujudga kelish jarayonini, vazifasini tadqiq etmaydi. Sismondi iste'mol qiymat va qiymat o'rtasidagi ziddiyatni ko'ra bilgan bo'lsa ham, ammo unning mohiyatini tushunib yetmaydi. U qiymatining chetga chiqishini qiymat qonunining buzilishi deb hisoblanadi.

Sismondi uslubiyotida:

- 1) Ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarni sub'yekti idealistik talqin etish;
- 2) Ilmiy abstraktsiya usulining yo'qligi;
- 3) Tarixdan tashqari yondashuv;
- 4) Ayirboshlash konstitutsiyasi xosdir;

Sismondi iqtisodiyot qonunlarining ob'yektiv xarakteristikalarini tan olmadi. U kapitalistik iqtisodiyot notekis rivojlanish ko'rsatilgan bo'lsa ham bu narsa iqtisodiy qonun amal qilishining o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishini bilmadi.

Sismoidi insonni unutib abstraktsiyaga berilgan Smit va uning tarafdarlarini qattiq tanqid qiladi.

U kapitalizm ko'p mamlakatlarga amal qila boshlaganiga qaramay rivojlanishdan voz kechish mumkinligini isbotlash mumkin bo'ladi. U iste'mol ishlab chiqarishdan ustun degan fikrga asoslandi. U iste'molni shaxsiy iste'moldan iborat deb bildi.

Sismondi kapitalpzmni antoganistik jamiyat deb bildi va shu bilan klassik burjua maktabi namoyondalardan ilgarilab ketdi. U kapitalizmning o'ziga xos xususiyatlarini boylikning kam sonli kishilar qo'lida to'planishi va ko'pchilik mehnatkash aholi chor-nochor kun kechirishini jamiyat bilan xususiy sohibkorning manfaatda bir-biriga mos emasligini, qishloq xo'jaligining savdo va sanoatdan orqada qolayotganligini ko'rsatdi. Sismondi burjuaziya boylikning ko'payishi bosh vazifa deb va iqtisodiy taraqqiyot mezoni deb hisoblashdan voz kechdi. "Kapitalizmning ziddiyatlari" masalasini birinchi bo'lib maydonga tanladi va shunday qilib tahlilni yana davom ettirish vazifasini qo'ydi.

Klassik maktabga qarama-qarshi o'laroq mayda tovar ishlab chiqaruvchilarining xonavayron bo'layoganini "Ortiqcha" aholi paydo bo'layotganining mashinalar ishlab chiqaruvchilarini siqib chiqarayotganini ko'rsatdi, biroq kapitalizm ziddiyatlarishning asl sababini payqay olmadi.

Sismondi klassik manbadan krizislar bo'lishi mumkin emas va kapitalizm ziddiyatlari nimaligini bilmaydi degan mulohazalarii tanqid qildi. U ning xizmati ham muddati bilan birga Sismondi kapitalizmning ilg'or mazmunini, ustunligini kapitalistik tizimning imkoniyatlarini mayda

burjuaziya nuqtai nazaridan baho berdi. U kapitalizmni tartibga solib mayda hunarmandlar sexini tuzish tarzda orqaga qaytish ehtimoli bor, deganda unda mayda romantizm paydo bo'ladi.

Millionlab daromad va kapital Sismondining iqtisodiy qarashlarida yetakchi o'rin tutadi. U o'zining "Siyosiy iqtisod yangi ibtidolari" asaridan dastlabki uch bobini ana shu muammoga bag'ishlaydi. Smitdan keyin Sismondi daromadlarning 3 turini: foyda, renta va ish haqini alohida ajratib ko'rsatadi.

Dastlabki ishlar turini umumlashtirib qiymat tushunchasidan foydalanadi. Ularni ishi mahsulotining chegirmasi deb hisoblanadi. Biroq, shu taqiqa

Sismondi qo'shimcha qiymat nazariyasini maydonga tashladi.

U ish haqini ishchi mahsulotidan jami qiymatiga teng deb naminal dastlabki yaratish uchun ularga beriladigan mukofot deyiladi.

U milliy daromad va yangi milliy mahsulot deb atadi. Uni Sismondi ko'ra boshladi va uni ikkiga ajrata olmadi.

Kapital deganda, ishlab chiqarish zapaslari (ishlab chiqarish vositaiarini) tushundi. U kapital jamg'arilishini tejamkorlik deb ataydi.

Sismondi iqtisodiy krizislarni daromadlar o'rtasidagi nomuvofiqlik deb tushundi.

Bu asarda qo'shimcha qiymat nazariyasini tashkil qiladi. U siyosiy iqtisodga tarif berib, "umuman siyosiy iqtisod ma'naviy u odamlarining his tuyg'ulari, ehtiyojlari va ehtiroslarini o'rgatish kerak. Sismondinning fikricha "odamlarning moddiy farovonligi" inson tabiatini siyosiy iqtisod predmeti bo'lishi kerak, " odamlarning moddiy farovonligi" esa davlatga bog'liq. Sismondi siyosiy iqtisod predmetini davlatining iqtisodiy siyosati bilan ayni bir narsa deb bildi, uning sinflardan ustun turadigan fan deb talqin qildi. Ishlab chiqarish munosabatlarning iqtisodiyot qonunlarishi bilishining zarurligini inkor etdi, insonning fel-atvorini birinchi o'rniga qo'ydi.

2. P.J.. Prudon tomonidan kapitalistik munosobatlarni tanqid qilinishining mayda burjuacha xarakteri.

Per Jozef Prudon (1809 -1865) Fransuz publitsisti, mayda burjua iqtisodchisi.

Iqtisodiy ziddiyatlar sistemasi yoki qashshoqlik falsafasi 1846 yil. Kapitalizmni isloh qilishning programmasini tuzadi. Prudon avvalgi kapitalizmning tanqidchisi bo'lib maydonga chiqdi.

Prudonning nazariy qarashlariga xos xususiyatlari:

1. Sub'yektivizm va idealizm.
2. Iqtisodiy qonunlarning ob'yektivligini inkor etish.
3. Ekspektizm (fikrlar qorishmasi).

4. Mantiqiylikning tarixiylikdan ajralib qolishi.
5. Iqtisodiy kuchlar, mehnat taqsimoti, raqobat ayrboshlash, kredit, mulkchilik mavhum masalalarining mavjudligi.
6. Ayrboshlash nuqtai nazaridan adashish.

Prudon siyosiy shsgisodiy «Aql zakovatining abadiy qonunlari» to'g'risidagi fan deb ataydi. Prudon o'zining eng muhim asarlaridan biri "Iqtisodiy ziddiyatlar sistemasi" da avvalgi mehnat taqsimoti tahlil qiladi. Mehnat taqsimoti bir tomondan boylikning ko'payishiga imkon bersa, ikkinchi tomondan qashshoqlikka kambag'allikka olib boradi. Bu esa ikkinchi tomondan noto'g'ridir. Prudon tovarning xususiyatini ham mana shunday pozitsiyalardan turib tadqiq qiladi. Uning fikricha, qiymatining abadiy g'oyasi majud, bu g'oya iste'mol qiymati talab va kamchilik bilan, ayrboshlash qiymati asa taklif va mulkchilik bilan belgilanadi. Talab bilan taklif o'rtaсидаги kurashda tovarning qiymati va narxi belgilanadi.

Prudon ishchilarning ish haqini oshirish uchun kurashga chaqiradi. U kapital bilan mahsulotni aynan bir narsa deb talqin qiladi.

3.K. Roberdusning iqtisodiy kontsepsinsi

Yana bir mayda burjuacha iqtisodiy nazariyasining namoyondalaridan biri Karl Pagan Robertus Yagetsov (1805-1875)dir. Mayda burjuaziyaning manfaati-larini himoya qiluvchi bir qancha iqtisodiy asarlar yaratdi. Ulardan 1842 yilda "Davlat xo'jaligi yo'li tizimini bilish yo'lida" deb nomlangan asarini yozdi. U ning bu asarida qo'shimcha qiymat nazariyasini ko'rsatib beradi. U o'z fikrlarini yakunlab shunday deb yozadi. Agar ishlab chiqarish qancha yuqori bo'lsa, ishchining anashu uchun zarur vositalardan tashqari ko'pgina iste'mol buyumlarini yaratishi mumkindir. Bu yerga xususiy mulkchilik va kapital mavjud sharoitda renta holatiga aylanadi va mulk egalari tomonidan mehnatsiz o'zlashtiriladi. Boshqacha qilib aytganda, renta olishning assosiy usuli yerga xususiy mulkchilik va kapitaldir. Haqiqatda ham foyda va yer rentasini ishchilarga haq to'lamaslik samarasidir. Robertus o'zining yuqoridagi asaridagi qiymatining mehnat nazariyasini sodda ko'rinishida tahlil qildi. Qiymat ijtimoiy zaruriy mehnat bilan aniqlanmasdan, balki barcha mehnat xarajatlari bilan aniqlanib, bir xil mehnat xarajatlari har qanday ishlab chiqarishdan qat'iy nazar bir xil qiymat hosil qiladi deydi. Bundan tashqari mehnat doimo qiymat vujudga keltirilishi alohida takidlanadi. K. Robertus o'zining taqsimot nazariyasida klassik maktab vakillari yo'l qo'gan xatolarini takrorlaydi.

Robertusning taqsimot nazariyasi quyidagi tartibda tahlil qilinadi va uch bosqichdan iborat bo'ladi: 1-bosqichda K. Robertus ijtimoiy (milliy) mahsulotni ish haqi va rentaga bo'linishini ko'rib chiqadi. 2-bosqichda u renta kapital va yer rentasiga bo'ladi. Va nihoyat, 3-bosqichda barcha foyda va yer rentasining kapitalist va yer egalari o'rtaсидаги taqsimotini ko'rib chiqadi. Robertus ijodiy

faoliyatining so'nggi yillari qiymatining mehnat nazariyadan uzoqlashib, mayda ishlab chiqaruvchilar manfaatlariiga mos tushuvchi loyihibarishi e'lon qiladi. Robertusning fikricha, mehnat qiymat o'lchovi sifatida oltin va kumushdan yuqori turadi, chunki u ish kunini o'zg'armas o'lchov deb hisoblaydi. Bu o'rinda «mehnat kunlari» ham izohlanadi. Davri olim xayoliy fikrlarga bo'linib, kapitalistik tovar xo'jaligi sharoitida pulning zaruratini to'g'ri tushnitirib bera olmadi. Kapitalizmning Robertuschasiga isloh qilish sinfiy kurashsiz evolyutsion yo'l bilan amalgamoshirishni ko'zda tutadi.

Kapitalizmning mayda ishlab chiqaruvchilar nazariyotchilari tomonidan har tomonlama keng o'rganilishi iqtisodiy ta'limotlar tarixida bu maktabiing munosib o'rnini belgilab beradi.

Tayanch iboralar:

S.Sismondi konsepsiyalari. Klassik siyosiy iqtisod namoyondasi.

Kapitalizm tushunchasi , S. Sismandi uslubi . Qiymat. Ish haqi foyda yer rentasi, milliy daromad, kapital kuch va iste'molning o'zaro bog'liqligi iqtisodiy inqirozlar. Kapitalizmni isloh qilish loyihalari. P. Prudon: Mulk muammosi, qiymat ish pullari g'oyalari ayriboshlashni isloh qilish utopik nazariyasi. K. Robertus: Davlat- xo'jalik tizimini bilish yo'lida asari. Qiymat taqsimot nazariyasi kapitalizmni isloh qilish loyihasi .

Takrorlash uchun savollar:

1. Nima uchun mayda burjuacha nazariyalar deymiz?
2. Mayda burjuacha nazariyalar qanday shart-sharoitlarda vujudga keldi?
3. Mayda burjuacha nazariyalarining namoyondalari kimlar?
4. S. Spmondinning kapitalizmni isloh qilish loyihasini aytib berning ?
5. Bundan tashqari S. Simoidinning qanaqa iqtisodiy nazariyalarini bilasiz?
6. S.Sismondini foyda va renta nazariyasini tushuntirib bering ?
7. P. J. Prudon o'zining qaysi ta'limotlarida kapitalizmni tanqid qilgan?
8. P.J. Prudoning ish pullari g'oyalarda nimalar aks etgan?
- 9.K. Roberusning qanday iqtisodiy g'oyalarni bilasiz?
- 10.K. Robertusning kapitalizmni isloh qilish loyihasini xususiyatlarini izohlab berning.

9.MAVZU: VULGAR SIYOSIY IQTISODINNING SHAKLLANISHI.

J. B. SEY, T. MALTUS NAZARIYALARI.

Reja:

- 1 . Vulgar burjua siyosiy iqtisodiyoti paydo bo'lishishng tarixiy sharoitlari va umumiy xarakteristikasi.**
- 2. J. B. Sey iqtisodiy ta'limoti.**
- 3. Tomas Maltusning iqtisodiy konsepsiyalari «Nufus qonuni shart»**

1. Vulgar burjua siyosiy iqtisodinning paydo bo'lishninig tarixiy shart-sharoitlari va umumiy Harakteristikasi.

XVIII asrning oxirlarida (789-1794yillar) G'arbiy Yevropadagi eng yirik burjua inqilobi Fransiyada ro'y berdi. Bu inqilob mamlakatdagi feodal munosabatlarga to'la barham berdi va kapitalizmning tez rivoji uchun yo'l ochib berdi, ammo bu o'zg'arishlar tekis va ravon amalgalashadi. Sanoat to'ntarilish mashina indo'striyasi boshladi. Kapitalistik munosabatlarning bir qancha pozitiv tomonlari bilan birga anchagina negativ oqibatlari ham ko'rina boshladi. Ana shunday sharoitda klassik maktab vakillari yaratgan ta'limotlari har tomonlama qayta ko'rib chiqishga kirishildi, bu jarayon Fransiya, Angliya va Germaniyada XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida ro'y bera boshladi. Bu yangi ta'limotlarga xos xususiyat shu ediki, ularda barcha iqtisodiyot kategoriyalari to'laligicha emas, balki qisman, ya'ni ularning ayrimlari olinib, tadqiq qilnidi. Fransiyada Sey Bastna, Angliyada Malus, Mill, Mak-Kullox, Senior, AQShda Keri, Germaniyada List va boshqalar klassik iqtisodiy maktabii qayta qurib chiqish, uni to'ldirish, zamoni moslash istaklari bilan o'ziga xos muqobil ta'limotlar yuzaga kela boshladi.

2. J. B. Sey iqtisodiy ta'limoti. Sey qonuni

Ransiyadagi shu davrdagi iqtisodiy g'oyalarning rivoji Jan Batist Sey (1767-1832) nomi bilan bog'liq. Uning birinchi asari "Siyosiy iqtisod risolasi 1803 yilda chiqdi va hayoti davomida 5 marta qayta nashr qilindi, qayta ishlandi va uning bosh asari sifatida qoldi.

1817 yilda "Siyosiy iqtisod katekizm", 1823-1830 yillarda 6 tomlik "Siyosiy iqtisod kursi" kitobi ham chop etildi. Bu kitoblarda u sanoat burjuaziyasi tarofdori, merkantilizm dushmani va iqtisodiy liberalizmni qo'llab-quvvatlovchi olim sifatida ma'lumdir.

Sey siyosiy iqtisodni 3 qismga bo'ladi: ishlab chiqarish, taqsimot va iste'mol. Bu klassifikatsiya takror ishlab chiqarish jarayoni unsurlari o'rtasidagi og'zaki bog'lanishni aks ettiradi. Taqsimot va iste'molni iqtisodiyot fanining mustaqil bo'laklari sifatida ajratilishi va ularning mustaqil soha sifatida ishlab chiqarish bilan yonma-yon qo'yilishi ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni unsurlari o'rtasida haqiqiy aloqalar buzib ko'rsatiladi, chunki ma'lum tipdag'i ishlab chiqarish munosabatlari doim taqsimot va iste'molni ma'lum tarkibni vujudga keltiradi.

Sey Smitni qo'llaydi, ammo ko'p masalalarda u bilan kelishmaydi. Masalan, uningcha qiymat bir qancha omillarga bog'liq qilib qo'yiladi: Tovarning sub'yektiv foydaliligi, ishlab chiqarish chiqimlari, talab va taklif. Seyda kapitalning ekspluatatsiya mohiyati butunlay yo'q va bu jarayon ishlab chiqarish omillari nazariya bilan almashtiriladi. Ammo u iqtisodni liberalizm prinsiplarini, "kichkina va arzon davlat" va uning iqtisodiyotga aralashuvini keskin qisqartirish tarofdori sifatida Smit bilan hamohang.

U hayoti davomida siyosiy iqtisod masalalarini imkoniboricha sodda va aniq izohlashga intildi. Birinchilardan bo'lib ishlab chiqarish omillari: mehnat, kapital va yerning mahsulot qiymatini hosil qilishda keng ishtirokini aniq ifodaladi. Hozirgi davr olimlari kapitalizmning (bozor) tizimini shu 3 omil bilan bog'laydilar.

XIX asrning oxirlarida shu 3 omilga asoslangan g'oyalar rivoj topdi. Mehnat - ish haqi, kapital-foyda, yer-renta: shu 3 o'zaro bog'liq formula Sey ta'limotida muhim o'rinni egallaydi. Uning qiymat va daromadlar to'g'risidagi ta'limoti o'ziga xos ravishda hal etildi.

Klassik maktabdan farqli ravishda tovar qiymati uni ishlab chiqarishga sarflangan mehnat bilan emas, uning foydaliligi bilan aniqlanadi. Shunday qilib, "Foydalilik nazariyasi" ga asos solindi. Bu nazariyaga ko'ra, ishlab chiqarish foydalilikni yaratadi, foydalilik esa predmetlarga qiymat beradi, "qiymat foydalilik ulovidir" deydi u. Shunday qilib, Sey qiymatni iste'mol qiymati bilan aynan bir deb tushunadi. Demak qiymat va taqsimot muammosida taqsimot nazariyasi ajratib olinadi va alohida qaraladi.

Seyning daromadlar nazariyasida foydaning izohlanishi diqqatga sazovordir. Biz bilamizki, foyda ssuda foizi va tadbirkorlik daromadidan iborat, uning birnichisi kapital egasi sifatida kapitalist tomonidan (kapital yaratadi), ikkinchi korxona boshlig'i sifatida kapitalist tomonidan o'zlashtiriladi. Seyning fikricha tadbirkorlik foydasini yollanma boshqaruvchi ham olishi mumkin. Bu maxsus va muhim jamoat funksiyasini bajarganlik, ya'ni mohiyat e'tiboriga ko'ra ishlab chiqarish faktorlarini ratsional birlashtirganligi uchun beriladigan mukofotdir. Shunday qilib, tadbirkor va ishchi o'rtasida farq psh haqi darajasida deb ko'rsatiladi.

Tadbirkor, ishbilarmon maoshnning yuqori bo'lishi esa ularning yuqori vazifalari, talanti, faoliyati, tartib va boshqarish ruhi tufaylidir.

U kapital o'sishi bilan "kuyi sinflar" ning ahvoli yaxshilanadi va ular «yuqori siyflar» safiga tuldirib boriladi. Seyning fikricha, kapitalizm davrida sanoat to'ntarilishda hammadan ko'proq ishchilar sinfi manfaatdordir. Oqibatda mehnat manfaatlari kapital bilan "g'armoniya" da uygunlikda bo'lishi "isbotlanadi" (uygunlik naeariyasn).

Seyning eng muhim kashfiyotlardan biri "Sey qonuni", "bozorlar qonuni" yoki "sotish nazariyasi" hisoblanadi. Fiziokratlar merkantelizmni tanqid qilganda shu g'oyadan foydalanganlar, Unda shundan fikr keltiriladi: "Har bir odam bir vaqtining o'zida ham sotib oluvchi ham

sotuvchidir". F. Kenening fikricha, hamma sotib olingan narsa sotilgan, barcha sotilgan narsa sotib olningan.

Sey esa "tafakkur shunga mos talabni yaratadi" degan fikrni ilgari suradi Bundan kapitalistik jamiyatni takror ishlab chiqarishida «garmoniya» mavjudligi va oqibatda umumiy ortiqcha ishlab chiqarishning inqirozlari "prinsipda bo'lmasligi" isbotlanadi, ya'ni taklif avtomatik ravishda talabni vujudga keltiradi.

3. Tomas Maltusning iqtisodiy konsepsiyalari «Nufus qonuni»,

Vulgar siyosiy iqtisodinning (kapitalizmning ashaddiy himoyachisi, ingliz iqtisodchisi Tomas Robert Maltus demografiya muammolarini to'g'risida birinchilardan bo'lib fikr yuritgan bo'lmasada, «nufuz nazariyasi»ni ilk bor yaratdi.

T.Maltus yashagan davr Angliya sanoat inqilobi amalga oshirilayotgan yillar bo'lib, qayta ishlab chiqaruvchilar ommaviy qashshoqlashadi, ishsizlar armiyasi ko'paydi, ishchilarning iqtisodiy ahvoli yomonlashadi. Xuddi shu holatlarga baho berish, uning izohlash, bu ahvolning sababi iyamda akanligini tushuntirish Maltusga nasib etdi. Uning asosiy asarlari quyidagilar: "Aholi nufusi qonuni to'g'risida tajriba" (1798), "Yer rentasining tabiatini va o'sishi to'g'risidagi tajriba" (1815), "Siyosiy iqtisodning boshlanishi" (1820 yilda yozilgan va avvalgi kitobni qayta ishlab, ikki jilddan asarga aylantirilgan). Bu asarlarda Lendlordlar manfaati himoya qilinadi, ammo yer egalari va kapitalistik fabrikantlarning manfaatlari mos kelsa va ishchilarga qarshi qo'yilsa, ularning ikkalasini qo'llab quvvatladi, hukmron sinflarni oqladi, ommaning ochyalang'ochligi va og'ir ahvolida ularning hech qanday aybi yo'qligini isbotlamoqchi bo'ldi. Mavjud tizimni takomiliashadirish kerakliliginu u xayoliga ham keltirmadi, buni o'ziga xos utopiya deb hisobladi.

Maltus tabiat bilan hamohang o'simlik va hayvonlarning cheksiz ko'payishi va yashash uchup kerakli mablag'lar o'sishi yo'nalishlarini tadqiq etadi. Agar insonlar har 25 yilda ikki marta ko'payib geometrik progressiya asosida ortib borsa ($1,2,4,8,16,32,64,128,256$, va hokazo), tirikchiliq vositalari eng qulay sharoitda va arifmetik progressiya asosidagnia ko'payishi mumkin ($1,2,3,4,5,6,7$, va hokazo).

Bunday sharoitda 200 yildan so'ng aholi sonishning tirikchilik vositalariga nisbati 2569 300 yildan so'ng esa 9096:13 bo'ladi va hokazo.

T.R. Maltus "Nufus qonuni"ning matematik ifodasi

Aholining o'sishi	Geometrik progressiya	1,2,4,8,16, 32, 64, 128 va hokazo
-------------------	-----------------------	-----------------------------------

Tirikchilik o'sishi	vositalarining	Arifmetik progressiya	1,2,3,4,5,6,7,8,9,10
200 yildan so'ng		Aholining o'sishi 256 marta	Tirikchilik vositalari 9 marta
300 yildan so'ng		909,6 marta	Tirikchilik vositalari 13 marta

Tirikchilik vositalariga nisbatan doimo tezroq ko'payishga intilishi "aholining nufus qonuni"dir, bu qonun jamiyat paydo bo'lgandan buyon mavjud bo'lib, doim va qudratli harakatdadir. Aholining ortiqcha qismi zarurat tufayli ochlik, yalang'ochlik va qirilishga mahkum etilgan.

Maltusning fikricha, qashshoqlikning asosiy va doimiy sababi, boshqarish tarzi yoki mulkning notekis taqsimlanishiga hech ham bog'liq emas; bu jarayon "tabiiy qonunlar va insoniy xirs" tabiatining nochorligi va insoniyatining favqulodda tez ko'payishi bilan bog'liqdir. Shu sababli xalq o'z azob-uqubatlari uchun o'zini o'zi ayblashi kerak. Uni to'g'rakashga hech qanday inqilob va sotsial islohotlar yordam bera olmaydi. Bunda faqat bir to'g'ri yo'l bor bu aholi yoshini qisqartirti. O'ta ko'payishning oldini olish vositalari, chorasi sifatida "ilohiy chidam" (kambag'allar nikohdan o'zlarini tiyishlari, kech turmush qurishlari), og'ir mehnat yoki turli baxtsizliklar (ochlik, qashshoqlik, kasallik, epidemiya, urush va boshqalar) taklif etiladi.

Maltus iqtisodning bir qancha boshqa masalalari bo'yicha ham o'z fikrlarini beradi, uning ayniqla qiymat, foyda va realizatsiya bo'yicha g'oyalari diqqatga sazavordir. Maltus bu masalalarni hal etishda D.Rikardonning g'oyalari qarshi chiqdi va bunda L.Smitdan foydalandi, uningcha tovarning qiymati bu tovari sotib olishga ketgan mehnat bilan aniqlanadi.

Maltus "Nufus nazariyasi" ga ko'ra, ishchilarning sonini kamaytirish taklif etgan bo'lsa, ishlamay yeydiganlarning sonini oshirish jamiyat uchun foydali deb hisoblaydi g'oyalalar aslida Sismondiga tegishli ekanligi yuqorida boblarda izohlangan. Faqat Sismondi kapitalizmdan voz kechish va mayda ishlab chiqarishni taklif etgan bo'lsa, Maltus kapitalizmdan vos kechmagan holda, avvalo yirik yer egalari va ruhoniylar manfaatini ta'minlashni qo'llaydi.

Maltus g'oyalari uchun ilmiy chalkashliklarga qaramasdan unda bir qancha ijobiy fikrlar mavjud. Hozirgi davrda rivojlanayotgan mamlakatlardagi og'ir ahvolni to'nlarishda bu olimning qarashlari to'g'ri keladi. Ayniqla Markaziy Osiyo mamlakatlarining rivoji xarakterlidir. Bu mamlakatlarda ham aholining o'sishi katta bo'lib, iqtisodiy rivojlanish muammolarini hal etishda bu olimning g'oyalardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Maltusning "Nufus nazariyasi" XIX asrda juda keng tarqaldi va mashhur bo'lib ketdi, bu bilan Maltus kapitalizmning ichki ziddiyatlarini himoya qilib aholining turmush darajasini yomonligini demografik jarayonlarga bog'liq deb hisoblaydi. Biroq bunday yondoshuvni keyingi

iqtisodchilar rad qiladilar va aholi o'ziga kerakli bo'lgan tirikchilik vositalarini o'zlari yarata oladilar, bunga sabab moddiy ne'matlar taqsimotidagi notejislik sababdir deb isbotlab beradilar.

Tayanch iboralar:

Vulgar siyosiy iqtisodi. Sey metodologiyasi. Qiymat, ishlab chiqarishning uch omili va kapital, qiymat unumdarligi haqidagi ta'lilot. Takror ishlab chiqarishning muammolari. Sey qonuni. T. Maltus «Nufus» nazariyasi. Qiymat, foyda masalalari.

Takrorlash uchun savollar:

- 1 .Vulgar siyosiy iqtisodini tariflab bering ?
- 2.Vulgar siyosiy iqtisodning shakllanishining shart-sharoitlarini izohlab bering?
- 3.Nima uchun «Sey qonuni » nazariyasi hozirgacha talqin etiladi?
- 4.Jan Batis Sey qanday iqtisodiy kategoriyalarni tahlil qildi?
- 5.Mima uchun Tomas Maltusning vulgar burjua siyosiy iqtisodning asoschisi deymiz?
- 6.T. Maltusning «Nufus» qonunini tushuntirib bering?
- 7.«Nufus» qonuning reaksiyonligi nimada? T. Maltusning «Nufus» qonuni asarini iqtisodiy hayotga qo'llab bo'ladimi?

10-MAVZU: MARKSIZM-LENINIZM IQTISODIY TA'LIMOTI.

Reja:

- 1. Marksizm vujudga kelshishning tarixiy iqtisodiy shart-sharoitlari.**
- 2. K.Marks va F. Engels iqtisodiy ta'lilotining asosiy g'oyalari.**
- 3. K. Marksning kapital asarining mohiyati va tarixi.**
- 4. Lenining iqtisodiy ta'lilot.**

1. Marksizm vujudga kelishining tarixiy iqtisodiy shart - sharoitlari.

XIX- asrning o'rtalarida iqtisodiy ta'lilotlar tarixida yangi bir yo'naliш Marksizm vujudga keldi. K.Marksning nomi ko'pchilikda inqiloblar bilan bir deb qaraladi.

Haqiqatdan ham bu fikrda jon bor, chunki: u F. Engels bilan birgalikda proletariatining kapitalizmga qarshi kurash zarurligini isbotlovchi nazariyaga asos soldi, buni tasodifiy hol deyish qiyin, chunki shu davrda kapitalistik xo'jalik rivoji, sanoat to'ntarililishining ayrim ("Angliya va G'arbiy Yevropa) mamlakatlarda nihoyasiga yetganligi, sanoatining iqtisodiyotda yetakchi rolni egallashi, ishchilar sinfining jamiyatdagi mavqeini keskin oshganligi, kapitalistik jamiyatining feodalizmdan ustunligi namoyon bo'lishi bilangina uning bir qancha illatlari ham mavjudligi

(ishsizlik, ish vaqtining uzunligi, maoshning kamligi, iqtisodiy inqirozlar, mulkiy va sinfiy tabaqaqlashuvning tobora kuchayishi, mustamlakachilik va boshqalar) prinsipal yangi ta'limot paydo bo'lishiga asos bo'ladi. O'z davrida burjua olimlari deb atalgan tadqiqotchilar (Sismondi, Prudop, Adam Smit, Rikardo), xayoliy sotsialistlar va boshqalar kapitalistik tizimning bir qancha negativ tomonlarini ochib bergen edilar. Ana shu illatlar bu davrda keskin kuchaydi, mehnat va kapital, proletariat va burjuaziya o'rtasidagi qarama-qarshilik tobora ortib bordi. 1831-34 yillar Fransiya da Lion to'quvchilari, 30-40 yillarda Angliyadagi buddistlar va chartistlar harakati ishchilar sinfining mustaqil sinf sifatidagi chiqishlari edi. 1844 yilda Sileziya to'quvchilarning qo'zg'aloni Germaniyadagi inqilobiy harakat darakchasi bo'ldi.

1848 yilda burjua inqilobi tufayli Marksizmning vujudga kelishi jarayoni yanada kuchaydi. Shu yili K. Marks va F. Engels tomonidan tayyorlangan asosiy hujjat «Kommunistik partiya manifesti» e'lon qilindi. Avvalgi davrdagi talablar keskin siyosiy tus ola boshladi.

Hozirgi davrda Marksizmga bo'lgan munosabat salbiy hisoblanadi. Ammo bu ta'limotining muxoliflari ham ayniqsa Karl Marksning (1818-83) iqtisodiyot nazariyasiga qo'shgan buyuk hissasini tan olmoqdalar (masalan, R. Xeylbroner, L. Turou «Ekonomika dlya vsex»). Umuman, iqtisodiyot g'oyalari tarixida uch shaxs A.Smit, K.Marks va J.M.Keyns ta'limotlariga alohida e'tibor beriladi. Shuning uchun odatda K.Marks va Fridrix Engelsning (1820-95) kapitalizmga bo'lgan munosabatlariga alohida e'tibor beriladi. Shuning uchun odatda K.Marks va Fridrix E. ning kapitalizmga bo'lgan munosabatlariga baho beriladi. Bu ikki olimning ta'limoti bir-biri (ga) bilan chambarchas bog'lanib ketgan bo'lib, bu yagona ta'limot Marksizm deb ataladi. Shuning uchun ko'proq K. Marksning nomi tilga olinadi. Bu olimning iqtisodiy qarashlarini tushunish uchun ularni boshqa tadqiqotchi A. Smit g'oyalari bilan solishtirishni o'rini deb hisoblaymiz.

Amerikalik Vasiliy Leontyevning tasdiqlashicha, Marks ta'limotining ahamiyatli tomoni shundaki, uning asarlari konkret materiallarga boyligi bevosita kuzatiladi. Uning yozishicha «Kapital»ni murakkab abstrakt nazariy asar deb hisoblash mumkin.

Kimki, haqiqatdan ham foyda, ish haqi, kapitalistik ishlab chiqarish jarayonini bilmogchi bo'lsa, «Kapital» ning uchala tomondan juda aniq, sifatli axborotlarni (hatto Tretey Vebleninig tanlangan asarlar to'plamidan topish mumkin bo'limgan) ma'lumotlarni bilib olish mumkin.

2. K.Marks va F. Engels iqtisodiy ta'limotining asosiy g'oyalari.

Marksizm XIX asrning 40 yillarida, ya'ni kapitalistik jamiyatda antogo-nistik ziddiyatlar keskin kuchaygan va ishchilar sinfi mustaqil siyosiy kuch sifa-tida maydonga chiqqan davrda paydo bo'ldi.

Marks ta'limoti ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini ochib berdi va insoniyatga dunyoviy kommunistik qayta qurilishning yo'lini ko'rsatmoqchi bo'ldi.

1844 yil yozida "Iqtisodiy - falsafiy qo'lyozmalar" da Marks o'zining dast-labki iqtisodiy tadqiqotlarini umumlashtirishga va o'zining kommunistik qarashlarini ilmiy asoslab berishga harakat qildi.

1844 yil avgustning oxiri sentyabrning boshida Parijda Marks bilan Engelsning tarixiy uchrashuvi bo'ldi, (shu paytga kelib ular 1842 yil noyabr oyida "Reyn gazetasi" redaktsiyasida bir marta uchrashgan edilar) bu uchrashuv vaqtida ularning qarashlari tamomila bir xil ekanligi ma'lum bo'ldi; shu paytdan e'tiboran ularning do'stligi va qariyb 40 yillik hamkorligi boshlandi. Bu hamkorlikning birinchi samarasi 1844 yil sentyabr-noyabrda yozilib, 1845 yil nashr etilgan "Muqaddas oila" kitobining dunyoga kelishidir. Kitobda yosh gezelchilar tanqid qilingan va tarixni materialistik tushunishning ba'zi bir prinsiplari ishlab chiqilgan. V.I.Leninning so'zlari bilan aytganda, Marks butun o'z sistemasining asosiy ideyasiga - ya'ni ishlab chiqarishning ijtimoiy munosabatlari ideyasiga qanday qarashini ko'rsatadi" va proletariatning revolyutsion roliga Marksning allaqachon deyarli shakllangan qarashi mavjuddir.

1850 yil martdan noyabrgacha Marks va Engels " Yangi Reyn gazetasi Siyosiy- iqtisodiy bozor" degan jurnal chiqardilar; unda Marksning 1350 yil yanvar-martda yozgan " Fransiyada sinfiy kurash" asari e'lon qilindi. Bu asarda Marks 1848 yil Fransuz burjua demokratik revolyutsiyasining sabablari, xarakteri va borishni atroflicha tahlil qilib, butun bir tarixiy davrni o'rganishga birinchi bo'lib materialistik dialektika metodika tadbiq etdi. Bu asarda tarixiy materializmning eng muhim qoidalari: bazis bilan uskurtmaning o'zaro aloqadorligi va iqtisodiy bazisning jamiyat hayotida belgilovchi rol o'ynashi, sinflar va partiyalar kurashi, tarixida revolyutsion to'ntarishlarning o'rni va ommanning xat qiluvchi roli, tarixiy jarayonda davlatlar va ijtimoiy ideyalarning roli to'g'risidagi qoidalar konkretlashtirildi va yanada rivojlantirildi.

K. Marks kapitalistik jamiyatining iqtisodiy munosabatlarni tahlil qilish bilan birga sotsializm to'g'risidagi nazariyani ishlab chiqdi. U o'zining «GOTA programmasini tanqid» asarini 1875 yilda yozib, sotsializm programmasini tuzib berdi. Bunda GOTA shahrida o'tkazilgan sul sotsialistlarning kongresida qabul qilningan sotsializm programmasini tanqid qiladi.

F.Engels ham o'zining "Anti-Dyuring" asarida kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarni rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi va "Siyosiy iqtisod" predmetiga tarif beradi: Keng ma'nodagi siyosiy iqtisod ishlab chiqarish, taq-simot, ayrboshlash va is'temolni idora qiladigan fan" deydi.

Shu bilan birga Engels "Sotsializm tarixiy ocherklari", Sotsializmning utopiyadan fanga aylanishi" asarlarni yozib Marksning sotsializm to'g'risidagi nazariyasini yanada boyitdi. Yuqoridagilardan xulosa qilib aytamizki, K.Marks va F.Engels o'z zamonasining buyuk iqtisodchisi va sotsializm nazariyotchisi bo'lgan. Chunki uni hozirgi zamon G'arbning mashhur iqtisodchilari tasdiqlaganlar.

Ularning birdan-bir xatosi shuki, mehnatkash aholining yomon yashashi, turmush darajasining pastligiga xususiy mulk sababchidir. Shuning uchun jamiyatni tubdan o'zg'artirib, xususiy mulk o'rniga ijtimoiy mulkni o'rnatish kabi xato va qo'pol g'oyani ilgari surdilar. Chunki, Marks yashagan davrda ishlab chiqaruvchi kuchlar past rivojlangan jamiyatda yaratiladigan moddiy ne'matlar aholining iste'molini, ehtiyojini qondirish darajasida emas edi. Hozirgi zamon rivojlangan mamlakatlar taraqqiyoti shuni ko'rsatmoqdaki, xususiy mulk bo'lgan sharoitda ham aholi farovon yashashi mumkin ekan. Jamiyatining farovonligiga va to'qligiga faqatgina mamlakatda ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish asosidagina erishish mumkin.

3. K. Marksning «Kapital» asarning mohiyati va tarkibi.

«Kapital» - Karl Marksning asosiy iqtisodiy asari bo'lib hisoblanadi. Bu asarda kapitalistik jamiyat taraqqiyotning iqtisodiy qonunlari ochib berishgan, kapitalizmning ziddiyatlari tadqiq qilingan, uning yemirilishi muqarrarligi va kommunizm tantana qilishi ilmiy jihatdan xulosaga kelgingan. «Kapitalizm» - Marksizm nazariyasining muhim, bosh manbaidir.

Lenin tarificha «Kapital» asrimizning eng buyuk siyosiy- iqtisodiy asari". Bu asarda Marksizmning Leningacha bo'lgan hamma asosiy ta'limoti mujassamlashgan.

«Kapital» uchta tomdan iborat. 1-tomda kapitalni hosil qilish jarayoni, 2-tomda kapitalning muomala jarayoni, 3-tomda esa kapitalistik ishlab chiqarish jarayoni butunligicha, ya'ni kapital hosil qilish bilan kapitalning muomala jarayoni birgalikda tahlil qilingan.

«Kapital» ning 1-tomi 1867 yili Gamburda nashr qilingan. 2 va 3-tomini F.Engels Marks vafotidan keyin 1886 yilda va 1894 yilda nashr ettirdi. 1883-1895 yillarda Engels xatlarida «Kapital»ning ikkinchi variantidan yakunlovchi 4-tom sifatida «Qo'shimcha qiymat nazariyasi»ni nashrga tayyorlamoqchi " ekanligini bir necha marta eslatib o'tgan edi. Ammo Engels vafot, etganligi tufayli bu maqsad amalga oshmadidi.

Marksizm-Leninizm instituti 1954-61 yillarda Marksning «Qo'shimcha qiymat» nazariyasini mukammal ilmiy nashr etdi va u "Kapital"ning 4-tomi bo'ldi. " Kapital "da Marksning fanda qilgan buyuk revolyutsion kashyoti o'zining to'la ifodasini topgan. Bundan Marksizmning sotsialistik revolyutsiya orqali proletariat diktaturasini o'rnatish zarurligi haqidagi nazariyasini chuqur va har tomonlama asoslab beruvchi eng muhim iqtisodiy ta'limot yaratilgan. Kapital chuqur iqtisodiy va tarixiy tadqiqotdir. Asarda shu bilan birga, Marks unda o'zidan ilgarigi siyosiy iqtisodni har tomonlama tanqid qildi hamda burjua klassik siyosiy iqtisodi vakillari nazariyalarining nuqsonlarini, xatolarini, ularni hal qilib bo'lmaydigan ziddiyatlar oldida ojizligini ko'rsatadi va kapital izining vulgar himoyachilari burjuacha chetlanganligshi va qabixligini fosh qildi.

Marks bu asarida kapitalistik ishlab chiqarish usulini va bu usulga muvofiq keladigan ishlab chiqarish va ayirboshlash munosabatlarini tekshirib chiqishni asosiy vazifa qilib qilingan. Kapitalistik jamiyatida tovar ishlab chiqarish hukmronlik qiladi, shuning uchun Marks o'z analizini

tovardan boshlaydi. Tovarning ikki xususiyati iste'mol qiymati va qiymatini analiz qilib, Marks ular o'rtasidagi ziddiyatini tekshirdi va tovarda gavdalangan mehnatining ikki yoqlama xarakterini ko'rsatdi.

Marks «Kapital» da qiymat formalarining rivojlanishi pulning kelib chiqishini analiz qilib, ayirboshlashining tarixiy rivojlanish jarayonining oddiy, tasodifiy formasidan boshlab to pul formasigacha rivojlanganligini ko'rsatdi. Marks iborasi bilan aytganda, tovar muomalasining mahsuli bo'lgan pul kapital nujudga kelishining birinchi formasidan biridir. Tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichida pul kapitalga aylanadi.

Marks "Kapital"da iqtisod fani tarixida birinchi bo'lib kapitalning alohida tarixiy ma'lum ijtimoiy ishlab chiqarish munosabtan ekanligini ham ko'rsatib, kapitalistik ishlab chiqarish usulining umumiylasosiy iqtisodiy qonuni «Qo'shimcha qiymat» qonunini yaratdi.

Ishchining kapitalistga sotadigan ish kuchi tovarning alohida bir turi ekanligining ochib berilishi ishchilar sinfining ekspluatatsiya qilinishini tushunish uchun kalit bo'ldi, deydi. Tovarga aylangan ish kuchi qiymatga va iste'mol qiymatga ega, bu tovari iste'mol qilish jarayoni qiymat yaratuvchi jarayonidir. K.Marks "Kapital"da iqtisod fani tarixida biripchi bo'lib qo'shimcha qiymat hosil bo'lishida kapital tarqikiy qismlarining rolini ko'rsatdi, ya'ni ishlab chiqarish vositalarida gavdalangan doimiy kapital (S) bilan kapitalning ish kuchi sog'ib olinadigan qismi-o'zg'aruvchi kapital (V). o'rtasidagi farqni ko'rsatib berdi. Marks birinchi bo'lib kapitalizm taraqqiyotida mehnat unumdarligining o'sishidagi uch bosqichni ko'rsatib berdi. Bular oddiy kooperatsiya, mehnat taqsimoti va manufakturna, mashinalar va yiriklashgan sanoat bosqichlari.

K.Marks "Kapitalda" kapitalning jamg'arish jarayonini analiz qildi, ka-pitalistik jamg'arilishishng natijasi kapital konsentratsiyasi "kapitalistik jamg'arishining u mumiy qonunini ochdi.

4. Leninning iqtisodiy ta'limoti.

Leninizm XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida vujudga keldi. Marksizmning davomchisi va Leninizmning asoschisi V. I. Lenin imperializm davrining iqtisodiy belgilarini, uning monopolistik kapitalizm ekanligini, imperializmning tarixiy o'rnnini batafsil tahlil qildi. V.I. Lenin o'zining "Imperializm kapitalizmning yuqori bosqichi", "Ikkinchi ipternatsionalizmning halokati", "Yevropa qo'shma shtatlari shioriga doir" kabi asarlarida imperializm va sotsialistik revolyutsiya nazariyalari muhim o'rinni olgan. Shu bilan birga sotsializm nazariyasini va uni amaliyatida qo'llanish nazariyalarini ishlab chiqdi va hayotga tadbiq qildi. Davri u hayotda o'zini oqlamadi. V.I. Leninning nazariyasi 3 qismga bo'linadi:

1. Tomonopolistik kapitalizm siyosiy iqtisodi to'g'risidagi asarlari.
2. Imperializm to'g'risidagi nazariyasi.

3. Sotsializm siyosiy iqtisodi asoslarning ishlab chiqilishi. Uning dastlabki asarlari 1893 yilda e'lon qilindi. Unda va keynigi asarlarida Rossiyada kapitalizm rivojanish masalalari ochib berilgan. «Rossiyada kapitalizm taraqqiysi» asari 1893 yilda yozildi. Unda Rossiyada kapitalizm rivoji va bozorning tobora chuqurlashuvi, hududiy kengayishi qarab chiqilgan. Shular bilan birga uning «Bozorlar masalasi to'g'risidagi masala» asari ham shu davrida yozildi. Unda birinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti, tovar ishlab chiqarishning kelib chiqishi, uning umumiy asoslari, ziddiyatlari va hokazolar ilmiy ravishda yoritilgan.

V.I. Lenin 1917 yilda "Imperializm kapitalizmning yuqori bosqichi" asarini yozdi. Bu asarda imperializmning besh iqtisodiy belgisini ko'rsatib berdi:

1. Ishlab chiqarish kontsentratsiyasi va monopoliyalarining vujudga kelishi;
2. Sanoat kapitali bilan bank kapitali qo'shib, moliya kapitalini, moliya kapitali zaminida moliya oligarxiyasini tashkil topishi,
3. Chetga tovar chiqarishga nisbatan kapital chiqarishning afzalligi;
4. Dunyoni iqtisodiy jihatdan bo'lib olinishi va qayta bo'lib olish uchun kurash;
5. Dunyoni territoriya jihatidan bo'lib olinishi va qayta bo'lib olish uchun kurash.

Lenin bu asarda imperializmning uch yoqlama xususiyatini ko'rsatib berdi:

1. Imperializm -monopolistik kapitalizmdir;
2. Imperializm -parazit, chirib borayotgan kapitalizmdir;
3. Imperializm-sotsialistik revolyutsiya arafasidir;

Lenin sotsialistik revolyutsiya nazariyasini va bu revolyutsiyaning ob'yekтив va sub'yekтив shart-sharoitlarini vujudga kelish qonuniyatlarini o'zining 1914 yilda yozgan «II Internatsionalning halokati», asarida ko'rsatib yozdi.

Lenin sotsializm nazariyasiga bag'ishlangan qator asarlar yozdi.

Ular quyidagilardir.

«Sovet hokimiyatinig navbatdagi vazifalari», «Kooperatsiya haqida», «Kommunizmda bolalarcha sullik kasali» (1918y.) kitoblarida sotsialistik iqtisodiyot asoslarini yaratish vazifalari belgilab berilgan. Ularda mahsulotlarni ishlab chiqarish va taqsimlash ustidan umumxalq hisob-kitobi va nazoratini o'rnatish, mehnat unumdorligini oshirish, sotsializm manfaatlari chet el kapitaliga yo'l berish va undan foydalanish, burjuaziya mutaxassislarini kerak bo'lsa katta maosh to'lash yo'li bilan ishga jalb etish, kredit pul, moliyaviy, mukofot, mehnatga ishbay haq to'lash prinsiplarini keng qo'llash, shahar va qishloq o'rtaida tovar almashinushi yo'lga qo'yish mo'ljallangan edi.

Tayanch iboralar:

K. Marks va F.Engelsning X asr 40- yillardagi faoliyati.

K. Marksizm iqtisodiy falsafiy qo'lyozmalar. Siyosiy iqtisod masalalari «Falsafa qashshoqligi» asari. «Kapital» asari, takror ishlab chiqarish jarayoni, ayrboshlash masalalari. Yaxlit olingen ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil etish. Tovar. Qo'shimcha qiymat qonuni K.Marksning Gota programmasini tanqid asari : sotsializm nazariyasining yaratilishi Engels: «Anti Dorning» «Siyosiy iqtisod tanqidiga doir» asari. I. Lening monopolistik kapitalizm to'g'risidagi nazariyasi . Imperializm-kapitalizmning yuqori bosqich asari sotsialistik revolyutsiya nazariyalari. Sotsializm nazariyasi to'g'risidagi asarlar.

Takrorlash uchun savollar:

- 1 Karl Marks va V. I. Lenin F. Engels nima uchun prolelar siyosiy iqtisodning asoschisi degan nazariya qo'llanib kelingan ?
2. Marksizmning vujudga kelishining tarixiy iqtisodiy shart-sharoitlari nimadan iborat?
3. Karl Marksning iqtisodiyotiga oid qanday asarlarni bilasiz?
4. «Kapital» qachon yozilgan?
5. «Kapital» asari necha tomdan iborat va ularda qancha iqtisodiy nazariyalar keltirilgan?
6. F. Engelsning iqtisodga oid qanday asarlarni bilasiz?
7. Engels qaysi asarlarida kommunizm qurish nazariyasini yozgan?
8. V. I. Lenini nima uchun K. Marks va F. Engels iqtisodiy ta'limotining davomchisi deyilgan?
- 9.V. I. Lenin qaysi asarlarida monopolistik kapitalizm nazariyasini yaratgan? 10.V. I. Lenining qaysi asarlarda sotsializm qurish nazariyasini yaratgan? 11.K. Marksning xususiy mulkka nisbatan munosabatini tushuntirib bering? 12. K. Marksning xatosi nimadan iborat edi?
13. K. Marksizm-Leninizm ta'limotini tarixiy taqdiri nimalardan iborat?

11-MAVZU: MARJINALIZMNING VUJUDGA KELISHI.

AVSTRIYA MAKTABLE.

Reja:

1.Marksizmga muqobil g'oyalarning vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari va g'oyaviy manbalari..

2. Yangi tarixiy maktab va ijtimoiy yo'naliш.

3. Avstriya maktabi va uning vakillarning iqtisodiy nazariyalari.

1.Marksizmga muqobil g'oyalarning vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari va g'oyaviy manbalari.

XIX asrning ikkinchi yarmida va XX asr boshlarida iqtisodiy ta'limotlar tarixida rivojlanishi (evolyutsiyasi) va kapitalizm iqtisodiyotida tub siljishlar ro'y berayotgan edi. XIX asrning so'nggi chegarasida erkin raqobat o'rnnini monopo-liyalar hukmronligi, kapitalizm ziddiyatlarining ayniqsa kapital bilan mehnat o'rtasidagi ziddiyatlarning chuqurlashuvi ayni bir vaqtda yuz berdi.

XIX asrning 70 - yillarining boshida Fransiyada ishchilar sinfining qudrati o'sganligidan uning yangi rivojlanish pallasiga kirganligidan dalolat berar edi.

1867 yilning kuzida "Kapital"ning 1 tomi bosilib chiqqanligi haqida K. Marks va F. Engelsning boshqa asarlari nashr qilinib targ'ib qilninganligi ham Marksizmni ommalashtirishda muhim rol o'ynadi.

Davri ayni shu davrda, ya'ni XIX asrning 70 - yillaridan boshlab «Qiymat» nazariyasini va uni tahlil qilishda chinakam inqilobiy o'zgarishlar yuz berdi. Bu yangicha ilmiy tahlilni maydonga tashlagan va rivojlantirgan shaxslar:

- 1) Uilyam Stenli Jevons (1835-1882)
- 2) Alfred Marshall (1842-1924)
- 3) Karl Menger (1840-1921)
- 4) Mizer Fridrix Fon (1851-1926)
- 5) Yevgeniy Bem - Baver (1851-1914)
- 6) Leon Valras (1834-1910)
- 7) Vilfredo Lareto(1848-1923)
- 8) Knut Vikseli (1851-1926) edilar

Qiymat nazariyasini ilmiy tahlil qilishda yaratilga "Eng yuqori foydalilik" yosh marjinalizm nazariyasining keng tarqalgani ham mana shu olimlarning nomlari bilan bog'liqdir. Marjinalizm fransuzcha „Magesha“ so'zidan olingan bo'lib, "eng yuqori", "cheg'araviy" degan ma'noni bildiradi.

Bu boradagi o'zining ilk fikrlarini Stenli Jevons 1867 yilda ya'ni "Kapital" asarining I tomi nashr qilninshidan 4 yil ilgari Britaniya fanlarini rivojlantirish assotsiatsiyasida qilgan "Siyosiy

iqtisodning umumiy nazariyasi haqida qisqacha bildirish" nomli ma'ruzasida bayon etgan edi. 1871 yilda esa Jevons yapgi nazariyani ilmiy asoslashga bag'ishlangan fundamental asar bo'lgan "Siyosiy iqtisod nazariyasi" nomli kitobini Angliyada nashr qildirdi. Ayni shu davrda 1871 yilda Avstriyada Karl Mengerning «Siyosiy iqtisod asoslari» nomli kitobi ham e'lon qilindi. Bu kitobda ham xuddi mana shu "eng yuqori foydalilik" nazariyasi tahlil qilinib, matematik formula va teoremlarsiz ilmiy jihatdan asoslab berildi.

1874 yilda Shveytsariyada Leon Valrasning "Haqiqiy iqtisodiyot fani elementlari" nomli kitobi nashrdan chiqdi. Bu kitobdag'i iqtisodiy nazariya to'liq ravishda matematik jihatdan rivojlantirildi. Shunday qilib, yangi nazariya bir vaqtda uchta olim tomonidan turli mamlakatlarda ingliz, nemis va fransuz tillarida ilmiy jihatdan asoslab berildi, Bu esa iqtisodiy fikrlarning asosiy muammolari olimlar tomonidan bir xilda xat etilib, yagona xulosaga kelinganligida o'z aksini topdi.

U. Jevons, K Menger L. Valras va Marshatlar o'z qarashlari shakllangan ilk davrda Marks va uning nazariyasi bilan tanish emas edilar. Keyinchalik 80 -yillarda Bem-Baverk, Lareto va Mizerlar yangi nazariyadan Marksizm iqtisodiy ta'limotiga qarshi foydalandilar.

Iqtisodiyot fanidagi yangi yo'nalishlarning o'ziga xos xususiyati shunday iboratki, ular moddiy ne'matlarning qiymatini unga zarur bo'lgan ijtimoiy mehnat chiqimlari va mehnat bilan belgilanmasdan, balki tovarning noyobligi bilan bog'liq eng yuqori naf bilan belgilaydilar. Natijada ular iqtisodiy tahlil usulida to'ntarish yasab, kishilar va ayniqsa firmalar o'rtasida o'ziga xos iqtisodiy qonuniyatlarini yuzaga keltirdilar. Hozirgi davrda fandagi bu limiy to'ntarishni Marjinalizm inqilobi deb ham ataydilar. "Eng yuqori foydalilik" nazariyasining vujudga kelishi XX asr uchun iqtisodiyot tarixi rivojida tub burilish vujudga keldi, bu fandagi muammolarni hal qilish imkoniyatini tug'dirdi. Shuningdek iqtisodiy kategoriyalarning yangicha ko'rinishlari shakllandi. "Eng yuqori foydalilik" tushunchasi bilan bir qatorda "eng yuqori ishlab chiqarish", "eng yuqori layoqat" kabi tushulchalarni qo'llanishi ilmiy tahlilni kengaytirish imkonini berdi iqtisodiy fanga matematik tahlil usulining kiritilgani iqtisodiy tahlilning zamonaviylashuvida ulkan olg'a qadam bo'ldi.

Klassik iqtisodiyotining namoyondalari asosan o'rtacha iqtisodiy tahlil (o'r-tacha narx, o'rtacha ishlab chiqarish, o'rtacha ish haqi, o'rtacha foya) asosida ish olib borgan edilar. O'sha yillardayoq yangi yo'nalishdagi olimlar amaliyotni o'rtachadan emas, o'zgachadan izladilar. O'zgacha yo'l tanlab mavjud qonuniyatlar balki „eng yuqori miqdor“ni tahlildan o'tkazdilar.

Klassiklardan asosiy e'tiborni iqtisodiy o'sish (davlat qanday boyiydi) muammolariga, jamiyatining boyligi umumiy mahsulot xodimiga jon boshiga to'g'ri keladigan mahsulot taqsimotiga, ularning barchasini kapital jamg'arilishi bilan bog'lagan edilar. Hozirgi zamon iqtisodchi olimlari klassiklar II darajali deb qaragan zarur holatga e'tibor berdilar. Ular mehnat va

kapitalning o'sha ma'lum miqdorini turlicha ishlatish muhim degan xulosaga keldilar, ya'ni mavjud resurslarni turlicha foydalanish yo'llarini ochib berdliar.

XIX asrning oxirgi choragida yana bir qator olimlar chegaralangan resurslardan optimal natijalarga erishish yo'llarini izlash tomon yo'l tutdi. Bunday holatda ishlab chiqarilgan mahsulotning maksimal foydarанишни ta'minlaydigan ishlab chiqarish faktorlarini topish bosh maqsad qilib olindi. Bu yangi yo'naliш keyinchalik (XX asrda) neoklassik iqtisodni nom oldi. Ingliz iqtisodchisi A. Marshall fanning yangi yutuqlari asosida I sistemali ta'limot yaratdi. U siyosiy iqtisod terminidan voz kechib, o'z asariga " Iqtisodiyot prinsiplari" deb nom berdi. "Ekonomiks" degan yangi iboraning kiritilishi buldan ijtimoiy va sinfiy muammolarni istisno etishni takidlardi. Shu asosda kapitalizmni ilmiy tahlil qilishning yangi shakllarini ishlab chiqqan Kembridj maktabi vujudga kelgan edi.

2. Yangi tarixiy maktab va ijtimoiy yo'naliш.

XIX asrning ikkinchi yarmida Germaniyada iqtisodiyot fani tarixiy usul asosida rivojlanmoqda: edi. Nemis iqtisodchilari bundan avvalgi davrda iqtisodiy adubiyotlarda vujudga kelgan ananalarini davom ettirdilar. Ular Germaniyada feodalizm sarqitlari qolib kelayotganligini keskin qoraladilar. Shu davrda Germaniya iktisodiy taraqqiyotida yangi tarixiy maktab yetakchi o'rindan birini egallagan edi. Shu maktabiинг yetakchi olimlari Gustav Shmoller P838-1917), Lui Breptano (1844-1931), Zerner Zombart (1863-1941), Maks Vebsr (1864-1921) lar edi. Berlin universitetining professori Gustav Shmoller o'zining ; "Xalq xo'jaligi to'g'risidagi umumiш ma'lumot asoslari" (1911-1904) nomli asosiy iqtisodiy asarida tarixiy maktablar asosiy vakillari . Rosher va B. Gildebraldning asosiy qoidalari usullarini yanada rivojlantirdi. Iqtisodiy amaliyatda 3 xil faoliyat turini:

1. Xususiy xo'jalik

2. Davlat xo'jaligi

3. Diniy xo'jalikni

alohida ajratib ko'rsatdi.

I sida xususiy manfaat

II sida jamiyat manfaati

III sida xayr-ehson asosiy deb belgilanadi.Umuman, G.Shmollerning qarashlarida davlatning belgilovchilik, yetakchilik rolini ko'rsatish xosdir.

Shmoller Marksizmga qarshi kurash ijtimoiy va sinfiy muammolarni siyosiy iqtisoddan chiqarib tashlab u xo'jaligi tarixiy manbalarini o'rganish, xalq xo'jaligidagi hodisalarini bayon etib berishni siyosiy iqtisodning bosh va vazifasi deb hisoblaydi. Yangi tarixiy maktabiинг namoyondalari "Sinfiy inoqlik" g'oyalarini targ'ib qildilar. G. Shmoller tomonidan tuzilgan "ijtimoiy siyosat uyushmasi" nimg faoliyati shu maqsadga xizmat" qilar edi.Uning nazariyotchilari

universitet professorlar bo'lib, ularning dasturlari kafedra sotsializm (kafedradagi sotsializm) deb atalar edi. Ushbu dasturdagi boshlang'ich ta'llimni majburiy kiritish, bolalar va ayollar mehnatini davlat tomonidan tartibga solish, ishchilarni kasallik va baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish, qarilik va mehnat layoqatini yo'qotgan chog'da nafaqa to'lash kabi islohotchilik g'oyalari sotsial demokratlar orasida ham yoyildi. Shmallerning shogirdi Verner Zombart ham yangi tarixiy maktabiing asosiy vakillaridan edi. Berlin universitetining professori Zombart o'zining Marksiga yaqinligini ko'rsatish maqsadida "Hozirgi zamon kapitalizmi" kitobida K.Marksning olimligini revolyutsionligidan ajratishga urinib, Marksizm asosiy ta'llimotidagi mana shu ikki negizning bir-biriga zidligi to'g'risidagi fikrni ko'tarib chiqdi. Shuningdek, Markscha siyosiy iqtisodning kategoriyalarini bo'lib tarifladi. Chunki qiymat mehnat nazariyasini "ishning g'oyasi" deb e'lon qilindi va fikran mantiqiy bir ishdan iborat deb ko'rsatdi. Zombart ishlab chiqarishning uch faktori xususidagi nazariyaning tarofdori bo'lib, (kapital, yer, mehnat) antogonitik ziddiyat va iqtisodiy inqirozlarining muqarrarligini inkor etdi. U o'z asarida ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar to'g'risidagi ta'llimotni va ayniqsa Proletariat diktaturasi nazariyasini inkor etdi. U jamiyatining taraqqiyoti sotsializm sari borayotgani yo'q, balki xo'jalikning ko'pgina eski va yangi shakllarini oladigan murakkab iqtisodiy sistema sari bormoqda, deb ko'rsatdi. Sotsial ko'p fikrlilik kontsepsiysi Zombartining fikricha jamiyat haqiqiy taraqqiyotga mos ravishda kapitalizm hayotniy mustahkamlashi kerak edi.

Zombart iqtisodiy qarashlari bora-bora reaksiyon tus olib ketdi. Birinchi jahon urushi yillarida va Shovinizm tomonidan turib Germaniya imperialyuming mafkurachisiga aylandi. Uning asarlari esa nemis fashizmining mafkurasining shakllanishiga ko'maklashdi.

Ayniqsa "Nemis sotsializmi" (1934) kitobida Zombart gitlerizmni oshkora maqtab, deb yozdi, fashizmnnig inson zotiga nafratdan iborat doktorinasi barcha bandlari bilan bir dam ekanligini bildirdi. Uning fashizmga yaqindagi yangi tarixiy maktab vakillari orasida yagona kamchilik edi.

Maks Weber har tomonlama ma'lumotli va ko'p qirrali olim edi. U falsafa, tarixi, sotsiologiya va iqtisodiyot fanlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Uning ijodiy tarixiy maktabi o'zining yuqori pog'onasiga ko'larildi. M.Weber hammadan ko'proq darajada «noto'g'ri fikrga asoslangan millatchilik va bir taraflama tarixiy usuldan ozoddir. Uning ijodida hech qanday qiyinchiliksiz Birinchi xalqlarning iqtisodiy hayotining rivojlanishi yo'llaridagi qiyinchiliklarni yengib ilmiy xususiyatlар va an'analar, ularning madaniyatlari orqali konkret umumiy qonun asosida belgilanadi, degan fikrni ko'rish mumkin.

O'zining dastlabki asarlarida M.Weber tarixiy fanlarga faqat bayonchilik yelarni emas ekanligini ko'rsatdi. U yuksak benuqson tillar konsepsiyasini ilgari surdi. Yuksak benuqson tillar - bu o'z mohiyatiga ko'ra olim shakllantirgan faktlar va u yoki bu xalqning tarixiy rivojlanish

jarayonlarini tushuntirib berish uchun tuzadigan: sxemasidir. M.Veber XV - XVI asrlarda Yevropa xo'jalik burlishiga deformatsiyaning ta'siri sohasidagi izlanishlari fanda juda katta iz qoldirdi. Bu izlanishlarning markazida "Protestant etikasi va kapitalizm ruhi" asari turadi. Ma'lum ma'noda Veber Zombart amalga oshira olmagan ishni ya'ni fundamental tariximining iqtisodiy; asarlarini yaratdi. Bu kitob sayohatchining kelajak haqidagi yozuvlari emas, balki kosmosdan turib kuzatishi edi.

3.Avstriya maktabi va uning vakillarning iqtisodiy nazariyalari.

XIX asrning 70 yillarda iqtisodiy ta'limotlarning nufuzli maktablaridan biri bo'lgan Avstriya maktabi vujudga keldi. Avstriya maktabini sub'yekтив yoki sub'yekтив-psixologik maktab deb ham ataydilar. 70 yillarda Avstriya maktabining asoschisi K. Menger (1840-1921 i.) bu g'oya'ni rivojlantrib uni sub'yekтив psixologik maktabiing asosiy nazariyasiga aylantirdi. Yevgeniy Bem-Baverk (1851-1914 i) Fridrix Vizer (1351-1926 y.)yana boshqalar ham shu nazariyani ishlab chiqdilar. Avstriya maktabining konsepsiyalari K. Mengerning "Siyosiy iqtisod asoslari" (1871 i, 3, F, Vizerning "Xo'jalik boyligining kelib chiqishi va asosiy qonunlari to'g'risida" (1884 i.), B. Bem-Baverkning "Kapital va foyda" (1884-1889 i.), "Xo'jalik ne'matlari boyligi nazariyasining asoslari" (1836 i.), "K.Marks nazariyasi va uning tanqidi" (1895 y.)

Birinchi va boshqa asarlarida bayon etilgan Avstriya maktabining ta'limoti Angliya, Germaniya» AQSh va Rossiyada hamda boshqa mamlakatlarda yoyildi. Bu ta'limot iqtisodiyot fanining shunday keyningi rivojiga katta ta'sir o'tkazdi. Avstriya maktabi iqtisotchilarining asarlarida avvalo siyosiy iqtisod predmeti, uning uslubiga negizlari va tadqiqot usuli tug'risida ta'limot yanada kengaytirildi. Menger va uning tarafdoqlari ishlab chiqarish munosabatlарши, ishlab chiqarishning rivojini tartibga soluvchi iqtisodiy qonunlarni siyosiy iqtisod predmetiga kiritmas edilar. Ularning konsepsiyasiga ko'ra siyosiy iqtisod xo'jalik sub'yekti tajribasini butun xilmassisligi bilan uni idrok etishni o'rghanishi lozim edi. Vem-Baverkning davosicha, siyosiy iqtisod sub'yekt hislarida iqtisodiy xodisalarni izohlaydigan ildizlarni izlashi kerak. Alovida xo'jalik tadqiqot ob'yekti qilib olinar va shu xo'jalik ob'yektining eng oddiy tiniq elementi deb talqin qilinar edi. Avstriya maktabi kapitalistik xo'jalikni mana shunday eng oddiy elementlarning mexanik yig'indisi deb talqin etardi. Umuman iqtisodiyot qonunlarini o'rganish uchun alovida olningan bir xo'jalik (firma, korxona) misolida shu qonunlarni ko'rib chiqish yetarli deb hisoblanardi. Avstriya maktabining nazaritufaylitchilari kapitapizmni faqat bozor munosabatlari bi-langina boglangan yakia xo'jaliklar yig'indisi deb mehnatining rolini inkor etdilar va kapitalistik ekspluatatsiya'ni inkor etdplar. Avstriya maktabining naza-ritufayligchilari avvalo Bem-Baverk qiymatining mehnat nazariyasini Marks ta'limotining ilk negizi deb bilib, shu nazariyadagi qo'shimcha qiymat ta'limotiga xuruj qilib, "Kapital"ning birinchini va uchinchi tomlari o'rtasida ziddiyat borligini

isbotlashga o'rindilar. Avstriya maktabi konsepsiyalarda qadriyat(qimmat) nazariyasi muhim o'rinni tutadi. Bu nazariya "Eng yuqori foydalilik" nomini oldi. Siyosiy iqtisodda qabul qilningan tovar va qiymatining yaratilishi ijtimoiy zaruriy mehnat o'rniga qadriyat tushunchasi bilan almashtirildi, ya'ni qiymatining birdan-bir manbai mehnat ekanligini inkor qildilar. Tovar qiymati uning foydaliligi bilan belgilanadi. Ular tovarning iste'mol qiymatini inkor etdilar, foydalilikka zo'r berib qadriyatning sub'yekтив nazariyasini yaratdi, foydalilik deganda Bem-Baverk moddiy ne'matlarning umumiyligi xususiyatini tushunar edi. Bu xususiyat moddiy ne'matlarning shaxslar farovonligiga, ehtiyojlarning qondirilishiga munosabati bilan belgilanadi deb hisoblar edi. Qiymat qimmat va qadriyat tushunchasi bilan almashtirildi. Ne'matlarning foydaliligi uning asosi deb hisobladi. Bu foydalilik ne'matlar qiymatini belgilaydi. Agar ne'matlar (tovar) qancha ko'p naf keltirsa, shunchalik uning qiymati orta boradi deydilar.

Tayanch iboralar :

Marjinamizm. «Eng yuqori foydalilik» Stenli Jevops. Siyosiy iqtisodning umumiyligi nazariyasi haqida qisqacha bildirish asari. Yangi tarixiy maktab . G. Shimoller. Lui Bretano, Verner Zambart, Maks Veber . Avstriya maktabi K. Mei-ger: sub'yekтив psixologik maktab. Bem-Baverk. Kapital va foya, K. Marks ta'limotini tanqidi. Qadriyatlar nazariyasi sun'yekтив psixologik qiymatlar nazariyasi .

Takrorlash uchun savollar:

- 1.Nima uchun «Marjinalizm» nazariyasini Marksizmga muqobil nazariya deymiz?
- 2.«Marjinalizm» so'zi qanday ma'noni anglatadi ?
3. «Eng yuqori foydalilik» nazariyasining mohiyati nima?
4. «Eng yuqori foydalilik» nazariyasining asoschilari kimlar deb hisoblanadi?
- 5.Marjinalizm yo'naliشining vakillari kimlar hisoblanadi?
- 6.Mengerni Avstriya maktabining vakili deya olasizmi?
- 7.Qadriyatlar nazariyasining asoschilari kimlar va nima bilan izohlanadi?
- 8.Sub'yekтив psixologik nazariyalarning mohiyatini tushuntirib bering?
- 9.Zombart qaysi marjinalistik oqimning vakili hisoblanadi ?
- 10.Marjinalistik nazariyalarni kundalik iqtisodiy hayotda qo'llanish jarayonlarini uchratishimiz mumkinmi?

12-MAVZU: "KEMBRIDJ MAKTABLESI. A.MARSHALLNING TABLOVA TAKLIF NAZARIYASI. J.B.KLARKNING IQTSODIY QARASHLARI. AMERIKA MAKTABLESI

Reja :

- 1 .Kembrij maktabi - Marjinalizm iqtisodiy nazariya maktabining vakili sifatida . Marshallning narxlar va daromadlar nazariyasি.**
- 2..Amerika maktab va uning vakillari .**
- 3.J.B.Klarkning «Eng yuqori unumdorlik nazariyasi».**

1.Kembrij maktabi - Marjinalizm iqtisodni nazariya maktabining vakili sifatida.

Tomonopolistik kapitalizmdan imperializmga o'tish davrida Angliyadagi siyosiy iqtisodda avvalo Kembridj dorilfununida vujudga kelgan iqtisotchilar maktabi vujudga keldi. Maktabiинг nomi ham shu dorilfunun nomidan olindi. Unga nufuzli iqtisotchi, qirollik iqtisodiy jamiyatining asoschisi Alferd Marshall (1842-1924) boshchilik qildi. Uning asosiy asari "Iqtisod prinsiplari" (1890) deb ataldi. Uslubiyat va iqtisodiy nazariya sohasida Marshall tiniq elektikdir. U iqtisodiy jarayonlarga funksional tadqiqot usulini qo'llaydi. Bunda psixologik omil katta o'ren egallaydi, Marshall xodisalarning miqdor jihatiga butun e'tiborni qaratib iqtisodiy xodisalarning sifat jihatini ijtimoiy mazmunini inkor etdi va xiralashtirib ko'rsatdi. U matematik apparatni keng qilib, undan o'zining yangi klassik konsepsiylariga ilmiy tus berish uchun foydalandi. Marshall turli ilmiy nazariyalarni qorishtirib, shu usul yordamida konsepsiyanı shakllantirdi.

Narx nazariyasi Marshallning nazariy mulohazalari markazida turadi. U qiymat va narx kategoriylarini aynan bir narsa deb ko'rsatib, aslida, qiymatni chetlashtirib qo'ydi va narxni bozor iqtisodiyotining eng muhim elementi, deb hisobladi. Ob'yektiv qiymat kategoriysi o'rniga Marshall o'rtacha narxning sub'yektiv kategoriyasidan foydalandi. Bu narsa uning nazariyasida muvozanat narxi rolini bajardi. Marshallning nazariyasi sintetik nazariya nomini oldi, chunki Muallif o'z nazariyasida o'zidan avvalgi mavjud narx nazariyalari: "Eng yuqori foydalilik", ishlab chiqarish chiqimlari, talab va taklif nazariyalarini birlashtirib, ularning hammasini to'g'ri deb ko'rsatdi. A.Marshall K.Marksning qiymatining mehnat nazariyasiga qarama-qarshi bo'lган yana bir vosita sifatida narx nazariyasini yaratdi. Bu nazariya ekspluatatsiyani inkor etadi, mehnat qiymatning birdan bir manbai emas deb ko'rsatishi lozim edi. Marshalning fikricha, narx belgilanishini jarayoni birinchidan foydalilik bilan belgilanuvchi talab narxining ikkinchidan ishlab chiqarish chiqimlariga bog'liq bo'lган taklif narxining vujudga kelishini o'z ichiga olar edi. O'rtacha narx bozorda talab va taklif narxlarining to'qnashuvi vaqtida hosil bo'ladigan narx belgilanishining yakuni deb hisoblandi. O'rtacha narx bu o'rinda talab va taklif jarayonida vujudga keladigan va mexanik tarzda teng Hara-kat kiladigan kategoriyaga aylanib koladi. Shunday kilib, Marshall ilgari

mav-jud bo'lgan qiymat talqinini korishtirish yo'li bilan qiymatspz narx nazariyasining yana bir nusxasini yaratdi, bu nuxsa monopoliyalarning narxlarini oklash uchuy ishlatmladi. Mana shu o'ziga xos, sub'yektiv ta'limot "yangi klassik" konsepsiyaning ilk nuqtalaridan birini tashkil etadi. Narx nazariyasi bilan bir qatorda Marshall foyda va ish haqi nazariyalarni ilgari surdi. Ish haqi bilan foyda sub'yektiv-psixologik tarzdagi kategoriya deb talqin etilib, kapitalistlar bilan ishchilar tomonidan berilgan "qurban"ning mahsuloti deb, ko'rsatildi. Ish haqi bu ishchi mehnatining sarflaganligi uchun unga beriladigan mukofot deb tarifladi. Korxona egasining daromadi kapitalistga nazorati uchun to'langan haq deb izohladi. Foydaning boshqa qismi foiziy Marshall kapitalistining mashum umidi asosida oqladi. A.Marshall va uning maktabdoshlari o'z ish uslublarida umuman, Avstriya maktabini qo'llab quvvatladilar, lekin unga jiddiy o'zgarishlarni kiritishni lozim topdilar. Jumladan faqat fuktsional tadqiqot usulini tan olish bilan birga, bozor munosabatlarining uch asosi zaruratini: narx, talab va taklifni o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqdilar.

Ularinig fikricha, avvalo ishlab chiqarish, is'temol harakatini aniqlaydi, keynichalik u "eng yuqori foydalilik" va talab doirasi ko'rinishiga kiradi. Kembrij maktabi tadtqiqotlariga ikki tomonlama qarang mumkin. Agar biz unga kapitalizmni baholashni ichki mexanizmni tushuntirish uchun urinish sifatida qarasak, haqiqatni bir oz siyqalashtirilayotganini ko'rishimiz mumkin Davri bu izlanishlarga boshqacha nuqtai-nazardan qarashnmiz ham muhimdir, bunda biz e'tiborni tovar bozorlaridagi aniq muammolarni aniq hal etishga qaratamiz va natijada amaliy ahamyatga ega bo'lgan ilmiy xulosalar vujudga kelganligining shohidi bo'lamiz. D.Marshall g'oyalari tovar bozorlarini o'rganishni "'maqsad qilgan nazariy maktablarga keng yo'l ochib berdi va katta ahamiyatga ega "bo'ldi. " XIX asrning oxirlarida bir qancha davlatlar kabi AQSh ham monopolistik rivojlanish bosqichiga kirdi. Monopoliyalarning birlashmalari tez ko'paydi. Iqtisodiyotda ularning tanho hukmronligi, kuchayib bordi: Amerika imperializmi keng miqyosdagi mustamlakachilik ekspansiyasini avj oldirdi. XIX asrning oxirlarida va XX asrning boshlarida kapitalizmning tez rivojlanishi jihatidan ham, kapitalizmni rivojlantirish sohasida erishgan darajasining yuqoriligi jihatidan ham Qo'shma shtatlar bilan tenglasha oladigan raqobatchi yo'q edi. AQSh monopolistik kapitalizmning klassik mamlakatiga aylandi. Ziddiyatlar benihoya keskinlashganligi bu mamlakatga xos xususiyat bo'lib keldi. Bu davrda iqtisodiyot fanining ko'p sohalarini qayta ko'rib chiqish zaruratini keltirib chiqardi, bu fan o'tmishdagi nazariyalarga nisbatan vorislikni saqlab qolish bilan birgalikda nazariy konsepsiyalarni ham ishlab chiqdi, bu konsepsiyalarning asosiy maqsadi monopoliyalarning mavjudligini, ularning foydasini oqlashdan iborat edi.

2. Amerika maktabi va uning vakillari .

Kolumbiya dorilfununi professor. E.B.Klark (1847-1938) boshchiligidagi yetakchi iqtisodchilar guruhi siyosiy iqtisodda hukmronlik mavqeini egalladi, mana shu guruh siyosiy iqtisodning Amerika maktabini vujudga keltirdi. J.B.Klarkning "Boylik falsafasi" (1836).

"Boylikning taqsimlanish (1899), "Iqtisodiy nazariyaning muhim belgilari" (1907) asarlari o'ziga xos, yangicha konsepsiyalarni ishlab chiqishga ta'sir o'tkazdi. Amerikaning monopolistik burjuaziyasi shu konsepsiyalarni o'ziga quroq qilib oldi. J.Y. Klark Amerika iqtisodiy uyushmasini tuzush (1885)tashabbuschilaridan biri bo'ldi. U „mehnatning siquviga zarba berish, kapitalning ekspluatorlik mohoyatini niqoblash“ni shu uyushmaning vazifasi deb bildi.

J.B. Klark siyosiy iqtisodning metodologik va nazariy bisotini yangilashga intilib uni tabiiy faktlarga tenglashtirdi.U nazariy mexanikaga o'xshatib, siyosiy iqtisodni uch bo'limga : 1) Universal iqtisodiyot 2)Iqtisodiy statistika 3) Iqtisodiy dinamika ga bo'ldi. Birinchisi umumiyl universal qonunlari, shu qonunlarning statik, sobit iqtisodiyoti sharoitidagi, uchinchi harakat, rivojlangan holatida amal qilishni o'rghanadi. Siyosiy iqtisodni bunday bo'lishi predmetiga, iqtisodiy fan vazifalariga yangilik kiritishdir.

Bu narsa siyosiy iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy muammolardan ozod etildi. Klark jamiyat taraqqiyotidagi sifat siljishlari, revolyutsion sakrashlar bo'lishi mumkin emas deb hisoblaydi. U sobitlikni jamiyatning asosiy holati deb hisobladi va muvozanat nazariyasining nusxalaridan birini rivojlantirdi. Iqtisodiy dinamikaga qilgan murojaatimuhimroq o'zgartirish bo'ldi, chunki u burjua iqtisodiyotining ishlab chiqarishdagi holati, sobitlikning ju'ziy hodisasi deb hisoblanadi.

3. J.B.Klarkning „Eng yuqori unumdorlik nazariyasi“.

J.B. Klark „Mehnat va kapitalning kamayib boruvchi unumdorligi qonuni“, deb atalgan qonunni kashf etib, iqtisodiy nazariyalar bisotini to'ldirdi. Bu „qonun“ „tuproqning kamayib boruvchiunumdorligi qonuni“dan nusxa ko'chirilgan edi. Mana shu „qonun“ning asosiy nazariyalaridan biri – „eng yuqori unumdorlik“ nazariyasi asos bo'ldi. Klark shu „qonun“ni ro'kach qilib, kapital o'zgarmagan sharoitga ishlab chiqarishga sarflangan har bir mehnat ulushi bilan go'yo avvalgi sarflangan mehnatga nisbatan unumdorlik kamayib boradi, den da'vo qildi. O'z navbatida, ishchilar sonini o'zgartirmagan holda kapitalning keyingi kopaytirilishi ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmini kamaytirishga, avval solingan kapitalga nisbatan buning unumdorligi kamayishiga olib borar emish. Klerk qo'shimcha mehnat jalb qilish yoki kapital solish sohasida mazkur „qonun“ning amal qilishini izohlab, birob bir ishonarli dalil ko'rsatmay, quruq mulohazalar bilan cheklanar edi. Uning da'vosiga ko'ra birinchi ishchi 10 dollar, ikkinchisi 8 dollar va uchinchisi 6 dollar qiymatiga ega bo'lган mahsulot yaratish emish va hokazo. U mehnat unumdorligini pirovard mahsulot bilan, ya'ni jalb etilgan ishchilarining oxirgisi ishlab chiqargan mahsulot bilan belgilar edi. Kapitalning „unumdorligi“ ham shu tarzda belgilanar edi. „Kamayib boruvchi unumdorlik qonuni“ ning amal qilishi „universal fenomen“ tarzda tahlil etildi, Klark buning mohiyatini hech bir asoslamas edi.

Klark ilgari surgan „Mehnat va kapitalning kamayib boruvchi unumdorligi“ nazariyasi mana shu nazariya uchun asos qilib olingan „qonun“ning o'zi kabi nazariya edi.

„Eng yuqori mehnat unumdorligi“ nazariyasidan muallif kapitalistik ekspluatatsiyani niqoblash, ish haqini kamayib borishini oqlash maqsadida foydalandi. Klark ish haqi tarzida ishchilar o’z mehnati bilan yaratgan mahsulotining bir qismini oladilar degan xulosani chiqardi. U man shu fikrni ro’kach qilib burjua jamiyati „mehnati ekspluatatsiya qiladi“ degan ayblovni rad etdi, basharti shu ayblov isbotlanadigan bo’lsa har qanday sog’lom fikrli kishi sotsialist bo’lib qolur edi va ishlab chiqarish sistemasini o’zgartirishga intilgan bo’lur edi, deb ko’rsatdi.

J.B. Klark ish haqining miqdorini „eng yuqori mehnat mahsuloti“ ga o’g’liq qilib qo’ydi. Uning aytishicha ish haqi „eng yuqori mehnat mahsulotini teng bo’lishga intiladi“, shunga asoslanib ish haqi ishchilarning soniga va mehnat unumdorligiga bo’g’liq qilib qo’yadi. Shu tariqa ish haqining mazmuni soddalashtirildi. Klarkning nazariyasidan kelib chiqadigan xulosasi shundan iborat edeiki, go’yo ishchilar ish haqining pastligi uchun o’zлari aybdor, chunki ishchilar haddan tashqari ko’p deb da’vo qilar edi u. Klark jamiyatda ish bilan ta’minalashni oshirish to’g’risidagi g’amxo’rlik bilan o’zini oqlamoqchi bo’ldi.

„Eng yuqori unumdorlik“ nazariyasi ishlab chioqarish omillari to’g’risidagi J.B.Sey bergen nazariyasining davomidir.

Tayanch iboralar:

Kembrij maktabi, A. Marshall: daromadlar, narxlar, talab, taklif, tovar qiymati nazariyalari. elastik koeffisiyent uslubi. J.B.Klark uslubiyotidagi sub’yektizm. Kapital unumdorligining kamayib boruvchi qonuni. Eng yuqori mehbat unumdorligi nazariyalari.

Takrorlash uchun savollar:

1. Marjinalizm maktabining vakili deb Kembrij maktabini aytish mumkinmi?
2. Kembrij maktabining vakillari deb kimlarni aytamiz?
3. A. Marshall qanaqa iqtisodiy maktab yaratgan?
4. A.Marshallning narx va talab, taklif nazariyasini aytib bera olasizmi?
5. A. Marshallning Marksning qiymat nazariyasiga munosabati?
6. Amerika maktabi vakillaridan kimlarni bilasiz?
7. J. B. Klarkning iqtisodiy ta’limotida „Eng yuqori unumdorlik nazariyasi“ qanday ahamiyatga ega?
8. Amerika maktabi marjinalizm ta’limotida biron bir o’rin egallaydimi?

13. MAVZU. LOZANNA MAK TABI VA UNING AHAMIYATI

Reja:

- 1. Lozanna maktabi- marjinalizm yo'analishiga iqtisodiy ta'limoti.**
- 2. Valrasning „eng yuqori foydalilik“ nazariyasi.**
- 3. Laretoning optimum nazariyasi.**

1. Lozanna maktabi – marjinalizm yo'nalishidagi iqtisodiy ta'limotdir

Leon Valras (1834-1910) marjinalizmning Lozanna deb ataluvchi maktabi asoschisi hisoblanadi. Unga keyinchalik Poretto shveysiyalik, Kassel, italiyalik Boroni, amerikalik Leontyev va boshqalar qo'shildi. L.Valrasning "sof iqtisodiy fan elementlari" (1874) asari iqtisodiyot bilimlari olamida matematikaning shazdam qadamlariga asos soldi. Shu sababli u matematik maktabning davomchisi hamdir. Har qanday iqtisodiy tahlili matematik izohlashga intilish bu maktab va uning izdoshlarining xarakterli xususiyati hisoblanadi. Valrasning fikricha, har qanday iqtisodiy nazariyasi faqat matematika asosida qisqa, aniq va ochiq isbotlash mimkin. Uning o'zi matematikani yaxshi bilgan va Qur'onne o'zining ustozи deb hisoblagan holda undan ilhomlangan. Keyinchalik "Eng yuqori foydalilik" deb atalgan tushunchani; L.Valras "Noyoblik" (rarete) deb izohlaydi. Buni u miqdor iste'molining kamayuvchi funksiyasi deb hisoblaydi. (ya'ni biror noz-ne'matning iste'mol soni oshishi bilan uning noyoblik miqdorining korsatkichi tobora pasaydi). L.Varlas shuni aniqladiki, eng yuqori foydalilik – bu iste'molchi tomonidan sarflanayotgan mablag'larning so'nggi partiyalari. Uning uchun iste'mol qilinayotgan barcha noz-ne'matlardan bir xil qoniqish hosil qilishdir. Shu bilan birga iste'molchi A ne'mat B ne'matdan qimmatliroq ekanligini o'zi belgilaydi. Masalan, unga paypoq galstukdan, go'sht paypoqdan qimmatliroqdir. Boshqacha qilib aytganda iste'molchi o'zining belgilagan daromadining galstukka nisbatan paypoqqa tezroq paypoqqa nisbatan go'shtga tezroq sarflaydi. Mana shunday turli-tuman ehtiyoj bo'lganligi tufayli iste'molchi har bir ne'matdan shunday miqdorda xarid qiladiki, so'nggi juft paypoq oxirgi galstuk va so'nggi nimta go'shtdan bir xil qoniqish hosil bo'ladi. Faqat shundagina barcha sotib olingan narsalar unga maksimal umumiy qoniqishni paydo qiladi. I. Valras hamma iste'molchilar o' ehtiyojlarini qondirishda maksimumga ega bo'lsalar (yuqorida aytigalarini hammasini, shuningdek har birining cheklangan daromadini hisobga olgan holda) iqtisodiy muvozanat yuzaga keladi deb hisoblaydi. U bunday umumiy bozor muvozanati nima ekanligi to'g'risida masalani hal etishga muhim qadam qo'yadi. Gap shundaki, har bil iste'molchi va har bir ishlab chiqaruvchi, har bir xaridor va sotuvchi o'z sheriklaridan va iqtisodiyotda ro'y beradigan barcha jarayonlardan to'la ajralgan holda harakat qila olmaydi. Boshqacha qilib aytganda, iqtisodiyotda hamma narsalar, barcha jarayonlar o'zaro bog'liq. Har bir baholash boshqa baholarga bog'liq, ammo u ham boshqalarga ta'sir etadi. Bunga hayotda misollar bisyor. Masalan,

mamlakatining biror hududida qishloq xo'jaligining ortda qolishi shu mamlakat poytaxtida zargarlik buyumlariga talabning oshiruviga olib kelish mumkin.

2. Valrasning «Eng yuqori foydalilik» nazariyasi.

XX asrning 30-50chi yillarda asosiy mavjudlik teoremlari o'z isbotini topdi. Ammo bu sohada hali o'rganilishi zarur bo'lgan sohalar mavjud. Valras qonunida orol iqtisodiyoti asos qilib olingan. Texnologik: koeffitsentlar o'z-garmasdir va har bir resursning qo'llanilishi hajmi ma'lum miqdor bilan cheklangan, har bir tovarga bo'lgan talab funksiyasi ham o'zgarmaydi va hakazo. Muvozanat tenglamasiga ko'ra, bu barcha sharoitlar yig'indisi natijasida biron yangilik ro'y bermaydi. Unda texnika progressi yo'q, foydalanadigan, resurslar zaxirasi ishtirok etmaydi. Aholi sonining ortishi va uning tarkibi o'zgarishlar yo'q. Yangi tovarlar va xizmat sohalari vujudga kelmaydi. Bu to'la holdagi statik model. Haqiqatni uta sodda holda qarab chiqishga asoslandi. Davri muvozanatning eng muhim sharti iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida erkin raqobat bo'lish ko'zda tutilgan, Valras modelining yana bir muhim tomoni shundaki, bozor munosabati to'la ish bilan bandlik sharoitida yoritiladi. Ko'p asrlar davomida xo'jalik ne'matlari qiyomatining manbai nima, degan mavzuda munozaralar davom etib kelmoqda, bu faqat mehnat sarfi bilan belgilanadimi yoki ishlab chiqarish resurslarining sarfi bilanmi? Yoki aksincha qimmat noz ne'matlar foydaliligi bilan belgilanib, undan ishlab chiqarish omillari yuklanadimi? Baholarning so'nggi asosi to'g'risidagi masala uzoq tarixiga ega. U odatda sof ilmiy qiziqishdan siyosiy spekulyatsiyalar predmetiga aylanib ketgan. Xuddi shunday yana bir masala - kapital sarf uchun foydaning paydo bo'lish manbai hisoblanadi. Bu foya qayerdan, qanday va nima uchun vujudga keladi? L. Valras nazariyasi shu masalalarni hal etishga qarama-qarshi chiqarishi lagerdagি muholiflar pozitsiyasi yordam bersa ajabmas.

3. Laretoning optimum nazariyasi.

XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Lozania Universiteti professori Leon Valras kapitalistik iqtisodiyotining «umumiyl iqtisodiy muvozanati» modelini qurdi. Bu yo'nalish Valras ishining davomchisi, italyan olimi Vilfredo Pareto (1848-1923y) tomonidan keng rivojlantirildi. U «eng yuqori naf» nazariyasini hal etish, iste'mol ne'matlarining foydalilagini aniqlash uchun matematik usullardan keng foydalanildi. Lareto o'z tahlili asosiga daromad miqdori va tovarlar bahosini qo'ydi. Iste'mol ne'matlari to'plami turlicha bo'lishi tabiiy. Shu sababli Lareto «ideal muvozanat» sxemasini oladi. Bunda avtomatik ravishda paydo bo'ladigan «xususiy muvozanat» har bir iste'molchining optimal tanlovidan vujudga keladi. Bu usul bilan Pareto «eng yuqori naf» nazariyasini boshi berk ko'chadan olib chiqsa olmadi, davri uning «afzal ko'rish» va «loqaytlik egri chiziqlari» nazariyasidan ekonometrik tadqiqotlarda foydalanib kelinmoqda. U Valrasning umumiyl iqtisodiy muvozanat nazariyasini takomillashtirishga harakat qildi. U ustozidan farqli ravishda ishlab chiqarish funktsiyasining mahsulot chiqarish hajmiga bog'liqligi koeffitsiyentninig o'zgarishi

mumkinligini tan olgan. Lareto qonuni kapitalistik mamlakatlarda aholi daromadlarining taqsimlanishi giperbolasining tenglamasi beriladi.

Foydalilik (naf) funksiyasini topish uchun ne'matlar to'plami avzalligi kon-sepsiyasi Jon Fon Neyman tomonidan yanada rivojlantirildi. U uyni nazariyasiga asoslanib, individuumning maksimum yutuqqa intilishi sharoitidan kelib chiqib, is'temolchining o'zini tutish modelini ishlab chiqdi. Unda ne'matlar foydaliligi konsepsiysi psixologik talabni qondirish mezonlari bilan bog'lab o'rganiladi.

Tayanch iboralar.

Lozana maktabi. "Eng yuqori foydalilik". Noyoblik nazariyalari. Lareto Optimum modeli.

Takrorlash uchun savollar:

1. Lozana maktabini nima uchun biz marjinalizm ta'limotidagi oqim deb ataymiz?
2. Lozana maktabining vakillaridan kimlarni bilasiz?
3. Leon Valrasning noyoblik nazariyasini «eng yuqori foydalilik» nazariyasidan qanday farq qiladi?
4. Paretoning optimum modelini qanday izohlaysiz?
5. Paretoning «eng yuqori foydalilik» nazariyasidagi matematik usuliarni aytalasizmi?

14-MAVZU: NEOKLASSIK MAKTABIING INQIROZI. KEYN-SCHILIKNING YUZAGA KELISHI.

Reja:

1. Tartibga solinadigan kapitalizm nazariyasining g'alabasi va yangi klassik» maktabining inqirozi D.M. Keynsning iqtisodiy ta'limoti.
2. J. M. Keynsning iqtisodiy tam'limoti
3. Yangi keynschilik «Neoklassik sintez» (D. Xiks, E. Xapson)
4. Hozirgi zamon keynschilikning evolyutsiyasi va ahamiyati. Post keynschilik.

1. Tartibga solinadigan kapitalizmning g'alabasi va yangi klassik» maktabining inqirozi D.M. Keynsning iqtisodiy ta'limoti

XX asrga kelib monopolistik kapitalizm rivojlanib ketdi. XX asrning I - yarmida iqtisodiy inqirozlarning dambadam takrorlanib iqtisodiy krizis iqtisodiyotni o'z girdobiga oldi. Bu krizis faqat bir nechta mamlakat doirasida bo'lib qolmasdan, butun kapitalistik dunyo mamlakatlarining o'z girdobiga tordi. Buning natijasida ushbu dunyo mamlakatlari korxonalari birin ketin inqirozga

uchray boshladilar. Bular bu krizidan chiqish uchun davlatining ko'magiga muxtojlik sezdilar. Endi ushbu korxonalar faoliyatini bozor iqtisodiy qonunlari (Adam Smit aytganidek, «ko'zga ko'rinas qo'l») boshqara olmay qoldi. Iqtisodiyotni tartibga solish davlat tomonidan amalga oshirish davr taqazosi bilan zaruratga aylandi. Ushbu zaruratni yoqlovchi nazariyalar paydo bo'la boshladi. Bu fandagi iqtisodiy to'ntarish edi. Bu ilmiy to'ntarish asoschisi va uni ko'klarga ko'targan ingliz iqtisodchisi Djon Meynard Keyns nomi bilan bog'langan. Uning andagi xizmatlari tufayli ko'pgina «Tartibga solinadigan kapitalizm» nazariyasining yo'naliishlari vujudga keldi va unga oid iqtisodiy g'oyalar rivojlantirildi va soni ko'paydi. (Keynschilik va yangi keynschilik nazariyalar). Shuning uchun Dj. M.Keynsni fanda ushbu ilmiy yo'naliشining asoschisi deb ataladi.

2. J. M.Keyns iqtisodiy tam'limoti

Ana shundan iqtisodiy yo'naliшning tarofdori bo'lган ingliz iqtisodchi Jon Meynar Keyns (1884-1946) shuhrat qozondi. Iqtisodchi davlat arbobi bo'lган Keyns Iton na Kembrij universitetlarida iqtisod va matematikadan ta'lim oldi.(1902-1906,1909-1915yil) O'qituvchilik qildi. 1920 yilda Kembrij universitetida professor, 1913-1916 yillarda iqtisodiy jurnal muharriri bo'lib ishladi, 1913 yilda uning birinchi asari "Pul muomalasi va Hindiston moliyasi " kitobi chop etildi.

1919 yilda «Versal tinchlik shartnomasining iqtisodiy oqibatlari» asari nashr etilishi bilan u iqtisodchi sifatida ko'pchilikka tanildi. Bu asarda u shartnomaga asosan bir qancha iqtisodiy fikrlar bildirgan edi. Keyns 1920-1930 yillarda pulga oid bir nechta kitoblar yozdi. Ularning eng mashhuri «Ish bilan bandlik foiz va pullarning umumiш nazariyasi» kitobidir. 1940 yilda «Urush xarajatlarini qanday qoplash mumkin» degan kitobi nashr etildi. Bu asarlardagi bosh masala kapitalizmni oqlash uning inqirozlarsiz rivojini ta'minlashning abadiyligini isbotlashga urinishdir.Uning yaratgan nazariyasi iqtisodiy ta'limotlari tarixida alohida o'rin tutadi. Keynsning asarlari boshdan oyoq klassik maktabga qarshi ekanligini bayon etadi.

Aslida u Kembrij maktabining davomchisidir. Asosiy nazariy muammolari qiymat kapital, ish haqi va boshqalar bo'yicha asoslanadi. Psixolog olimlar ustunligiga va qiymatining mehnat nazariyasini, qo'shimcha qiymatni inkor etadi, ishlab chiqarish omillari kontsepsiysi bilan almashtiradi. Keyns bozor iqtisodiyotining illatlarini to'g'rilash uchun davlatning iqtisodiyotga aralashuv yara-fida bo'lib chiqdi. Vaholanki, avvalgi olimlar uni inkor etgan edilar va inqirozni tasodifiy voqeа deb hisobladilar. Avvalgi iqtisodchilardan farqli ravishda samarali talabni ya'ni iste'mol va jamg'arishni birinchi o'ringa qo'yadi. U tadqiqotining makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'lган milliy daromad va jamg'armalar o'rtasidagi bog'lanish va nisbatlarni tadqiq qilish g'oyasini ilgari suradi. Bu tadqiqot usuli o'z davrida fiziokratlar (F. Kene, A Tyurgo), K.Marks tomonidan qo'llanilgan Keynsgacha makroiqtisodiy yondashuv, ya'ni alohida xo'jalik ob'yektlari bo'lган firmalar iqtisodiy tahlil qilish rasm bo'lган edi. Firmaning rivoji millat, mamlakat ravnaqi bilan bir

deb qarar edi. Asosiy e'tibor umumiy iqtisodiyotga emas, balki firmaga qaratilgan edi. Keyns ta'limoti iqtisodiy siyosat bilan chambarchas bog'liqdir. Agar K. Marks kapitalizmning yemirilishni bashorat qilgan bo'lsa, Keyns esa uning muhandisi sifatida uni tamirlash yo'lini aniqlab beradi. Keynsning umumiy bandlik nazariyasi:

Ish bilan bandlik ortishi tufayli milliy daromad, iste'mol ortadi, ammo iste'mol daromadga nisbatan sekinroq ortadi. Chunki daromad ortishi bilan «Jamg'arishga intilish» kuchayadi. Uningcha asosiy psixologik qonun shundan iboratki, odamlar odatda daromadlar ortishi bilan iste'molni ham o'stiradi, ammo; o'sish daromadlar darajasida bo'lmaydi. Oqibatda daromadlar o'sish bilan jamg'arish ortadi va iste'mol kamayib boradi. Oxirida esa samarali talab kamayadi, talab shunday yo'l bilan ishlab chiqarish xarajatlariga va bandlik darajasiga ta'sir qiladi.

Iste'mol talabni yetarlicha o'smasligi yangi investitsiyalarga xarajatlarning oshuvi yo'li bilan qoniqaruvi ya'ni ishlab chiqarish iste'molining ishlab vosntalariga talab oshuvi yo'li bilan qoplash mumkin. Shu sababli investitsiyalarning umumiy hajmi bandlik hajmini belgilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Investitsiyalar hajmi uning ishlatilish hajmiga bog'liq. Sohibkor investitsiyalarni kapitalning «Eng yuqori samaradorligi» foiz darajasigacha pasaygan paytgacha kengaytiradi (foyda normasi o'lchanadigan rentabellik). Qiyinchilik shundaki, kapitalning rentabelligi pasayadi, foiz darajasi esa mo'tadil bo'ladi. Bu holat yangi investitsiyalar imkoniyatini pasaytiradi, demak bandlik o'sish ham pasayadi. Kapital «Eng yuqori samaradorligi» ning pasayishi kapital massasini o'sishi, shuningdek kapitalist tadbirkorlarning bo'lajak daromadlariga ishonchszlikka moyilligi bilan tushuntiriladi. Keyns ta'limoti bo'yicha bandlikning umumiy hajmi uch omilga "iste'molga moyillik", "Eng yuqori sama-radorlik" va foiz normasiga bog'liq.

1. Iste'molga moyillikning yagona iste'molga talab qonuni mavjud.
2. Kapitalning eng yuqori samaradorligi qo'shimcha kapital birligi tomonidan vujudga keltiriladigan bo'lajak foydaning shu birlikka ketgan ishlab chiqarish chiqimlariga nisbatidir. Keynsning fikricha daromad foyda keltiradigan narsalar kapital hisoblanadi.
3. Keyps foizga ko'proq e'tibor beradi, uni pul narxi uchun berilgan haq deb hisoblaydi.

Keynsning fikricha investitsiyalarning umumiy bandlik hajmini aniqlash va uni iste'mol talabini yelarli emasligini to'ldirish kerak. Bunda ishlab chiqarishni kengaytirish iste'mol talabini oshiradi. Investitsiyalarning ko'payishi ishlab chiqarish qo'shimcha ishchilarni jalg etishga olib keladi. Bu esa, bandlik, milliy daromad va iste'mol usulini ta'minlaydi. Yangi investntsiyalar tufayli bandlikning dastlabki usuli yana qo'shimcha bandlikni vujudga keltiradi. Chunki qo'shimcha ishchilarni talabni qondirish zarurati tug'iladi. Qo'shimcha bandlikning o'sish kaeffitsnentini Keyns multiplikator deb ataydi. U bir tomonidan investitsiyalar o'sish o'rtasidagi nisbatni ko'rsatadi.

Multiplikator formulasi:

$$K = dYw / dJw$$

K- Multiplikator

Yw- daromad o'sish

Jw- investitsiya o'sish

U iste'molga ketgan sarflar o'sshining daromadlar o'sishiga nisbatini bildiradi. Keyns o'zining iqtisodiy dasturni ilgari suradi. U iqtisodiy inqirozlarni tan olmaydi. Ammo kapitalistik tuzim mexanizmi bu voqealarni avtomatik tarzda hal qilish imkoniyatiga ega emas. Hozirgi vaqtida bu ishlarni yakka holda hal qilib bo'lmaydi. Bunda davlat soliq tizimi, foiz normasini cheklash ba'zan boshqa yo'llar bilan iste'molga moyillikni oshirishga yordam berishi kerak, deydi.

Keyns foiz normasini tartibga solish orqali xususiy tadbirkorlarni qo'llab quvvatlash kerak deydi. Buning uchun pulni ko'proq emissiya qilib foiz cheklangan xolda tadbirkorlarga beriladi. To'la bandlikni ta'minlash uchun faqat investitsiyalar emas balki milliy daromadni tartibga solishni taklif etadi. Buning uchun soliqlarga murojaat qilish kerak deydi. O'z holining jamg'argan muomalaga kiritish uchun soliqlarni oshirish kerak va omonat davlat investitsiyalarini oshirish uchun foydalanish mumkin. Shu vaqtining o'zida boylar oshirishga qarshilik qiladi. U mexnatkashlarning soliqlarini oshirishdan maqsad ularning jamg'armalarini kamaytirib iste'molni rag'batlantirishdir. Real ish foizini pasaytirish uchun inflyatsiya asosida narx-navoni oshirish yo'lli tavsiya qilishadi. Ish haqini pasaytirmasdan to'liq ish bilan bandlikni ta'minlab bo'lmaydi, deb ishchilarga uqtiriladi. Ishchilarga murojaat qilib, u ish haqini oshirish uchun kurashish kerak emas, deydi. Chunki jami real ish haqining ishchilarning turli guruhlari o'rtasida taqsimlanishiga olib keladi. U ish haqini o'zgartirmaslik siyosatini o'tkazish va shu yo'l bilan narx-navoning o'sishi sababli ish haqini oshirish talablarini yo'qqa chiqarishni taklif etadi, chunki shu yo'l, bilan ishsizlikning oldi olinadi.

Kapitatstlarga real ish haqini pasaytirishning ahamiyati tushuntiriladi. U "nominal ish haqini ham pasaytirishga qarshi emas edi. Ishsizlik va inqirozlarga qarshi kurash bahonasida unumsiz iste'molning barcha ko'rinishlari turli yo'llar bilan reklama qilinadi. Iqtisodni harbiylashtirish bilan birga hukmron sinflarga parazitik iste'molini oshirish ana shunday yo'llar bilan kiritiladi.

Keynsning g'oyalari buyuk inqiroz ta'sirida qayt bo'ladi. 1929-33 ishlardagi bu buyuk inqiroz butun Amerikani larzaga keltirdi. Ishlab chiqarishning yarmi qisqardi. 17 mln aholi ishsiz edi, 9 mln omonatchi kuyib qoldi. Ana shunday inqirozdan qutqarshi yo'lli davlat xarajatlari ekanligi ko'rsatildi. U klassik sistemalarga qarshi edi.

3. Yangi keynschilik «Neoklassik sintez» (D. Xiks, E. Xapson)

J.M. Keyns g'oyalari uning izdoshlari tomonidan davom etirildi. U 3 oqimga ajraldi. Viz bu oqimlarshi keynschilik deb atamiz.

1) O'ng va o'ta reaksiyon oqim agressiv qurollanish iqtisodiyotni fashistik yo'l bilan tartibga solishi qo'llaydi.

2)Liberal oqim ham mononoliyalar manfaatlarini himoya qilib ammo qurollanishni inkor etadi.

3) So'l Keynschilik. Uning asosiy g'oyasi milliy daromadni to'g'ri taqsimlash yo'lidir, chunki u talab darajasiga samarali ta'sir etadi bu g'oyalar ingliz iqtisotchisi Jeniy Robinsoining "Kapital jamg'arilishi" kitobiga ifoda etilgan. Germaniya fashistlari Keyns g'oyalarini qo'lladilar. Fransiyada tartibga solinadigan kapitalizm tarafdarlari paydo bo'ldi, ular nazariyalarini «dirijizm» deb atadilar. Keyns ta'limoti ayniqsa, AQSh da katta shuhrat qozondi. Garvard universitet professorlari A.X.Xatssen va S. Harrislarning asarlarida bu g'oyalar rivojlantirildi va dastlab yangi keynschilik, keyniroq esa ortodoksal keynschilik deb ataldi. Xanseninig fikricha kapitalizm qiyinchiliklari uning ichki qarama-qarshiliklaridan emas, balki «tashqi impuls» larning susayganligidir. Davlat xarajatlarini o'stirish uchun soliqlarni oshirish taklif etiladi, ularning fikricha ish haqining 25-30 foizi emas balki 60 foizini aniq sifatida olish, shuningdek «me'yordagi inflyatsiya» ham taklif etiladi.

A. Xansen, K.Klark va boshqalar multiplikator kantseptsiyasini tuzdilar. Multiplikatorlar ta'siri keyningi qator davrlarida ham bo'ladi ya'ni uni uzlusiz jarayon deb qaradilar.

Yangi keynschilar samarali talabdan ham yuqori keskin o'sishni tushuntirishga harakat qildilar. Ular multiplikator prinsipini akseleratsiya printsipli bilan to'ldirdilar. Multiplikator prinsiniga ko'ra investitsyaning qanday ishlatilishi juda muhim ahamiyatga ega emas, u shu bilan bandlikni ta'minlab, daromadni oshirishi kerak. Yangi keynschilar esa investitsiyani qanday ishlatilishiga katta e'tibor berib, industirlashgan investitsiya tushunchasini kiritdilar. Akselerator investitsiya o'sishining daromad o'sishiga nisbati bilan aniqlandi. Multiplikator va akeselator g'oyalariga asoslanib iqtisodiyotining uzlusiz o'sish sxemasi ishlab chiqildi, uning asosida davlat kapitan quyimalari yotadi. Davlat byudjeti kapitalistik iqtisodiyotda tartibga solinadigan bosh mexanizm hisoblanadi.

Soliqlar iqtisodiyot o'sganda oshadi va inqirozlar davrida kamayadi. Davlat to'lovlar esa aksincha, inqiroz davrida oshadi va o'sish davrida kamayadi. Shu yo'l bilan Xansenning fikricha samarali talab me'yorlashadi. Bunda xususiy kapital qo'yilmalarini tartibga solish va davlat xarajatlariin sharoitga qarab o'zgartirish chegaralari ham belgilanadi. O'sish davrida davlat xarajatlarini cheklash, inqirozlar davrida uni oshirish va shu yo'l bilan xususiy xarajatlarni kompensatsiyalash taklif etiladi, harbiy iqtisod maqtaladi, uni konyukturani me'yorlashning eng yaxshi vositasi deb qarashadi.

XX asrni 40 yillari Keyns g'oyalarini Fransiyada ham shuhrat qozondi, Keyns g'oyalarini to'laligicha (G. Ardan, P.Mendes-Frans)" qabul qilganlar ham bo'ldi. Ba'zilari (F. Perru) ssuda foizini tartibga solishni samarasiz deb hisobladilar, bundan ko'ra iqtisodiyotni rejorashtirish taklif

etiladi. Bunda davlat yo'li bilan tartibga solishni monopolistik kapitalning xususiy manfaatlariga moslatitirish kerak deyiladi. Fransuz olimlari imperativ va induktiv rejalarashtirishni ajratishadi. Imperativ rejalar direktiv xarakterga ega (sotsialistik rejalarashtirish). Indikativ rejalarashtirishda reja markazi asosiy maqsadlarni belgilaydi va turli uslublar bilan tadbirkorlarni ma'lum hatti harakatlarga yo'naltiradi. Ular faqat davlat sektoridagi korxonalar uchun zaruriy hisoblanadi. (Hindiston, Malaziya va boshqalar bir qancha kapitalistik mamlakatlarda shu usul qo'llaydilar). Uzoq muddatli ma'lumotlar va rejalar tuzish keng qo'llanilmoqda.

Keyns uslubi kapitatizmdagi iqtisodiy inqirozlarning oldini olishga qaratilgan edi. Ammo ikkinchi jahon urushidan keyni AQSh va boshqa mamlakatlarda bu inqirozlar davom etmoqda. 1948-49, 1953-54, 1957-58, 1960-61, 1967, 1969-71, 1974-75 va 1981-82 yillardagi hamda boshqa inqirozlar bu fikrimizning dalilidir.

Bular Keyns ta'limotini tanqid qilish uchun asos bo'ldi. Masalan, S.Harresning fikricha, Keyns barcha qiynichiliklarni hisobga ola olmagan, masalan, to'la bandlikka erishish haqida gap boradiyu, qanday qilib uni doimo ta'minlash haqida taklif yo'q, inflyatsiyaning eng katta darajasi noaniq, davlat qarzlarining chegarasi ham berilmagan.

4.Hozirgi zamon keynschilikning evolyutsiyasi va ahamiyati.

Post keynschik

Keyinchilik yangi keynschilik o'rniغا postkeynschilik vujudga keldi. Ingliz iqtisotchilari J. Robinson, N. Kaldor, P. Sraffa, amerikalik olimlar A. Eyxner, S. Vayntraub mana shu postkeynschilik guruhiга kiradilar. Ular kapitalistik tizimning ichki turg'unligi konsepsiyasini tanqid qiladilar. Keyns nazariyasi bo'yicha go'yoki asosiy g'oya kapitalistik iqtisodiyotning nostabilligi bo'lган. Yangi keynschilik g'oyalari ham tanqid ostiga olinar ekan, agar boshqa olimlar Keyns g'oyalarini statik, ya'ni turg'un deb qarasalar, ular bu ta'limotni dinamik, ya'ni harakatchan nazariya deb qaraydilar.

Post keynschilarining avvalgi davrda paydo bo'lagan «yuqori naf», «Ishlab chiqarish omillarining eng yuqori unumi» nazariyalarini tanqid qilishi xarakterlidir. Ular o'z g'oyalarini D.Rikardonning qiymat qonuniga asoslanib ilgari suradilar. Ularga polshalik iqtisotchi M. Kaletskiyning taqsimot konsepsiysi qo'l keldi . Investitsiyalar o'sishi bilan ayrim sinflar iste'molining hissalari o'rtasidagi bog'lanish qonuniyati qarab chiqiladi. Postkeynschilar o'z tadqiqotlariga ijtimoiy-iqtisodiy institutlar masalan, kasaba uyushmalari rolni ham kiritadilar. Bu ta'limotda o'sish va taqsimot muammolari markaziy o'rinni egallaydi. Ishlab chiqarish suratlari milliy daromadning taqsimotiga bog'liq, daromad va uning o'sishi esa jamg'armaga, umumiy jamg'arma esa ish haqi va foyda undan jamg'arilgan jami summaga bog'liq. «Jamg'arishga moyillik» har kimda har xil bo'lgani sababli, taqsimotdagi o'zg'arishlar

jamg'armaning umumiyligi summasiga ta'sir etadi. Demak, milliy daromadni taqsimlash uning o'sishiga ta'sir qiladi.

Undan tashqari, milliy daromadni taqsimlash kapital surati foyda normasini belgilaydi va demak, milliy daromad qoldiq miqdori sifatida qaraydi, ammo ishchilar ko'rashib, bu nisbatga ma'lum o'zgarish kirishi mumkin. Bu yo'naliш tarafdarlarning fikri real haqiqatga ancha yaqin g'oyalari hisoblanadi.

Postkeypschilar iqtisodiy esiyostlarida kapitalistik iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmini yanada takomillashtirish tarafdarlari edilar, ko'pchilik «daromadlar siyosati»ni oshirdi, chunki bu yo'l bilan infliyatsiyaga qarshi kurashish mumkin.

70-yillarda keynschilik siyosati AQSh iqtisodiyotida makroekonomik masalalarni hal etishda samarasiz bo'lib qoldi, shunda R. I. Lukas, T.J.Sardjent, N.Uolleslar Mutining maqolasida aytilgan g'oyalari takomillashtirib, moliya aktividagi narxlar harakatini «ratsional yutilmalar» asosida tushuntirib berdilar. Ularning fikricha, (davlat xodimlari) qo'lidagi informatsiya asosida shakllantiradilar va o'z-o'zidan tushunarlik, iqtisodiyotga siyosatchilarning imkon boricha kamroq aralashuvi uchun harakat qiladilar. Amalda iqtisodiy agentlar narxlar inqirozini shakllantirishda, ya'ni narxlar o'zgarishini kutganda, bozordagi haqiqiy baholarni aniqlash kabi usullardan foydalanar ekanlar. Bu kutilmalar har doim ham bexato bo'ladi va degani emas va ko'ra bilish mukammal emas, chunki iqtisodiyot tasodifiy, oldnidan aytib bo'lmaydigan shok o'zgarishlariga uchrab turadi bu esa narxlarning sub'yektiv kutilmalarining o'rtacha miqdoriga yoki «matematik kutilma» ga teng bo'ladi, bu aslida ob'yektiv taqsimotdir. Ratsional progres yoki kutilma shunday xususiyatga egaki kutilayotgan xato har doim nolga teng bo'ladi. R.I.Lukas «ratsional kutilmalar» nazariyasi uchun 1995 yilda Nobel mukofoti laureati bo'ldi.

Tayanch iboralar:

Tartibga solinadigan bozor iqtisodi. Keynsning iqtisodiy nazariyasi. Multiplikator va akselerator tushunchalari. Ortodoksal keynschilik.

Takrorlash uchun savollar:

- 1.Tartibga solinadigan bozor iqtisodiyoti nazariyasining iqtisodiy shart- sharoitlari
- 2.J.M.Keynsning iqtisodiy nazariyalarini sanab bering.
- 3.Keynschlikning boshqa ta'limotlardan qanday farqi bor? 4.Multiplikator va aksilyator tushunchalari nimalarni anglatadi?
- 5.Keynschliar fikricha davlat iqtisodiyotida qanday rol o'ynaydi?
6. Yangi keynschilikni qaysi namoyondalarni bilasiz?
7. Ortodoksal keynschilik nimani anglatadi?

15-MAVZU: YANGI KLASSIK MAKTAB EVOLYUTSIYASI VA NEOLIBERALIZM.

HOZIRGI ZAMON KONSERVATIZMI. INSTITUTSIONALIZM

Reja:

- 1.Yangi klassik maktab evolyutsiyasi va neoliberalizm. «Ijtimoiy bozor xo'jaligi» nazariyasi.**
- 2.Hozirgi zamon konservativmning asosiy oqimi-monelarizm iqtisodiy nazariyasi**
- 3.Institutntsionalizm yo'naliqhining g'oyaviy, nazariy asoslari. Amerika institu-titsionalizmi vujudga kelishi.**
- 4.Institutsionalizmdan markaziy muammolari. Kapitalizm transformatsiyasi nazariyalari informatsion va industrial , podindustrial jamiyati nazariyalari evolyutsiyasi.**

1.Yangi klassik maktab evolyutsiyasi va neoliberalizm. «Ijtimoiy bozor xo'jaligi» nazariyasi.

XIX asrning II yarmndagi iqtisodiy tafakiur tarixi Marksizm" tashmoti-ning pay do bo'lishi va rivoji bilan ajralnb turadi.Bu ta'limot o'z davrining buyuk iqtisotchisi deb etirof etilgan. K. Marks ta'limoti bo'lib, prolelar siyosiy iqtisotchi deb nom chiqargan, XX asr ham iqtisodiyot nazariyasi sohasida o'z donishmandlarini yaratdi, ular jumlasiga: M. Keyns, A. Marshall, M, Fridman kabilalar kiradi. Ularning g'oyalari hozirgi zamop iqtisodiy nazariyalarining asosini tashkil etadi.

Ta'limotlar tarixidagi nazariyadagi liberalizm oqimi G'arbiy Yevropa mamlakatlarida keng tarqagan. Liberalizm asrimizning 20-30 yillarida shakl-langan. Hozirgi zamon nufuzli nazariya hisoblanadi. Uning eng, yirik vakillari L. Mizes, F. Xayek, E.Repke E.Oyken kabilardir. Ular iqtisodiy nazariyadagi Avstriya Germaniya maktabining namoyondalaridir. Liberalizm erkinlik tarafdori bo'lishini bildiradi. U nazariy oqim sifatida bozor iqtisodiyotiga xos erkin faoliyat yuritish qoidalariiga yo'l ochib berish zarurligini iqtisodiyotda bozor regulyator orqali muvozanatga erishish mumkinligini tan oluvchi nazariyadir. Mazkur nazariya Keynschilarining davlatni iqtisodiyotga faol aralashuvi haqidagi g'oyalarini iqtisodiy totalilarizm deb qaraydi va o'nga qarshi chiqadi. Davri davlatining sotsial muvozanatni ta'minlashdek vazifani maql deb hisoblaydi.

Hozirgi zamon liberalizmning neoliberalizm, ya'ni yangi liberalizm ko'rinishlari mavjud. Neoliberalizmning Germaniyaga xos yo'naliishi ordoliberalizm nomi bilan yuritiladi. Bu yo'naliishi sotsial-bozor xo'jaligi nazariyasi deb ham atashadi. Neoliberalistlar davlatining iqtisodiyotga faol aralashuvini iqtisodiy totalilarizmga, aniqrog'i markazlashgan rejali iqtisodiyotga olib keladiki, bu bozor iqtisodiyotiga xos tashabbusni yo'q qilib, iqtisodiy turg'unlik yaratadi, deb hisoblaydilar.

Neoliberalistlar vakillarining asarlarida bozor mexanizmining iqtisodli o'sishini ta'minlash maqsadida resurslarni turli sohalar, va faoliyat turlari o'rtasida taqsimlashga qodir ekanligi asoslab beriladi.

Neoliberalizm ta'limotida samarali xo'jalik faoliyati moddiy rag'batlantirish katta o'rincutadi. Iqtisodiy rag'batlarni iste'molchining tovar va xizmatlarni afzal ko'rishi asosida ularni tanlab olish imkoniy yuzaga chiqarali deb qaraladi.

Shu sababli tanlashga imkon beruvchi vaziyatni saqlash iqtisodiy o'sishda bosh masala deb bilinadi. Neoliberallar barcha umidni bozor mexanizmiga bog'lab, davlatining rolini umuman inkor etmaydilar, albatta. Ular davlat faoliyatini uning qonunchilik yo'li bilan bog'laydilar, davlatga erkin bozor munosabatlarini ta'minlovchi qonun bu tartiblarni joriy etish, ularga rioya qilish ustidan nazorat qilish tavsiya qilinadi. Neoliberalizm tarafdarlari davlat iqtisodiyotiga hamma uchun teng sharoit hozirlashi kerak, erkin raqobatda yutib chiqib esa, iste'molchilar tanloviga javob bera bilishiga bog'liq deb qaraydilar. Davlatining qonunchilik ishlari bozor sub'yektlarining o'zgarib turuvchi sharoitga moslashib olshilari uchun zarur aks holda bozor iqtisodiyoti ishdan chiqishi mumkin, chunki uning sub'yektlari nima qilishni bilmay gangib qolishlari mumkin. Neoliberalizmning bozor mexanizmiga ustunlik berish g'oyalarini ko'pchilik nazariyachilar qo'llab quvvatlaydilar. Ammo hozirgi iqtisodiyot bu klassik bozor iqtisodiyoti emas, u aralash iqtisodiyot bo'lib unda turli tuman mulk sohiblari qatnashadi, bu bozor xo'jaligining yuritish shakllarining har xil bo'lishi bilan ajralib turadi.

Iqtisodiy liberalizm oqimning XX asrdagi asosiy namoyondasi asli Avstriyadan chiqqan Amerikalik Lyudvig fon Mizes (1881-1973) va uning eng sobiq shogirdi Fredrix Xayek (1899-1992)lardir. Ularning maktabi Avstriya maktabi deb ham ataladi. Mizesning fikricha, markazlashgirilgan boshqaruvga asoslangan sotsialistik xo'jalik va hukumat tomonidan tartibga solinadigan bozor uzoq vaqt yashashi mumkin emas, chunki narx-navo talab va taklifni aks ettirmaydi. Uningcha sotsializmni «tartibga soladigan iqtisodiyot» rejalarini o'z boshimchalik bilan tuzadigan tashkilotchilarning quliga aylanadi, tartibsizlik ro'y beradi. Yagona oqil siyosat-bu liberalizmdir. Mehnat taqsimoti, xususiy mulk va erkin almashuv sivilizatsiyasining mutlaq asoslari hisoblanadi. Mizesning asosi asarlari quyidagilar: «Liberalizm», «Insoniy harakat iqtisodiyot to'g'risidagi traktat», «Iqtisodiy fan asoslari: metodologiya ocherklari» va boshqalar.

Ingliz iqtisodchisi Fridrix fon Xayek asli nemis bo'lib, asosiy faoliyati Angilyada ko'rsatgan. U 1974 yilda iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureate bo'lgan. U o'zining «Qullik sari yo'l» asarida har qanday iqtisodiy erkliligidan va bozor baholaridan voz kechish diktaturaga, ya'ni yakka hokimlikka, iqtisodiy qullikka olib borishini isbotlaydi, xo'jalikda bozor tizimining «aralash» va «buyrukbozlik» iqtisodiyotidan ustunligini ko'rsatib beradi, kapitalni abadiy kategoriya deb elon qiladi, kapitalizm davrida ekspluatitsiya mavjudligini inkor etadi, davlat

iqtisodiyotining sotsialistik g'oyalari to'la tushkunlikka mahkum qiladi va o'z tabiatiga ko'ra halokatli ekanligini takidlaydi.

Bu ta'limotga asoslanib, bir qancha malakatlarda hozirgi yaxshi tanish bo'l-gan iqtisodiy siyosatlar ishlab chiqildi. Shular ichida neoliberalizmga asoslan-: gan nemis nazariyotchisi, Germaniyaning siyosiy va davlat arbobi Lyudvig Erhard (1897-1877) yaratgan nazariya «ijtimoiy yo'naltirilgan bozor xo'jaligi»ning asosini tashkil etadi. U o'z nazariyasini yaratdi va uni Germaniyada kanser Adenauer davrda amalga oshirdi ham. Bu nazariyaning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat: erkin baholarning zarurligi, erkin raqobat, talab va taklifning muvozanati, iqtisodiyotining muvozanati; davlat bozor xo'jaligida shu shartlarni kafolatlashi va uning ijtimoiy yo'naltirilgan rivojlanishini ta'minlashi kerak. Bu g'oyalar E.L. Erhardning 1956 yilida chop etilgan «barcha uchun farovonlik» kitobida ifodalab berilgan. Nemis olimlari A. Ryustov, Volteoelken (1891-1950) shvesariyalik V. Reke (1899-1966) lar ordoliberalizm, ya'ni «O'rta yo'l ta'limotiga asos solgan bo'lib, ijtimoiy bozor uning birinchi varianti hisoblanadi». Ular «Insonparvar jamiyat», «Xo'jaliklarining ideal turlari» haqida fikr yuritadilar.

Sotsial bozor xo'jaligi konsepsiysi (uning taniqli vakillari;

A. Myuller-Armak va L. Erhard) iqtisodiy tizimlarni ikkiga bo'ladi:

- a) sof raqobat tizimi .
- b) markazdan boshqaradigan xo'jalik tizimi ularning har ikkalasiga ijobiy tomonlarini biriktirib "uchinchi" yo'l hosil etadi. Sotsial bozor xo'jaligi konsepsiysi bozor qonunlariga ustivorlik bergani holda davlatining iqtisodiyotni tartiblashdan iborat ishiga quyidagicha talqin beradi: davlatining iqtisodiy jarayonlarga bevosita aralashuvi rad etiladi, ammo davlatining qonunchilik faoliyati orqali bozor munosabatlariga yo'l ochib berilishi zarurligi tan olinadi, davlat iqtisodiy va sotsial tartibni saqlovchi bosh posbon, davlat posbon sifatida hammani nazorat qiladi, davri bozorning narx-navo orqali bajarilib turuvchi jarayonlariga aralashmasligi lozim. Binobarin, bozor xo'jaligi va uning qonunlari, inkor etilmaydi, davri ular belgilangan doira chegarasida rivojlanishi shart bo'ladi.

Aytiganlardan xulosa qilish mumkinki, sotsial bozor xo'jaligi nazariyasida ham instntutslonalizm, ham liberalizm g'oyalari jamlanadi. Mazkur nazariya sotsial tartibot doirasida inson manfaatini iqtisodiy o'sish bilan bog'laydi. Sotsial bozor xo'jaligi konsepsiyasida davlat ishtirokida daromadlarni qayta taqsimlash orqali tushish darajasidagi tafovutlarni qisqartirshiga ham e'tibor berilgan. Bunda shu narsa hisobga olinadiki, farovonlik uchun shaxsiy mas'uliyatining bo'lishi turmush darajasida keskin farqlarga olib keladi, ammo davlat daromad solig' undirish, muxtoj oilalarga subsidiya berish; ularga bolalarni tarbiyalash turar joyni ijaraga olishda ko'maklashuv orqali aytigan farqlarni susaytiradi. Nazariyachilar tavsiyasidan kelib chiqqan holda davlat kichik va o'rta biznesni qo'llaydi, kooneratlshtr rivojiga yo'l ochadi.

2.Hozirgi zamom konservatizmning asosiy oqimlarning Monetarizm iqtisodiy talab taklif nazariyasi yangi klassik mikroiqtisodiyot.

Monetarizm iqtisodiy nazariya sohasida keng tarqalgan mashhur oqim va nufuzli oqimdir. Bu oqimning ko'zga ko'rigan namoyondasi M. Fridman hisobla-nadi, u Nikogo Uliversitetining (AQSh) professor iqtisod sohasida Nobel mukofoti sohibi. Hozirgi zamon monelarizm bu guruh iqtisodchilari qalamiga mansub. «Pulning miqdoriy nazariyasiga oid taddiqotlar» deb nomlangan asar bilan asos solingan.

Monetarizm keynschilar ta'limotiga muqobil saviyadagi nazariya hisobla-nadi. Uning bosh g'oyasi-iqtisodiy o'sishni bozor mexanizmi ta'minlaydi, bu me-xanizmning asosiy vositasi pul degan xulosadan iborat. Monetarizm pulni ol-qishlovchi nazariyadir. Monetaristlar iqtisodiy o'sishning eng muhim sharti in-flyatsiyani daf qilish va pulni sog'lomlashtirish, pulni hisob-kitob muomalasi vositasiga aylantirish, deb qaraydilar. Ularning fikricha, davlatining iqtisodiyotga aralashuvi inflyatsiyani kuchayib ketishiga sabab bo'ladi. Shu borada uning iqtisodiy faoliyatida pul muomalasini tartibga solish bilan cheklanishi kerak. Keynschilar va monetaristlar iqtisodiyotni tartiblashga yondashishi bo'yicha bir-biridan farqlanadliar. Keynschilar barqarorlikka bozor mexanizmi orqali erishib bo'lmaydi, unga davlatining aralashuvi zarur deb qarasalar, monetaristlar esa, aksincha, bu vazifa bozor mexanizmining ishi, chunki bozor iqtisodiyotiga ichki barqarorlik bera oladi deb, hisoblaydilar.

Monetaristlar iqtisodiyotga amaliy jihatdan yondashib pul masalasini yilga 3-5% oshirishni tavsiya qilishadi, ammo bu iqtisodiy ahvoldan mustasno ravishda yuz berishi kerak. Pul massasini bunday ko'paytirib turish ko'pchilik emissiya tajribasiga tayanib hisoblab chiqilgan. Ammo monetaristlar keyingi paytlarda iqtisodda yuz bergen o'zgarishlarni, chunonchi iqtisodiy o'sish barqarorligi uni ta'minlashda intensiv omillar roli oshganligi, pul oboroti tezlashganligi kabilarni inobatga olinib pul massasini doimiy ravishda ma'lum davrda oshirib borishi maqul deb biladilar. Bu meyor shudayki, pul miqdorining o'sishi mehnat unumdorligining o'sishi suratiga nisbatan 1-2% yuqori bo'lishi kerak. Pulning bir meyorda o'sib borish iqtisodiyotni barqarorlashtirish va siklik tebranishlardan chiqish imkonini beradi. Shu sababli davlat va uning nazoratidagi markaziy bank pul muomatasi borasida qattiq siyosat o'tkazish kerak bo'ladi. Agar 30-yillardan boshlab g'arb mamlakatlari keynschilar tavsiyasiga e'tibor berib kelgan bo'lsalar, 80-yillardan boshlab, monetaristlar g'oyasini amalga oshira bordilar. Ko'pi AQShdagi "reyconomika" siyosatida shuningdek, M. Fridman, B. Britaniyaning M. Tetcher huqumatiga maslahatchi bo'lishdan ko'rish mumkin. Monetaristlar tavsiyalariga binoan, bir qator monetaristlarda qonun yo'li bilan pul massasini o'sish miqdori aniq ko'rsatiladi. Uning eng quyi va yuqori chegaralari belgilanadi. Monetarizm uchun bosh masala antiinflyatsion siyosatini asoslashdir. Monetarizm tavsiyasiga amal qilgan bir qator mamlakatlarda bir qator pul miqdori ustidan qattiq nazorat

o'rnatish inflyatsiya damini kesib, uning muddatini zaiflashtiradi. Bu esa iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Institutsnonalizm yo'nalishning g'oyaviy, nazariy asoslari. Amerika institutsionalizmining vujudga kelishi.

Institutsionalizm ijtimoiy hodisalarining iqtisodiyotga ta'siri birlamchi ahamiyatga ega deb hisoblaydigan nazariyachilarni birlashtiruvchi oqimdir. U AQShda paydo bo'lgan. Uning yirik namoyondalari: T. Veblen, J. T. Kommons, U. Lentgeli, J. K. Gelbreyt va boshqalar.

Institutsionalizm vakillari iqtisodiy hayotni harakatlantiruvchi kuch institutlar, deb hisoblashadi va ularni oila, monopoliya, kasaba uyushmalari, turli klublar tashkil etipshi qayd etadilar. Ularning faoliyatida turli guruh kishilarining odatlari, ananalari, ilohiy, umuman fel-atvori namoyon bo'ladi deb, qaraydilar. Ular iqtisodiy kategoriyalarni xususan foyda, foiz, renta, divident, pul, kredit, ish haqi, nafaqa kabilarni ijtimoiy psixologiya ko'rinishi tarzida talqin qilib, iqtisodiy hayotining birlamchi o'rinda turishini rad qiladilar.

Ular iqtisodiy voqeylek ko'rinishlarini inson psixologiyasi huquqiy munosabatlarga bog'liq deb qaraydilar. Keyningi institutsionalizm vakillari faoliyat turiga e'tibor berib, uning o'zi mulkchilikni yuzaga keltiradi, natijada aholi sotsial guruhlari o'rtasidagi ziddiyatlar barham topadi. Jamiyat satsial totuvlik bosqichiga kiradi, deb hisoblaydilar.

Ularning takidlashicha kelajak bu sotsial optimal eng maqbul darajaga kelgan jamiyat bu jamiyatga kelgan qonunlarni olimlar va texnokratiya boshqara oladi. Institutsnonalizm vakillari sotsial psixologik omillarga afzallik bersalarda, iqtisodiy hodisalarini chetlab o'ta olmaydilar. Ular makroiqtisodiy tahlil tarafdoi, ularning fikricha ijtimoiy taraqqiyotni faqat umumiqtisodiy tahlil asosida anglash mumkin, chunki mikraiqtisodiy yondashuv iqtisodiy munosabatlarni ham umumjamiyat miqyosida qarab chiqib, jamiyagning barcha sotsial guruhlari o'rtasida garmoniya bo'lgandagina ijtimoiy totuvlik vujudga keladi. Bu esa iqtisodiy o'sishga ko'mak beradi, deb qaraydilar. Institutsnonalizm vakillari ham keynischilar kabi davlat faoliyatiga katta e'tibor berishadi. Ammo ular davlat bozor xo'jaligi aloqalariga aralashmasdan, o'zining siyosiy, huquqiy faoliyati orqali bozor munosabatlarini erkin borishini ta'minlashi, iqtisodiyotda tirrom raqobat va mopololiyaga yo'l qo'ymasliklari kerak, deb hisoblaydilar. Xullas, ular davlat yordamida bozor iqtisodiyoti samaradorligini oshirish tarofdoi. Shu nuqtai nazardan ular iqtisodiy sikllarni taqiqladilar. Ularga xos belgilarni o'rganadilar. Nazariyadagi institutsionalizm oqimi G'arbiy Yevropa mamlakatlarida keng tarqagan.

4. Institutsnonalizmdan markaziy muammolari. Kapitalizm transformatsiyasi nazariyalari informatsion va «industrial» va «postdindustrial jamiyatlar» nazariyalari evolyutsiyasi.

Institutsionalizm evolyutsiyasi (rivojlanishi)ni uch davrga bo'lish mumkin.

20-30 yillarda institutsionalizmning keng tarqalishi. Bu davrning bosh mafkurachisi Veblendir. 1857- 1920 uni J. R. Kommons (1862-1945). U. Mitchell (1874-1948), J. Tobson (1858-1915) U. Gamiltonlar faol himoya qilganlar.

P. urushdan keyningi kechki institutsionalizm. Bu davr mafkurachilar iqtisodiyotda qarama-qarshiliklarni izohlab berish bilan birga Ruzvelt tomonidan ilgari surilgan «yangi kurs» islohotlarini amalga oshirish bo'yicha tavsifnomalarni ham ilgari surdilar. Ular demografiya va antropolognyani o'rgandilar, ishchilar harakatining kasaba uyushmalari nazariyalarini o'rganib chiqdilar. 50-yillarda J. M. Klark «Iqtisodiy institutlar va insonlar farovonligi», Berle «Mulksiz hokimiyat» va «XX asr kapitalistik inqilobi» kitoblarini chop ettirdilar.

III. 60-70 yillarda ijtimoiy-institutsional yo'nalish paydo bo'ldi.

60yillardagi institutsionalizm asoschilar amerikalik nazariyotchi A. Lou, shvetsialik iqtisodchi G. Myurdal tomonidan ishlab chiqildi.

Institutsionalizmning 3ta asosiy oqim vujudga keldi:

1. ijtimoiy-psixologik;
2. ijtimoiy-huquqiy;
3. emperik yoki konyuktura statistik oqimi. Ularning barchasi ozmi ko'pmi burjua jamiyatni ilohiy-psixologik jihatdan tanqid ostiga oladilar.

Bu yo'nalish g'oyalariga baho berib, g'arb iqtisotchilar institutsionalizmni «Formalizmga qarshi g'alayon»deb qaramoqdalar. Ijtimoiy psixologik institutsionalizmning asoschisi Veblen va uning tarafdarlari iqtisodiy jarayonlarga psixologik jihatdan yondoshib rivojlaiyshning psixologik nazariyasini yaratishga intildilar. Veblenning asosiy asarlari «Fanning hozirgi sivilizatsiyadagi o'rni va boshqalar ocherklari» kabi kitoblarida o'z aksini topadi. Uning asarlarida kapitalizm illatlari xususiy mulk bilan tushintiriladi. Uningcha, xususiy mulk ayniqsa, rante borligi tufayli, aholining ma'lum bir qismi parazitlikda hayot kechiradi. Shu tufayli kapitalizmning harakatlantiruvchi kuchi buzilib boradi, deydi.

Veblen iqtisodiy jarayonlarni shakllangan ananalar sifatida tahlil etadi. Ana shunday ananaviy harakatlantiruvchi kuchlar qatoriga ota-onalar his tuyg'usi, usta instinkti, ya'ni yaxshi ishlashga intilish, ilmga chanqoqlik, sof qiziquv kiritiladi.

Veblen zamoniyl industriyal texnologik konsepsiyanlar asoschisi bo'lib hisoblanadi Industriya olamiga alohida e'tibor beradi va unga barcha ishlab chiqaruvchilar birinchn navbatda muhandis va ishchilar kiritiladi. Industriya olami mehnat unumdarligini o'stirish, ishlab chiqarish jarayonini yaxshilash va samaradorligini oshirishni maqsad qilib qo'yadi. Ishlab chiqarish asosan texnik ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi. (ya'ni texnik asos darajasi, malaka, bilim va boshqalar). Biznes olami deganda u moliyachilar, trest tashkilotchilar tadbirkorlikni tushinadi. Uningcha, biznes

imkoni boricha yuqori foyda uchun intiladi. Shu sababli uni tanqid qiladi. Veblen mavjud tizimni o'zgartirish to'g'risida gapirib, hokimyatini texnik intelejentsiya qo'liga berishni taklif etadi. Buning uchun barcha injener texnik xodimlar ish tashlashlari kerak, shundagina tadbirkorlar ularning shartlarga ko'nishga majbur bo'ladilar. Kapitalizm transformatsiyasi texniklar kengashi vositasida bajariladi. Hozirgi zamon jamiyatida intelejensiyaning roliki birinchi o'rninga qo'yadi.

J. R. Komons ijtimoiy - huquqiy institutsionalizmning vakili hisoblanadi. Uning asosiy g'oyalari Amerika tred yunionizmi mafkurasini ifodalaydi.

Uning ta'limoti jamiyat institutlari faoliyatini oila, ishlab chiqarish korporatsiyasi, savdo birlashmalari, tred yunionlar davlat va yuridik huquqiy munosabatlar tadqiq etish bilan bog'liq. U mavjud tizimni modernizatsiya va isloh qilishga intiladi, biznes tizimini shunday samarali qilish kerakki, u o'zini o'zi saqlashga qodir bo'lsin, deydi u. Kommonsning asosiy g'oyalari «Kapitalpzmning xuquqiy asoslari» (1924 i), «Institutsional taraqqiyot va uning siyosiy iqtisoddagi o'rinni» (1934Y), «Jamo faoliyatining iqtisodiy nazariyasi» (1950 i) asarlarida o'z aksini topgan.

Uesli Kler Mitcheli Veblenning shog'irdi bo'lib, iqtisodiyotda diklik hodisalarining taraqqiyotchisi sifatida mashhurdir. Bu iqtisodiyotda konyunkturstatistik institutsionalizm oqimi hisoblanadi. Uningcha, iqtisodiy hodisalarini belgilovchi omillar bu ijtimoiy psixologiya, anana va urf-odatlardir, shu sababli tadqiqot pretmeti sifatida odamlarning xulqi o'rganiladi. Bu olim iqtisodiy ko'rsatkichlar, raqamlar, bu ko'rsatkichlar o'zgarishidagi qonuniyatlar bilan shug'ullanadi, kapitalistik iqtisodiyotni tartibga solishda ulardan foydalanishning yo'llarini izladi. U iqtisodiyotga ta'sir etuvchi omillarini aniqlashga intildi. Bo'lar uning fikricha moliya, pul muomalasi va kredit kategoriyalari edi.

Veblen tomonidan ilgari surilgan ta'limotida hozirgi zamoy jamiyatining qayta qurish, transformatsiya masalalari nihoyatda yuqori o'rinni egallaydi. Uning fikricha ilmiy texnika taraqqiyoti tufayli jamiyatdagi sotsial qarama-qarshiliklar yo'qolib boradi. Jamiyatining industrial jamiyatdan postindustrial, neoindustrial informatsion jamiyat sari rivojlanishi ro'y beradi. Texnik-iqtisodiy omillarni mutlaqlashtirish tufayli yangi konvergentsiya nazariyasini ilgari surish imkonini yaratildi. (J. K. Gelbreyt asarlarida sotsializm va kapitalizm tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar kayd etiladi). Rejalashtirishdan foydalanish, davlat va korporatsiya o'rtasidagi farqlarining yo'qolib borish, tashqi muhitni o'rganish, fan va ta'limning mehnat taqsimoti o'sishida asosiy omil ekanligi va boshqalarini o'z ichiga oladi. (Konvergentsiya nazariyasi). Asta-sekin kapitalizmning yomon tomonlari, sotsializmning yaxshi xususiyatlari bilan chirmashib ketishi kerakligi aytildi. «Kapitalizm transformatsiyasi» ro'y beradi, hozirgi davr institutsionalizmining asosiy g'oyasi shuki, postindustrial jamiyatining asosiy iqtisodiy omili asosiy resursi sifatida qaraladi va yangi jamiyat shaxsni har tomonlama qayta ko'rib chiqish kerak bo'ladi.

Tayanch iboralar.

Liberalizm. Neoliberalizm. Ijtimoiy bozor xo'jaligi nazariyalari. Monetarizm. Iqtisodiy taklif nazariyası. Yangi klassik makroiqtisodiyot. Institutsionalizm. Postindustrial. Postindustrial jamiyatlar.

Takrorlash uchun savollar.

- 1 .Yangi klassik maktab evolyutsiyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Neoliberalizmning mohiyatini tushuntirib bering?
- 3.Neoliberalizmning vakillaridan kimlarni bilasiz?
- 4.Sosial bozor xo'jaligi nazariyalari konsepsiyasining mohiyati nimada?
5. Monetarizm iqtisodiy ta'limotini gapirib bering
6. Pul muomalasi siyosati AQShdagi «Reyconomika» siyosatidan qanday farq qiladi?
7. Institutsionalizm nazariyasining mohiyati nimada?
8. Institutsionalizm nazariyası oqimlarini aytib berning.

16-MAVZU. O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ERKIN BOZOR IQTISODIYOTINI YARATISHNING KONTSEPTSIYALARI VA UNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI.

REJA:

- 1.Turkistonning mustamlaka davridagi iqtisodiy ahvoli. "g'arbiy kommunizm" siyosatining mohiyati.**
- 2. Yangi iqtisodiy siyosat, uning mazmuni va ahamiyati. Buxoro va Xorazm respublikalarining (1920-1924) iqtisodiy rivojlanishi tajribasi.**
- 3. Nokapitalistik (kapitalizmni chetlab o`tib) sotsialistik jamiyat qurish "nazariya"si va uning tarixiy taqdiri.**
- 4. Iqtisodiyotda ma`muriy buyruqbozlik tizimining g'alabasi (rejali iqtisodiyot). Bozor iqtisodiyotida muqobil tizim va uning inqirozi.**
- 5.O`zbekistonning mustaqil rivojlanish yo`liga o`tishi. Bozor munosabatlariga o`tish davrining tarixiy zaruriyati.Boshqariladigan ijtimoiy bozor iqtisodiyoti yo`lini tanlab olinishi va uning xususiyatlari.**

1.Turkistonning mustamlaka davridagi iqtisodiy ahvoli. "harbiy kommunizm" siyosatining mohiyati.

Turkiston o`lkasi 1865-1917 yillar davomida Rossiya imperiyasining mustamlakasi sifatida rivojlanadi. O`lka Rossianing sanoat hududlari uchun qishloq mahsulotlarini, birinchi navbatda paxta tolasini yetkazib beruvchi xomashyo bazasiga aylantirildi, shu vaqtning o`zida Rossiya sanoati mahsulotlari uchun realizatsiya qilinadigan tashqi bozorga aylandi. Birinchi o`rinda paxtachilikning rivojiga aloqida e`tibor berildi. Ma`lumotlarga ko`ra, dastlab paxta maydonlari barcha ekinzorlarining 20-30% idan ortiq bo`lmagan, donli ekinlar esa 50% atrofida edi. Bu tizimni buzish uchun paxtaning narxi keskin oshirildi va dehkonlar paxta maydonlarini kengaytirdilar. Yanga yerlar ochish va sug`orish borasida ham anchagina ish olib borildi. Shu davrda Mirzacho`lni o`zlashtirish va u yerkarni asosan paxtachilikka ixtisoslashtirish (90% gacha paxta) kuchaydi. Inqilobiy o`ynagan yana bir hodisa-bu yangi Amerika-Meksika paxta navining keltirilishi bo`ldi. Ishlab chiqarish munosabatlarida ham anchagina o`zgarishlar ro`y berdi, qishloq xo`jaligida yangi sinflar-quloqlar, pomeshchiklar paydo bo`ldi. Oqibatda 1908 yilda paxta maydonlari 244,7 ming desyatina(desyatina-1,1 ga)dan 1917 yil 425,8 ming) desyatina etdi (1980 yillarda 2mln. gektarga yetkazildi). Birinchi jahon urushi arafasida 597 ming desyatina yerga paxta ekilgan. Bu barcha sug`oriladigan maydonlarning 20%ni tashkil etgan.

Rossiya to`qimachilik sanoati 1900 yil 16 mln. pud (1 pud-16 kg) tola ishlatgan bo`lsa, bu ko`rsatkich 1913-14 yillarda 27,7 mln. pudga yetdi. XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Rossiyada nisbatan rivojlangan bozor tizimi vujudga kela boshladи. Ishlab chiqarish omillari: kapital, ish

kuchi,yer tovarga aylana boshladi, bu jarayonlar Turkistonda nisbatan sekinlik bilan ro`y berdi. Chunki bu yerda sanoatning faqat uy hunarmandchiligi shakli mavjud bo`lib, hatto manufakturna ham yo`q edi. Bu yerda yangi tipdagi sanoat korxonalari (manufakturadan "sakrab" o`tilib) zavod-fabrikalar, yangi ishlab chiqarish munosabatlari (yollanma ishchilar) vujudga kela boshladi. Moliya, bank kredit tizimlari vujudga keldi. Birinchi jahon urushiga qadar bu yerda tovar-pul munosabatlari, masalan, tovarchilik darajasi ancha yuqori edi.

Rossiya imperiyasining Turkistonda olib borgan iqtisodiy va ijtimoiy siyosati mahalliy aholini mustamlakachilik asoratida saqlash, iqtisodiyotni bir tomonlama agrar, xomashyo asosi sifatida rijojlantirish maqsad qilib qo`yildi va bunga to`la erishildi. Pirovard mahsulot ishlab chiqarishga yo`l berilmadi. Shunga qaramay, tabiiy ob`yekтив rivojlanish tufayli kapitalistik, feodalizmga nisbatan ilg`or ishlab chiqarish usullari namoyon bo`la boshladi; oz bo`lsa ham, xususiy, mashinalashgan fabrika-zavod tizimi, yollanma ishchi kuchi, tovar, pul munosabatlar, savdo, moliya, kredit va bank muassasalari, agrar sohada esa yangi sinf vakillari vujudga keldi.

X1Xasr oxiri-XXasr boshlaridagi temir yo`l qurilishi sanoat-savdo kapitaliga keng imkoniyat yaratdi.

Sho`rolar hokimiyati(1917) dastlabki paytlardan boshlab yetakchi tarmoqlar: bank, og`ir sanoat, transport (temir yo`l), tashqi savdoni milliylashtirdi, xususiy mulkka, tabirkorlikka qarshi harakat kuchaydi, bozor munosabatlarini imkoni boricha boshqarish eng asosiy vazifa qilib belgilandi.Sotsialistik deb atalgan iqtisodiyotni yaratish harakati boshlandi.

Og`ir iqtisodiy vaziyat sharoitida "harbiy kommunizm" siyosati amalga oshirildi. Bunda ishlab chiqarish va taqsimot ustidan to`la davlat nazorati o`rnatildi (kartochka tizimi joriy qilindi), qishloqlarda "oziq-ovqat razvertkasi" joriy etildi. Ishlab chiqarishdan manfaatdorlik tugatildi, hammaning ishlashi majbur qilindi, savdo amalda bekor qilindi. harbiy rejim o`rnatildi va amalda bozor munosabatlariga bolta urildi. Ishlab chiqarish keskin qisqardi. Xo`jalikning naturallashuvi kuchaydi, superinflyatsiya yuz berdi. Shunisi xarakterlikni, Turkistondagagi dastlabki o`zgarishlar, markazdan farqli o`ziga xos ravishda amalga oshdi. Masalan, "Yer haqidagi dekret" faqat 20-yillarda realizatsiya qilindi. Oziq-ovqat razvertkasi markazdagidan yengilroq amalga oshirildi. Xususiy savdoni ham tugatishga erishilmadi, ya`ni tovar-pul munosabatlari saqlandi. "harbiy kommunistik" tajriba inqirozga uchradi. 1918 yil RSFSR tarkibida Turkiston Avtonom Respublikasi tuzildi. 1920 yilda mustaqil Xorazm va Buxoro xalq respublikalari tashkil etildi. 1924-25 yillarda milliy davlat chegaralanishi tufayli SSSR (1922 yil) tarkibida O`zbekiston SSR (Tojikiston ASSR 1929 yilgacha UzSSR tarkibida bo`ldi, Xorazm va Buxoro respublikalari tugatildi, 1932 yilda qoraqalpog`iston ASSR O`zbekiston tarkibiga kirdi).

Ana shunday muammolar ichida iqtisodiyot hal qiluvchi o`rinni egallar edi, chunki mamlakat og`ir ahvolda qoldi. Ayniqsa yer masalasini hal etish muhim bo`ldi, u ikki bosqichda

o`tdi. 1921-22 yillarda birinchi bosqichda mahalliy aholi bilan ko`chib kelgan evropaliklar o`rtasidagi farq tugatildi.

1925-29 yillarda ikkinchi bosqichda barcha yerlar dehqonlarga bo`lib berildi dehqonlar yetegasiga aylandi. Ammo keyin yer tortib olindi va majburiy kollektivizatsiya o`tkazildi.

Og`ir ahvoldan chiqish uchun kapitalistik bozor munosabatlardan foydalanishga to`g`ri keldi va bu printsip amalda o`zini oqladi.

2. Yangi iqtisodiy siyosat, uning mazmuni va ahamiyati. Buxoro va Xorazm respublikalarining (1920-1924) iqtisodiy rivojlanish tajribasi.

Harbiy kommunizm" siyosati barbod bo`lgach, yangi iqtisodiy siyosatga (1921 yil) o`tildi, bu aslida kapitalistik munosabatlarga keng imkoniyat berish kontseptsiyasiidan iborat bo`lib, iqtisodiyotga yangicha qarash, jiddiy va uzoqqa mo`ljallangan kontseptsiya edi. Uning asl mohiyati shuki, iqtisodiyotda erkin tadbirdorlik va tanlash imkonini berildi, milliy lashtirilgan korxonalar (ayniqsa yengil va oziq-ovqat, xizmat tarmoqlari) denatsionalizatsiya (davlat tasarrufidan chiqarish - privatizatsiya) qilindi, ya`ni xususiy qo`llarga berildi, xususiy savdoga yo`l ochildi, eng muhim mehnatkashlar motivatsiyasini (rag`batlantirilishini) boquvchi oziq-ovqat razvertkasi o`rniga yagona oziq-ovqat solig`i joriy etildi.

Davlat eng muhim tarmog`larnigina o`z qo`lida saqlab qoldi, xo`jalikning asosiy qismi ishlab chiqaruvchilar qo`liga o`tdi. qishloqda tadbirdor dehqonlar-hulohlar faoliyati kuchaydi, ularda tovarlik ancha katta edi. Əkin maydonlari kengaydi, aynihsa paxta ekish kuchaydi. Sanoat ishlab chiharishi yo`lga qo`yildi, mayda ishlab chiharish, usta hunarmandchilik ham avj oldi.

Xorazm va Buxoro xalq respublikalari (1920-24 yillar)ning tashkil topishi va iqtisodiy rivojlanishida bir qancha o`ziga xos xususiyatlar mavjud. Bu hududlarning avvalo iqtisodiy rivojlanish darajasi nisbatan pastroq edi. Bo`lib o`tgan inqilob tufayli xalq respublikalari o`rnatildi, o`tkazilgan islohotlar asosan xalq demokratik o`zgarishlarni amalga oshirdi. Olib borilgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy siyosat oxir oqibatda sovet boshqaruvi tizimining joriy qilinishiga olib kelgan bo`lsa ham, bu o`zgarishlar asta-sekinlik bilan, ob`ektiv sharoitlarni hisobga olgan holda, shoshilmay olib borildi. Inqilobi usullar o`rniga islohotlar o`tkazish usuli ustun edi.

Rossiyada sho`rolar hokimiyati o`rnatalishi bilan yangi sotsialistik jamiyatni qurish rejaliari belgilandi, uning iqtisodiy poydevorini yaratish ishlari boshlanib ketdi.

Buning uchun o`z davrida uchta asosiy vazifani bajarish zarur deb topildi: 1.Sanoatni industrializatsiyalash.2.qishloq xo`jaligini kollektivizatsiyalash.3. Madaniy inqilob. Buning uchun mavjud iqtisodiy ukladlarni tugatish va yangi sotsialistik xo`jalik ukladini yaratish kerak edi. Ərkin

bozor iqtisodiyoti o`rniga buyruqbozlik iqtisodiyotining yaratilishi zarur bo`ldi, bunda umumxalq mulki etakchi o`rinni egallaydi, barcha ishlar markazdan boshqariladigan qat`iy rejalar asosida olib boriladi. Bozorga zid ravishda xususiy mulk (savdo), raqobat tugatildi, qat`iy baho va imperativ rejalar joriy etildi, yakka partiyaviylik o`rnatildi.

3. Nokapitalistik(kapitalizmni chetlab o`tib) sotsialistik jamiyati qurish nazariyasi va uning tarixiy taqdiri.

O`z taraqqiyotida orqada qolgan sobiq mustamlaka xalqlarining kapitalizmga qadar tuzumdan uni chetlagan holda yangi tuzum tomon borishlari uchun moddiy- texnik, sotsial-iqtisodiy va siyosiy sharoit yaratishga qaratilgan inqilobi o`zgarishlar yo`li, nokapitalistik rivojlanish kontseptsiyasi sifatida ilgari surildi.

qoloq xalqlarning kapitalizmni chetlab sotsializmga o`tishlari ikki asosiy xususiyatga ega:

1.Sotsializmni qurib bo`lgan yoki uni qurayotgan xalqlarga sotsializm uchun intilayotgan xalqlarga har taraflama yordam berishlari kerak.

2.hashshoh xalhlarning sotsializm tomon borishi ko`p pog'onali bo`ladi, ya`ni bu xalqlar turli bosqichlardan o`tadi.

Bu erda gap Markaziy Osiyodagi Davlatlarda sotsializm qurish masalasidir.Bu g'oya sho`ro ba jumladan, O`rta Osiyo va qozoqiston olimlari tomonidan to`la qo`llab-quvvatlandi.

O`zbekistonda asta sekin avvalo qishloq xo`jaligini, ayniqsa paxtachilikni tiklash bo`yicha talay ishlar amalga oshirildi, ekin maydonlari ko`paytirildi. Yangi sanoat, fabrika-zavodlar ham barpo qilina boshladi.

Amalda nokapitalistik (kapitalizmni chetlab) rivojlanish yo`li o`zini oqlamadi. 1985-1990 yillard ro`y bergen o`zgarishlar tufayli deyarli barcha sotsialistik deb atalgan davlatlar bozor iqtisodiyoti printsiplariga, yangi kapitalizmga qaytishga majbur bo`ldilar.

Asosan kapitalistik, ya`ni bozor munosabatlarining yordamida tiklangan xalq xo`jaligini rivojlantirish notabiiy yo`l bilan davom ettirildi. Iqtisodiyotni qat`iy rejalar asosida rivojlantirish ma`qul deb topildi. Asosiy maqsad nisbatan qoloq, asosan, agrar mamlakatda ilg`or industrlashgan iqtisodiyotni yaratish edi. Buning uchun 1928 yilda yillik rejalar asosida ish yuritildi. Ilg`or mamlakatlardan 50, hatto 100 yil orqada bo`lgan xalq xo`jaligini qisqa (10 yil) vaqt davomida ilg`orlar qatoriga etkazish yo`li tutildi. Bunda asosiy e`tibor og`ir sanoatga qaratildi. Unga eng ko`p investitsiyalar ajratildi, oqibatda ko`mir qazish, metal eritish, elektroenergiya hosil qilish mashinasozlik va boshqa tarmoqlarga ustuvor yo`nalishi berildi, xalq iste`mol darajasi past qilib saqlandi. Ishchi kuchlarini qishloq xo`jaligidan sanoatga jalb etish zarur edi. Ishchilarning iste`molini va sanoatini xomashyo bilan ta`minlash uchun agrar sohani o`stirish talab etiladi.

Rejalahtirilgan iqtisodiyotga o`tilishi bilan(1928-29 - 1932-33 yillar uchun) birinchi besh yillik reja qabul qilindi. Bu ikki asosiy o`zgarishga sabab bo`ldi.

Birinchidan investitsiyalar va harbiy xarajatlarning ko`payishi tufayli iqtisodiyotda shaxsiy iste`mol hissasi o`zgardi (ka4. Iqtisodiyotda ma`muriy-buyruqbozlik tizimining g`alabasi. Bozor iqtisodiyotiga muqobil tizim va uning inqirozi. SHu yillarda mamlakatda ma`muriy buyruqbozlik tizimi yuzaga keldi, bozor iqtisodiyotiga muqobil (al`ternativ) iqtisodiyotga o`tildi. Sotsialistik musobaqa bayrog`i ostida erkin raqobat tugatildi, xalq ommasining tashabbusi, mehnatga bo`lgan ishtiyoq (motivatsiya) bug`ildi, boqimandalik kayfiyati oshib bordi. Bu holat ayniqsa II jahon urushi yillarida avj oldi.

Urushdan keyingi yillarda rejalashtirish tizimi davom etdi, bu davrda investitsiyaga 25% yalpi milliy mahsulot sarflandi. Xalq xo`jaligi, paxtachilikni tiklash ishlari avj oldi. Bu ishda ekstensiv yo`l asosiy o`rinni egalladi, yangi erlar ochish, sug`orish tarmoqlari qurishga katta e`tibor berildi. Orol dengizi xuddi shu davrdan boshlab sayozlasha boshladи.

60-yillardan iqtisodiyotning o`sish sur`atlari kamaydi. Iqtisodiyotning o`sish sur`atlari pasayishi sabablari avvalo rejali iqtisodiyotning imkoniyatlari cheklanganligi bilan izohlanadi. Demak, bu usul ma`lum davrgacha samara bergen bo`lsa, endi uning aks ta`siri namoyon bo`la boshladи, yangi sharoitga moslashuv ro`y bermadi. "Inqirozga uchradi" deyilgan bozor iqtisodiyoti esa o`zgargan sharoitga moslashdi, ya`ni bozor iqtisodiyotining yangi sharoitga adaptatsiyasi yuz berdi va uning yangi rezervlari borligi aniqlanadi.

Undan tashqari iqtisodiyot sur`atlarining pasayishiga olib kelgan sabablar quyidagilar bo`ldi.
1. Ishchi kuchlari sonining o`sish sur`atlari yiliga 0,5% pasaydi. 2. Aholining qishloq joylardan sanoatga o`tishi yakunlandi, bu jaryon ishlab chiqarish unumdorligining oshishiga sababdir, chunki sanoatda qishloq xo`jaligiga nisbatan unumdorlik baland. 3. qishloq xo`jaligi unumdorligi o`smay qo`ydi, chetdan oziq-ovqatni import qilishga ehtiyoj sezildi.

Nokapitalistik, sotsialistik rivojlanish yo`li tarixan o`zini oqlamadi. Jahoning uchdan bir qismini egallagan sistemani qo`lladi, bozor iqtisodiyoti yo`lidan rivojlanish tarixiy zarurat bo`lib qoldi. 5.O`zbekistonning mustaqil rivojlanish yo`liga o`tishi. Bozor munosabatlariga o`tish davrining tarixiй zaruriyati. Boshqariladigan ijtimoiy bozor iqtisodiyoti yo`lini tanlab olinishi va uning xususiyatlari.

1991 yilning 31 avgustida O`zbekiston Respublikasining mustaqilligi e`lon qilindi. SHu kundan boshlab respublikaning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalarida yangi o`zgarishlar davri boshlandi. O`zbekistonning tarixiy, milliy, an`anaviy, demografik va boshqa xususiyatlarini hisobga olib, respublikamizda ijtimoiy jihatdan yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o`tish mustaqil jumhuriyatimiz ichki siyosatining negizi deb qabul qilindi. Bu yo`nalish o`z davrida nemis iqtisodchilari Vilgel'm Rebke (1899-1966), Vol`ter Oyken(1891-1950), Lyudvig Ərxard(1897-1977) lar tomonidan ilgari surilgan edi.

To`liq erkin bozor munosabatlariiga o`tish ma`lum taraqqiyot davrini talab etadi, bu tarixan aniq faktdir. Bozor munosabatlari nisbatan to`la amalga oshgan davlatlar tarixiga nazar tashlansa, bu davr bir necha asrlardan tortib bir necha o`n yillarni tashkil etadi. Masalan, klassik bozor munosabatlari tarkib topgan Buyuk Britaniyani oladigan bo`lsak, unga deyarli 200 yil, Frantsiyaga 150 yil, Germaniya va AQSHga 50-100 yil vaqt talab etildi.

Insoniyatning tarixiy rivojlanishi davomida iqtisodiyotda bozor munosabatlarining quyidagi shakllari farqlanadi:

1.Yovvoyi bozor (dastlabki paytda);

2.Ma`muriy - buyruqbozlik bozori (bir vaqtlar sobiq SSSRda va "sotsialistik" deb atalgan mamlakatlarda);

3.Boshqariladigan bozor(hozirgi deyarli barcha rivojlangan yetakchi mamlakatlarda).

Erkin bozor iqtisodiyotiga o`tish uchun quyidagi zarur shart-sharoitlar talab etiladi:

a)tanlash va tadbirkorlik erkinligi;

b)baholarning erkinligi (bahoni talab va taklif asosida bozor belgilaydi);

v)erkin raqobat (monopoliyaga qarama-qarshi);

g)mulkarning turli tumanligi va ularning huquqiy jihatdan qonun oldida tengligi(davlat, xususiy, jamoa mulklari...);

d)davlatning iqtisodiyotga imkonli boricha kamroq aralashuvi va boshqalar.

Respublikamizning bozor munosabatlariiga o`tish kontseptsiyasi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti, akademik I.A.Karimovning asarlari, risola va nutqlarida izohlab berilgan.

O`zbekistonning tarixiy, milliy, an`anaviy, ekologik va boshqa sohalardagi tajribalariga asoslanib, respublikada ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o`tish yo`li maqbul deb topildi. Bu o`tish yo`li tadrijiy (evolyutsion), ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

O`zbekistonning bozor munosabatlari tez va bo`xronsiz o`tishi uchun qulay sharoitlar anchagina. Bu avvalo siyosiy mustaqillikning mavjudligidir; xalqimizning boy tajribasi va mehnatkashligi, intelektual boyligi tufayli xatto ma`muriy-buyruqbozlik davrida ham bozorlar mavjud bo`lgan va asosiy talab-ehtiyojni qondira olgan. Agar ishlab chiqarishga ilg`or texnologiya, fan-texnika yutuqlari joriy etilsa, boy moddiy texnika resurslarimiz ishga solinsa, xalqimiz va davlatimiz tezda rivojlanib, nisbatan qisqa davr ichida ilg`or mamlakatlar qatoriga qo`shiladi. Bozor iqtisodiyotiga o`tishning "o`zbek modeli" kontseptsiyasi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti akademik I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan.

Uning besh tamoyili mavjud:

1.Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi va bunda iqtisodiyotning mafkuradan holi bo`lishi.

2.Davlat bosh islohotchi.

3.qonunning hamma narsadan ustun turishi.

- 4.Kuchli ijtimoiy siyosat, ijtimoiy yo`naltirilgan bozor.
- 5.Bozorga bosqichma-bosqich, tadrijiy (evolyutsion) yo`l bilan borish.

Tayanch iboralar.

O`zbekistonning bozor munosabatlariga o`tish zarurligi; o`tish davri xususiyatlari va bosqichlari; islohotlarning besh tamoyili; I.Karimov asarlardagi iqtisodiy g`oyalar.

Takrorlash uchun savollar.

- 1.O`zbekistonda "sotsialistik" deb atalgan tuzum davrida ro`y bergan iqtisodiy o`zgarishlarni oqibati qanday bo`ldi? Ma`muriy-buyruqbozlik va rejali iqtisodiyotning yutuq va kamchiliklari nimalarga olib keladi?
- 2.Rivojlanish sur`atlarning pasayishi,rejali iqtisodiyot inqrozi, siyosiy- ijtimoiy va ekologik muammolarning sabablari nima?
- 3.Mustaqil O`zbekiston iqtisodiyotida bozor munosabatlariga o`tishning tarixiy zarurati nimalardan kelib chiqadi?
- 4.Boshqariladigan ijtimoiy bozor kontseptsiyasining mohiyati qanday?
- 5.Bozorga o`tishning "shok terapiyasi" va tadrijiy usullari bir-biridan nima bilan farq qiladi?

FOYDALANADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Amir Temur haqida so`z.-T.: O`zbekiston,1996
2. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lida.-T.: O`zbekiston, 1998, Tom 6.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q.-T.: SHarq 1998.

4. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz.-T.: O`zbekiston,2000.
5. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma`sulmiz.-T.: O`zbekiston, 2001.Tom 9.
6. Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik
7. E. egamov Iqtisodiy ta`limotlar tarixi. T.: O`zbekiston 2003
8. Islomov “Iqtisodiy ta`limotlar tarixi” T.: 2003
9. S.S.G`ulomov “Iqtisodiy ta`limotlar tarixi” T.: Fan, 1997
10. Titova N.E. “Istoriya ekonomicheskix ucheniy” M.: Vladivostok, 1997
11. .Blaug M. ekonomiceskaya misl' v retrospektive.-M.:1994.
12. .Keyns Dj.M. Obshaya teoriya zanyatosti, protsentov i deneg. - M.;1993.
13. Islamov A.,Egamov e. Iqtisodiy ta`limotlar tarixi (o`quv qo`llanma) –T.: TMI, 2001.
14. YUsupov YU.K. Stanovlenie i razvitie ekonomiceskoy nauki.-T.:A.O. Uchkun, 1999.

